



UDK:94(584.4):343.1(092)

Dilafroz AXMEDOVA,
O'zFA Tarix instituti tayanch doktranti
E-mail: dilafroz.ahmedova.92@mail.ru

O'zMU dotsenti K.To'xtabekov taqrizi asosida

MAKTUBLARDA XIVA VA BUXORO XONLIGI TARIXI

Аннотация

Maqolada manbashunoslikning ajralmas qismi bo'lgan diplomatika sohasining epistolografiya (xat va maktublarni o'rganish) yo'nalishida Xiva va Buxoro xonliklarining o'zaro aloqalarini o'rganishga e'tibor qaratildi. Maktublar yozma manba sifatida qimmatli ahamiyatga ega. Yozishmalar xonliklar davrining siyosiy-iqtisodiy va madaniy tarixini tizimlashtirilgan maktublar asosida o'rganish tariximiz sahifalarini faktik jihatdan boyitishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Arxiv, maktub, epistolografiya, tarassul, munshaot, siyosiy boshpana, ixlosnoma, tahniyatnoma, fathnoma, xalqaro yozishma, ma'ziratnoma, devonbegi, qushbegi, agentura.

ИСТОРИЯ ХИВИНСКОГО И БУХАРСКОГО ХАНСТВА В ПИСЬМАХ

Аннотация

В статье основное внимание уделяется изучению взаимоотношений Хивинского и Бухарского ханств в направлении эпистографии (письмоведения), которая является неотъемлемой частью источниковедения. Письма ценны как письменные источники. Переписка служит фактическому обогащению страниц нашей истории изучения политической, экономической и культурной истории ханского периода на основе систематических писем.

Ключевые слова: Архив, письмо, эпистография, тарасул, муншаат, политическое убежище, ихлоснама, поздравление, фатнама, международная переписка, мазиратнама, девонбеги, кушбеги, агентство.

HISTORY OF THE KHANATE OF KHIVA AND BUKHARA IN LETTERS

Annotation

The article focuses on the study of the relationship between the Khiva and Bukhara khanates in the direction of epistolography (writing), which is an integral part of source studies. Letters are valuable as written sources. Correspondence serves to actually enrich the pages of our history of studying the political, economic and cultural history of the Khan's period on the basis of systematic letters.

Key words: Archive, letter, epistolography, tarasul, munshaat, political asylum, ikhlosnoma, congratulations, fatnama, international correspondence, maziiratnama, devonbegi, kushbegi, agency.

Kirish. Buxoro, Xiva xonliklarining tashkil topishi va mazkur hududlarda Mang'it, Qo'ng'iro't sulolalarining hukmronlik qilishi davlatchilik tarixining muhtasham kezi kelganda, o'ta ziddiyatlarga boy bo'lgan qismini tashkil etadi. Mazkur davr voqea-hodisalari bilan bo'lgan jarayonlarga aniqlik kiritishda sulola xonlari va amaldorlari o'rtasidagi olib borilgan yozishmalar muhim manba ahamiyat kasb etadi. O'zaro aloqalarini tarixiy manbalar va hujjatlarda keltirilayotgan ma'lumotlarning o'rni katta. Diplomatika sohasining maktublarni o'rganish (epistolografiya) sohasi qoidalariga tayanilgan holda, birlamchi tarixiy asarlar bilan taqqoslangan holda tadqiqot amalga oshirildi.

Mavzuga oid manba va adabiyotlar tahlili. O'zbekiston Milliy arxivining I-125 fond "Xiva xonligi devonxonasi", I-126 fond "Buxoro qushbegi arxivi" hujjatlarida xonliklar o'rtasida yozilgan maktublar mavjud. Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo'lyozma fondlarida saroy munshiyolari tomonidan jamlangan maktublari saqlanmoqda. "Maktubot, Munshaot va Manshurot", "Munshaot va yorliqot", "Maktuboti Amir Haydar" [6] deb nomlanuvchi qo'lyozma yig'masida Buxoro amirlarining qo'shni davlatlar bilan bir qatorda Xiva va Qo'qon xonliklariga yozgan maktublari uchraydi.

O'rta asrlarda hujjatshunoslik masalalari bo'yicha O.D. Chexovich va B.A. Kazakovlarning tadqiqotlari alohida o'rin tutadi. Mazkur mualliflarning va bir qator olimlarning tadqiqotlarida "xat-hujjat turlari" va ular bilan ishlash borasida qimmatli yo'riqnomalar mavjud [5]. Shuningdek, D. Valiyeva,

N. Polvonov, F. Otaxonov, M. Mubinov, S. Isroilov, N. Allayeva, G. Sultonovlarning ilmiy ishlarida xonliklar o'rtasidagi aloqalar va diplomatik munosabatlarga doir ma'lumotlar o'rin egallaydi [2]. Ilmiy muomalaga tortilayotgan tarixiy hujjatlar o'rganilayotgan davr tarixini yangi ma'lumotlar bilan boyitishga yordam beradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada tarixiy maktublarni aniqlash, ularni turkumlash va birlamchi yozma manbalar bilan solishtirish, davrga oid yondosh rasmiy hujjatlar bilan qiyoslash hamda kontent tahlil qilish usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Buxoro va Xiva xonligi o'zaro yozishmalarida o'rganilayotgan davrning muhim siyosiy masalalari jumladan, Eron shohi Nodirshohning xonliklar hududiga yurishi, Muxolif kuchlarning kurashi, Mamlakat hududidan siyosiy pano' berilishi kabi masalalar o'z aksini topgan.

O'rganilayotgan davrning xronologik boshlanish davri Ashtarxoniyalarning so'nggi hukmdori Abulfayzxon (1711-1747) hukmdorligi voqealari bilan bog'lanadi. Buxoro va Xiva xonligining o'zaro aloqalari va yozishmalari faol tarzda amalga oshirilgan. Eron shohi Nodirshoh (1736-1747) Hindistonga hujum qilib, qaytish chog'ida o'zining askarlariga Buxoro va Xivaga hujum qilishini buyurgan[14]. Ushbu yurish tafsilotlari davrni aks ettiruvchi manbada qayd etilgan[14]. Shuningdek, "Tarixi Turkiston" asarida "Buxoro xoni Abulfayzxon va Hakim otaliq sarhadni saqlamoq uchun Urganch xoni Yo'lbarsxon ila ittifoq qilib, Xiva xoni 60

mingga yaqin qo'shinni Qarshi tomon yuborgan"i yozib o'tilgan[8,108]. Mazkur voqealar "Firdavs ul iqbol" asarida ham o'z ifodasini topgan bo'lib, "Buxoro xoni Abulfayzxon va Hakim otaliq Xiva xoni Elbars (1728-1739) va Eshmuhammadbiydin istimdod qildi (yordam so'radi). Alar anga ming kishi ko'mak yiborib, Elbarsxonning o'zi izidan og'ir cherik bila yurish qildi. Xon hanuz Buxorog'a yetushmay, qizilboshiya Qarshida Abulfayzxon bila yarashib, murojaat qilg'on xabari yetushib, qaytti" – deya voqea tafsiloti ma'lum qilingan[10,103]. Garchi, ittifoqchilik asnosida almashinilgan maktublar saqlanib qolinmagan bo'lsada, tarixiy asarlarda xonliklar o'rtasidagi munosabatlarga ishora qilinganligini kuzatish mumkin. Nodirshoh qo'shinlari Buxoroni egallangandan so'ng, Abulfayzxon Xiva xoni Elbarsxonga bo'ysunish taklifi bilan yuborilgan xatiga [1] uning rad javobi eronliklarni Xorazm tomonga yo'nalishini tezlashtirgan [9]. Nodirshoh Buxoro va Xivani bosib olgandan so'ng, xonliklar o'rtasidagi munosabatlar asosan, "xonbozi" – xonlar o'yinlarida ya'ni, Buxorodan chingiziy avlodlarini olib kelib taxtga o'tqazishi jarayonlarida o'z aksini topgan. Xiva xoni G'oyibxon (1746-1756) Dashti Qipchoqqa qochib ketganidan so'ng [12], "Orol, Gurlan Urganch umarolari Xivaq umarosiga muxolifatda bo'lib, Buxorog'a istimdod (yordam so'rash) uchun Rahimxon ibn Hakim otaliqqa maktub yozib, kishi yuborgan. Rahimxon Temurg'ozini o'rtada xon qilib ko'tarib, Xivaga yuborgan"ligi manbalarda eslatilgan [10]. Shuningdek, bunday xonlar almashinuvida Buxoro xonligidan Temurg'ozini(1757-1764)dan tashqari, Ortuq'ozixon va Po'ladg'ozixon kabi soxta xonlar kelib Xoramzni rasmiy nom bilan boshqargan. Amalda xonlik boshqaruvi inoq lavozimi egasi qo'lida bo'lgan.

Ikki sulola o'rtasidagi diplomatik munosabatlarda ichki muxolifatga qarshi kurash masalasi alohida mavzu bo'lib, ushbu masala yuzasidan maktublar almashinib turilgan. Qo'ng'irotlar sulolasining hokimiyatga kelishi Muhammad Amin inoq (1770-1790) nomi bilan bog'liq. U hokimiyatni o'z qo'lida mustahkam tutish uchun harakat boshlagan. Biroq, muxolifatdagi qarshi kuchlar o'z harakatlari bilan mamlakat boshqaruviga jiddiy ta'sir ko'rsatib turgan. Yovmutlarning Xiva xonligiga hujumi Muhammad Aminni amir Doniyolbiy (1758-1785) dan yordam so'rashiga majbur qilgan. Ushbu xabarning xat ko'rinishidagi matni saqlanib qolinmagan bo'lsa-da, davrga oid tarixiy manbalarda saqlangan yondosh ma'lumotlar voqea tafsilotlariga oydinlik kiritadi. Xiva xoni va Buxoro amiri o'rtasidagi munosabatlar "yaxshi" bo'lib ko'rinsa-da biroq, Doniyolbiy "ikki yoqlama" siyosat olib borganligi ma'lum bo'ladi. Muhammad Amin inoq hukumatiga qarshi bo'lgan yovmut sardorlari Menglikeldi saqov, Do'nmas sardor va Niyoz Qilichbeklar Doniyolbiy huzuriga kelganda, amir ularga xayrixohlik bildirdi [10]. Tabiiyki, bu holat Muhammad Amin inoqqa xush kelmagan. Natijada, Xivaga qaytishga majbur bo'lgan va kuch bilan hokimiyatni qo'lga kiritdi.

Xiva va Buxoro xonliklari munosabatlari goh qo'llab-quvvatlash, goh inkor qilish tarzida davom etdi. Yovmutlarga qarshi kurashda Muhammad Amin inoqning hamkori bo'lgan Niyoz Parvonachi o'rtasida ziddiyat yuzaga keldi. Mavjud vaziyatda amir Niyoz Parvonachini qo'llab quvvatladi [10,158]. Inoq va parvonachi o'rtasidagi keskinlashgan munosabat keyingi hukumdorlar davrida ham davom etgan. Niyoz parvonachining o'g'li Bobobekni qo'llab Buxoro amiri unga qo'shin yuborgan [10].

Buxoro va Xiva munosabatlariga ayrim hollarda tashqi omillar ham ta'sir ko'rsatib turgan. Amir Shohmurod (1758-1800) va Xiva xoni Avazbiy inoq (1790-1804) davrida o'rtadagi munosabatlarining keskinlashishiga siyosiy boshpana izlab kelgan afg'on shahzodasi Mahmud (1800-1803) sababchi bo'lgan. Bu vaqtda Afg'oniston hududida Ahmadshoh Durroni yorislari o'rtasida ichki kurashlar avj

olgan edi. Zamonshoh (1793-1800) taxtni egallagach, yana bir voris - shahzoda Mahmud Buxoro hududiga kelib, amir yordamida afg'on hokimiyatini qo'lga olishni maqsad qilgan. Rejasi amalga oshmagan shahzoda Mahmud "haj ziyorati" bahonasida amirdan bir-ikkita qirchang'i ot va 100 tillo amaliy yordam olib Buxoroni tark etgan [14]. Shundan so'ng, shahzoda Mahmud Xorazmga tashrif buyurgan. Bu orada, Zamonshoh Buxoro amiriga yozgan maktubida "shahzoda Mahmudni o'ldirilishini yoki vataniga qaytarib yuborilishini unday qilinmasa, Buxoro qamog'ida saqlab turilishi uchun har yili 600 afg'on yuborib turishini" ma'lum qilgan [10]. Bu masalani yechimi uchun amir Shohmurod Xiva xoni Avazbiy inoqqa Mullo Boltani yuborgan. Unda "Shahzodani qaytarib yuborsinlar" deb iltimos qilingan. Xiva xoni rad javobini bergan. Ikki o'rtada nizo kelib chiqqan [1].

Qo'ng'iroq va Mang'it sulolalari o'rtasidagi munosabat Avaz inoq va Amir Haydar (1800-1826) davrida ham saqlanib qolgan. Asosiy sabab, savdo karvonlarining bir-biri tomonidan talanishi edi [7]. Keskinlashgan vaziyatga qaramasdan, Avaz inoqning vafoti munosabati bilan amir Haydar tomonidan Abdullohbek va Podsho Azizlar ta'ziya bildirilgan ixlosnomani Xiva xonligiga olib boradi [10]. Ixlosnoma o'rta asr yozishmalarining bir turi bo'lib, unda yangi kelgan hukmdorning tan olganligi bildirilgan.

Biroq, muxolif kuchlarning ta'sirida munosabatlar keskinlashib bordi. Bunga sabab, Eltuzarxon (1804-1806) ga qarshi bo'lgan Bekpo'lod avlodi – Otaniyozning Amir Haydar tomonidan qo'llab quvvatlanishi bo'ldi. Aynan shunday holat, Xiva xoni Eltuzarxonning Din Nosirbekni qo'llab-quvvatlaganligi bilan izohlanadi. Din Nosirbek Buxoro amiri Haydarning ukasi bo'lib, u Marvni boshqarib turgan. Din Nosirbek Eltuzarxon ko'magiga ishonib, ixlosnomasini yuborgan va uning hokimiyatini tan olgan. Natijada urush kelib chiqqan. "Gulshun ul-mulk" asarida: "1290 yil (hijriy)da Niyozbek parvonachini Xorazmga jo'natadi. Bu vaqt Eltuzarxon (Xiva xoni) Amudaryodan u tomonga o'tdi. Uning ko'plab lashkarlari o'zi bilan daryoga g'arq bo'ldi..." deb keltirilgan [13].

1806 - yilda sodir bo'lgan kurashda Eltuzarxonning ukasi Qutlug' Murod asirga tushib, amirning taklifi va qistovi bilan Xorazm davlatini Buxoro amirligi ta'sirida boshqarilishiga rozilik bildirdi [16,126]. Bu vaqtda Xiva taxti Muhammad Rahimxon I (1806-1825) tomonidan egallagan bo'lib, Qutlug' Murod voqea tafsilotini amir Haydarga yozilgan maktubida quyidagicha ma'lum qilgan: "arkoni davlat va fuqaro va ulamo birodarim Muhammad Rahimga bay'at qilib, men kelmasimdan ilgari uni xon qilib ko'taribdi" [8,175]. Tabiiyki, xonliklar o'rtasidagi munosabatlar Rossiya imperiyasi amaldorlarini farq qoldirmagan. Ushbu voqea haqidagi xabarni Rossiya Tashqi ishlar vaziri A.YA Budbergning Orenburg general gubernatori G.S. Volkonskiyga yuborgan maktubida: "Buxoro amirining xivaliklar ustidan g'alaba qozonganligi, shuningdek, Buxoroning keyingi siyosiy harakatlariga e'tibor qaratishimiz kerakligini ko'rsatadi. Rossiya imperiyasi hozirda ular o'rtasidagi munosabatlariga aralashmasada, chegaradosh Buxoro amirining keyingi harakatlarini kuzatishimizga to'g'ri keladi" deb ma'lum qilgan [3].

Amiri Haydar Eltuzarxon bilan urush g'alabasidan so'ng, yagona yirik davlat tuzish niyatida, Xiva va Qo'qon xonlariga "inoyatnoma" yuborib, tobelikka o'tishini so'ragan [4]. Shu sabab xonliklar o'rtasidagi elchilik aloqalarini birmuncha uzilib qolgan. Munosabatlarni yumshatish istagida Amir Haydar o'z o'g'lining xatna to'yi munosabati bilan Muhammad Rahimxon I ga maktub yuborgan [11]. Unga javoban, Xiva xoni to'y tabrigi ya'ni "tahniyatnoma"ni Amir Haydarga jo'natadi. Xatda Muhammad Rahimxon I Orol bo'yi qoraqalpoqlarini fath etganligini bildirib qo'ygan. Elchilik munosabatlariga doir xatlar Buxoro munshiyolari

tomonidan ham qayd etilgan[6]. Munshiyarning yozishicha, Buxoro arkoni oliysi Muhammad Rahimxonning taxtga chiqqanligi bilan qutlab, har ikki davlat o'rtasidagi savdo yo'li xavfsizligini ta'minlashni maqsadga muvofiq deb bilgan [1555].

Xulosa. Epistolografiya (xat va maktublarni o'rganish) sohasini o'rganish muhim. Xiva va Buxoro xonliklari o'rtasida bitilgan maktub – nomalarda ikki davlat

o'rtasidagi o'zaro munosabatlar aks etadi. Mazkur maktublarning mazmuni tarixiy asarlarda qisman ba'zan to'liq ravishda bayon qilingan. Maktublarning vazifasiga ko'ra, ixlosnoma, fathnoma, tahniyatnoma, ma'ziratnoma kabi turlari amalda bo'lgan. Maktublar xonliklar davrining siyosiy-iqtisodiy va madaniy tarixini o'rganishga, tariximiz sahifalarini faktik jihatdan boyitishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Mir Abdoul Kerim Boukhary. Histoire de l'Asie centrale (Afghanistan, Boukhara, Khiva, Khoqand) / Ch. Schefer. – Paris: Ernest Leroux Editeur.1876. P. 46-47. Mir Abdoul Kerim Boukhary. Histoire de l'Asie centrale (Afghanistan, Boukhara, Khiva, Khoqand) / Ch. Schefer. – Paris: Ernest Leroux Editeur.1876. – P. 26-27.
2. Валиева Д. XIX асрнинг биринчи ярмида Бухоро ва Хиванинг ташқи иқтисодий алоқаларига доир (Архив хужжатлари асосида) // Шарқшунослик. – Тошкент, 1997. № 8, - Б. 162-169; Тилолов Ш. Амир Ҳайдар мактублари тарихий манба сифатида // Шарқшунослик. – Тошкент, 1997. №8. – Б. 11-18;
3. Внешняя политика России XIX и начала XX века. Документы Российского Министерства иностранных дел СССР, дело № 169. Т.3. Серия первая. – Москва, 1968. – С.411-412.
4. Исҳоқхон тўра Ибрат. Танланган асарлар. Тошкент: Маънавият, 2005. – Б. 96.
5. Казаков. Б.А Документальные памятники Средней Азии. – Ташкент: Узбекистан, 1987. – С. 56; Чехович О.Д. Задачи среднеазиатской дипломатии // Народы Азии и Африки, 1969, № 6, – С. 75-82;
6. Мактубот, муншаот ва маншурот. ЎзРФА ШИ қўлёмаси, инв. № 289; Муншаот ва ёрликот. ЎзРФА ШИ қўлёмаси, инв. № 302/II; № 300/III.
7. Манбаларда “Йимроли воқеаси” келтирилади. Ушбу воқеада Хива хонлиги таркибига кирувчи Марв туркманларнинг Бухоро қарвонини талагани маълум бўлади. Бунга жавобан, Бухоро амирлигига бўйсунувчи Сарахс ҳудудидаги туркманлар Машҳаддан қайтаётган Хива қарвони талаган. Демак, бу даврда ҳар икки давлат ўртасидаги муносабатларнинг кескинлашувига туркман қабилаларининг ҳаракатлари таъсир кўрсатган.
8. Мирза Олим Маҳмуд Ҳожи. Тарихи Туркистон. Араб тилидан таъдир Ш. Воҳидов ва Р. Ҳолиқованики. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2008. – Б. 168, 175.
9. Мири Хусайн ибн Шоҳмурод. Маҳозин ат-такво. ЎзФА Шарқшунослик институти, № 51 и № 2773.
10. Мунис ва Огаҳий. Фирдавс ул иқбол / Масъул муҳаррир ва турқум муаллифи Ш.Воҳидов. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2010. - Б. 103,106,136,146,158,171,192.
11. Муталов О. Хива хонлиги Оллоҳқулихон даврида / Масул муҳаррир Б. Маннонов. – Тошкент, 2005. -Б. 110.
12. Муҳаммад Вафо ибн Муҳаммад Зокир Карманогий, 2) Олимбек Ниёзқулибек. Тухфа-и хоний. ЎзРФА ШИ № 2721. 286-б.
13. Муҳаммад Ёқуб бинни Амир Дониёлбий. Гулшан ул мулк. ЎзФА Шарқшунослик институти, № 12, 132-а варақ.
14. Низомиддинов И. Ўрта Осиёнинг Чет эл шарқи билан муносабатлари (Бухоро амирлигининг Ҳиндистон, Афғонистон ва Эрон билан бўлган муносабатлари тарихидан). Ўзбекистон ССР Давлат Нашриёти. Тошкент. 1961. – Б. 87,88,108.
15. Султонова Г. Расмий хужжатларда Бухоро ва Хива муносабатларининг акс этиши: талкин ва таҳлил // Мерос. 2019. № 1. – Б. 76.
16. Худоёрхонзода. Анжуман ат-таворих (тарихлар юлдузлари) / Форс тилидан И. Бекжонов таржимаси. Тошкент: Мерос, 1993. – Б. 126



UDK: 94:398(575.1)

Mashhuraxon DARMONOVA,
O'zFA Tarix instituti bo'lim boshlig'i, PhD.
E-mail: mashxura.darmonova@gmail.com

O'zMU Manbashunoslik va arxivshunoslik kafedrasida dotsenti, PhD A.Nazarov taqrizi asosida

ABOUT "MILLIY TURKISTON" JOURNAL

Annotation

Because of the repression policy of the Soviet authorities, political and cultural organizations were formed by our compatriots who stayed abroad. These organizations kept struggles for national liberation by the means of press and radio in order to reduce the influence of Soviet power in Turkestan. The article is illustrated by the Journal "Milliy Turkiston", a publication of the Turkestan National Unity Committee.

Key words: Journal "Milliy Turkiston", national unity of Turkestan, Vali Qayumkhan, Mustafa Cho'kai, politics of repression, struggle for national liberation, immigrants, history.

О ЖУРНАЛЕ «МИЛЛИЙ ТУРКИСТОН»

Аннотация

Со стороны наших соотечественников, оставшихся за рубежом, в результате репрессивной политики советской власти, были созданы политические и культурные организации. Эти организации вели борьбу через печать и радио за уменьшение влияния Советской власти в Туркестане, национальное освобождение. В статье речь идет о журнале «Миллий Туркистон» («Национальный Туркестан»), издании Туркестанского комитета национального единства.

Ключевые слова: Журнал «Миллий Туркистон», национальное единство Туркестана, Вали Каюмхан, Мустафа Чокай, политика репрессий, борьба за национальное освобождение, иммигранты, история.

“MILLIY TURKISTON” JURNALI XUSUSIDA

Annotatsiya

Sovet hokimiyatining olib borgan qatag'on siyosati natijasida xorijda qolib ketgan vatandoshlarimiz tomonidan siyosiy va madaniy tashkilotlar tuzilgan. Ushbu tashkilotlar sovet hokimiyatining Turkistondagi ta'sirini pasaytirish, milliy ozodlik uchun kurashini matbuot va radio orqali amalga oshirganlar. Maqolada Turkiston milliy birligi qo'mitasining nashri "Milliy Turkiston" jurnali haqida so'z boradi.

Kalit so'zlari: "Milliy turkiston", Turkiston milliy birligi, Vali Qayumxon, Muqtafo Cho'qay, qatag'on siyosati, milliy ozodlik uchun kurash, muhojirlar, tarix.

Kirish. 1917 - yilda Chor Rossiyasi qulagandan keyin tashkil etilgan bolsheviklar boshqaruvi ham xuddi shu strategik amaliyotni davom ettirdi. Turkistonni sharq va g'arbga bo'lib, o'zining yangi zo'rvonlik strategiyasi, "Turkiston"ni ruslashtirish siyosatini boshlab yubordi. Shuningdek, siyosiy, ma'naviy, iqtisodiy va ijtimoiy sohalarida jamiyat manfaatlariga zid holda amalga oshirilgan o'zgarishlar xalqning keskin qarshiligiga uchragan hamda bu qarshilikni yengish uchun bolsheviklar zo'rlik-zo'rvonlikka asoslangan qatag'on siyosatini amalga oshirgan.

Qaror topgan ma'muriy-buyruqbozlik tizimi va uning rahbar o'zagi kommunistik partiya mo'tadil-ma'muriy tartibda, ruhiy bosim o'tkazish usulini qo'llab, siyosiy qatag'onni kuchaytirib borgan. Bu bosqinni qabul qila olmagan ziyolilarning muhim bir qismi bu holatga qarshi harakat qilgan. Natijada, ko'plab yozuvchi, jurnalchi va o'qituvchilar qatag'on qurboni bo'lgan, ulardan ko'plari otib tashlangan. Yana bir qismi olis mehnat tuzatish jamloqlariga surgun qilingan, ko'plari esa o'z yurtlarini tark etishga majbur bo'lgan [1].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. "Milliy Turkiston" jurnali Berlinda nashr etilgan bo'lib, bugungi kunda Germaniyadagi kutubxona va arxivlarida saqlanib kelinmoqda. Shuningdek, mazkur jurnal Turkiyadagi shaxsiy arxivlarda ham mavjud. Ushbu jurnal o'zbekistonlik tadqiqotchilar tomonidan o'rganilmagan va ilmiy iste'molga kiritilmagan. Turkiyada Ahad Andijon [2], Timur Xo'jao'g'li

[3], Chig'atoy Ko'char [4] va Nurgul Uzunel [5] mavzu doirasida tadqiqotlar olib borganlar.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolani yozishda xronologik, diaxron, tarixiy taqqoslash uslublaridan keng foydalanildi. Jumladan, tarixiy taqqoslash uslubi tadqiqotdagi tarixiy jarayon tavsilotlari aniq va ravshan bo'lmaganda uning mohiyatini ochishga, shuningdek, umumiylikni, qonuniylikni, takrorlanuvchanlikni aniqlash hamda umumlashtirishga va tarixiy parallellikni yuzaga chiqarish uchun imkon berdi.

Tahlil va natijalar. Millionlab turkistonliklar, ayniqsa Afg'oniston, Eron, Sharqiy Turkiston, Yaqin Sharq mamlakatlari, Turkiya va Yevropa davlatlariga tarqab ketganlar. Dunyoga chiqqan turkistonlik ziyolilar vaqtini boy bermay, sovet hokimiyatining olib borayotgan siyosatiga qarshi kurashni chetdan olib borish maqsadida uyushma, jamiyat va shunga o'xshash tashkilotlar tuzganlar. Bu tashkilotlar yordamida ular "Xorijdan eshittirish" harakatini boshlaganlar. Turkiston masalasini tashqi dunyoga tushuntirish, Turkiston haqidagi xalq ovozlari xabardor qilish bu kurashning eng muhim jihati tashkil etgan.

Turkistonda hali kurash davom etayotgan bir paytda tashkil etilgan "O'rta Osiyo Milliy Avomi inqilobiy qo'mitalari" dastlab "Turkiston ozodlik jamiyati"ga, keyin esa "Turkiston milliy ittifoqi"ga aylantirilgan. Bundan asosiy maqsad Sovet Ittifoqining asirligida qolgan boshqa millatlar bilan birgalikda Sovet Ittifoqining parchalanishini ta'minlash va o'z mamlakatining mustaqilligiga erishish bo'lgan [6].

Bunga faqat matbuot va radioeshittirish orqali erishish mumkinligini bilib, Istanbulda joylashgan Turkiston milliy birlik (TMB) harakatining ilk tashabbusi bilan “Yangi Turkiston” jurnalining nashr etilishi yo'lga qo'yilgan. 1927 - yil iyun oyida nashr qilina boshlangan [7] “Yangi Turkiston” jurnali tez orada Turkiston kurash harakatining tashqi dunyodagi matbuot kotibiga aylangan. Biroq, 1928 - yilda Turkiya Respublikasi ma'muriyati tomonidan kun tartibiga kiritilgan alifbo inqilobi va lotin alifbosiga o'tish qarori “Yangi Turkiston” jurnalining nashr organi bo'lgan Turkiston milliy birlik harakati faoliyati sohasini ancha qisqartirgan. Jurnal lotin harflarida nashr etilishi bilan Afg'oniston, Hindiston, Eron va arab davlatlarida yashovchi turkistonliklarga yetib borish imkoniyati yo'qolgan. Turkiston milliy birligi rahbariyati vaziyatni baholagan holda jurnalning bosh qarorgohini Yevropaga ko'chirish va uni arab harflarida qayta chop etish bo'yicha tadqiqot boshlagan, ammo bu harakatlar muvaffaqiyatsiz tugagan.

Nihoyat, 1929-yil sentyabrda Istanbulda bo'lib o'tgan Turkiston milliy birligi qurultoyida “Yangi Turkiston” jurnalining Turkiyada nashr etilishini davom ettirish va Berlinda esa arab harflari bilan chop etiladigan boshqa jurnal chiqarishga qaror qilingan. O'zbek shevasida nashr etiladigan jurnal “Yosh Turkiston” deb nomlangan. Mazkur jurnal Turkiston milliy birlik harakatining Yevropadagi vakili Mustafo Cho'qay o'g'li rahbarligida nashr etilishi nazarda tutilgan, lekin 1929 - yilgi qurultoy hujjatlari va Turkiston milliy birlik harakati rahbarlarining yozishmalaridan ma'lum bo'lishicha, bu jurnal “Yangi Turkiston” jurnalida bo'lgani kabi Pilsudskiy fondidan, ya'ni “Promete” harakatining mablag'lari hisobidan moliyalashtirilgan [8].

Yuqoridagi ikki jurnal, jumladan, Istanbuldagi “Yangi Turkiston” va Parijdagi “Yosh Turkiston” jurnali nashriyot guruhi tomonidan ikkinchi jahon urushi davrida Berlinda Vali Qayumxon bosh muharrirligi ostida “Milliy Turkiston” jurnali chop etilgan. Majmua 1942 - yil 15 - iyunda Milliy Turkiston birligi qo'mitasining nashr organi sifatida o'z faoliyatini olib boshlagan. Jurnal uch davrda nashr etilgan:

1942 – 1945 yillar;

1949 – 1954 yillar;

1962 – 1975 yillar.

1942 – 1975 yillar mobaynida jurnalning 134 ta soni chiqqan. Jurnalning 1942 – 1945 - yillardagi sonlari Berlinda, oyda 2 marta nashr etilgan. 1945 - yilda urush tugashi bilan, jurnal ham o'z faoliyatini to'xtatgan. 1949 – 1954 - yillardagi sonlari Jeneva (Shveysariya)da chop qilingan. 1952 – 1955, 1962 – 1975 - yillardagi sonlari esa Dyusseldorfda nashr qilingan.

“Milliy Turkiston” jurnali o'z oldiga quyidagi muhim vazifalarni qo'ygan:

Turkistonning milliy, siyosiy mafkurasi bilan yoshlarni qurollantirish va ularni milliy asos, milliy da'vo bilan tanishtirish.

“Milliy Turkiston” Turkistonning istiqloq da'vosi bilan butun xalqlarini tanishtirish va bu istiqloq da'vosini ular oldiga ko'ndalang qo'yib, ma'naviy yordam talab etish.

Majmua yolg'iz o'z vatandoshlarinigina emas, balki butun dunyo afkor ommasini Turkistonning o'tmish milliy tarixi, milliy madaniyati, milliy an'anasi bilan hamda xalqning bosqinchilar zulmi ostidagi fojealari bilan yaqindan tanishtirib borish.

Turkiston istiqloqlining asosi bo'lgan milliy birlik uchun qat'iy kurash olib borish va butun vatandoshlarni bu g'oya atrofiga to'plash;

Rus mustamlakachilarining haqiqiy basharasini hujjatlari bilan ochib berish va shu bilan bir qatorda dushmanga qarshi qurol bilan ham rahmsiz kurashmak kerakligini olg'a surish.

Rus imperialistlarining xalq orasida yuritmoqchi bo'lgan urug'chilik siyosatiga qarshi kurash ochib, Turkistonning bir buyuk, bo'linmas, parchalanmas mamlakat ekanligini e'lon qilish. Shundan so'ng yuz minglab yosh askarlar, muhojirlar masalaning negizi bilan chuqur tanishib, bir milliy bayroq ostiga to'planadilar va Turkiston istiqloqli uchun qo'zg'aladilar.

Milliy kurashni, milliy birlikni buzmoqchi bo'lgan qizil va oq ruslarning yuritgan siyosatiga hamda sotilgan malaylarga qarshi Milliy Turkiston birlik qo'mitasining tutgan yo'lini, olib borgan siyosatini ommaga tushuntirishda majmua buyuk xizmatlar qilishi belgilab qo'yilgan [9].

“Milliy Turkiston” sahifalarida e'lon qilingan maqolalar orqali rus muhojirlarining “buyuk, bo'linmas Rusiya” nomi bilan yurgizgan siyosatlarini fosh qilib tashlab, unga qarshi “buyuk, bo'linmas Turkiston” shiorini maydonga chiqargan va kurashgan. Ruslar bilan kelishuv mutloq mumkin emasligini va ular bilan birgalikda ishlash – milliy bir xiyonat ekanligini har doim qat'iy bildirib kelgan.

Ikkinchi jahon urushidan so'ng majmuaning faoliyati yanada keskinlashdi. Dunyoning deyarli butun burchaklariga tarqalgan Turkiston muhojirlari orasida jurnal milliy g'oyani tarqatuvchi birdan-bir qurol sifatida xizmat qilgan va butun muhojirlarni bir milliy bayroq ostiga to'plagan.

“Milliy Turkiston” jurnalini dunyoning har bir mamlakatida o'qishlari uchun bir necha tillarda chiqarib tarqatganlar. Jurnal tili “turkistoniy” deb ko'rsatilgan bo'lib, har bir soni tili va alifbosi bilan farqlanuvchi 4 xil (1 A, 1 B, 1 C, 1 D) nusxada nashr qilingan. A nusxasi – lotin harflarda o'zbek tilida, B nusxasi – lotin harflarda ingliz tilida, C nusxasi – arab harflarida arab tilida va D nusxasi – arab harflarida o'zbek tilida chiqarilgan [10].

Jurnalning sovet siyosati, biografialar, yangiliklar, kitob targ'iboti va o'quvchi maktublari kabi ruknlari bo'lgan. Ushbu ruknlarda sovet hokimiyatining Turkistonni boshqarishda qo'llagan iqtisodiy, milliy, maorif, din va sovet adabiyotini yaratish hamda tarixshunoslikni shakllantirish siyosatini ochib beruvchi maqolalar e'lon qilingan. Shuningdek, ikkinchi jahon urushi yillarida Germaniyada tashkil etilgan siyosiy va madaniy tashkilot bo'lgan Milliy Turkiston birligi qo'mitasi, Turkiston legionining faoliyati va uning tashkilotchilari Vali Qayumxon, Mustafo Cho'qay o'g'li va Boymirza Hayit maqolalari muntazam chop etilgan.

Bundan tashqari, Turkiston ziyolilarining jurnal va qo'mita bilan bog'liq xotiralari, ularning tarjimai hollari berib borilgan. Jumladan, Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Asadulloh Xo'ja, Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, So'fizoda, Zakiy Validiy To'g'on, Fitrat, Usmon Xo'ja o'g'lining hayoti va faoliyati haqidagi ma'lumotlar, ularning ijod namunalari jurnalda nashr etilgan.

Xulosa va takliflar. Umuman olganda, jurnaldagi maqolalarni o'rganish va tahlil qilish 1942 – 1975 - yillar orasida Turkistonda nimalar yuz bergani, sovet hokimiyati Turkistonni qanday shakllantirmoqchi bo'lgani va bu siyosatga turkistonliklarning qarashlarini bilish imkoniga beradi. Qolaversa, sovet hokimiyati yillarida madaniyat, til, mafkura, adabiyot va tarix sohalaridagi kurashlar tarixini o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR

1. Mashhuraxon Darmonova. Ozodlik va ma'rifatchilik uchun ayblanganlar. “O'zbekiston tarixi” jurnali. 2023. 1-son. 120 – 188-betlar.
2. Ahat Andican. A. “Cedidizmden Bag'imsizl'ga Hariçte Türkistan Mücadelesi”. İstanbul. 2003. s. 942.

3. Timur Kocaoğlu., “Yaş Türkistan'ın Türkistan Basın Tarihindeki Yeri” Türkistan Millî İstiklal Fikrine Hizmet Eden Aylık Dergi (1929 – 1939). Ayaz Tahir Türkistan İdil-Ural Vakfı. İstanbul. 1997. C. I, s. 14 – 22.
4. Çağatay Koçar. Milli Türkistan Bibliyografyası. Adana. 2023. s. 296.
5. Nurgül Uzunel. Milli Türkistan Türkistanlı Muhacirlerin Avrupa'daki Dergisi 1942 – 1975. İstanbul. 2016. s. 319.
6. Ahat Andican A. Yaş Türkistan Dergisi ve Türkistan Millî Hareketi. Yaş Türkistan'dan Seçilmiş Makaleler. İstanbul. 2006. s. 15.
7. ”تورکستان یگی . ۱۹۲۷ - حزیران - ۵. صانی ۱. صفه ۳۲”.
8. Ahat Andican A. Cedidizmden Bağımsızlığa Hariçte Türkistan Mücadelesi. İstanbul. 2003. s. 329 – 334.
9. Milliy Turkiston 10 yoshga to'ldi. Milliy Turkiston majmuasi. 1952-yil 5-oktyabr. 79 A-soni. 4 – 6-betlar.
10. Nurgül Uzunel. Milli Türkistan Türkistanlı Muhacirlerin Avrupa'daki Dergisi 1942 – 1975. İstanbul. 2016. s. 17.



Nodirjon QURBONOV,
TDPU katta o'qituvchisi, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori
E-mail: nodirjonqurbonov@gmail.com

TDPU dotsenti, t.f.n. H.Matyakubov taqrizi asosida

EARTHQUAKE IN WESTERN UZBEKISTAN: DISASTER AND LOSS IN GAZLI

Annotation

The existing soil in Bukhara and its surroundings consists of 6 engineering-geological layers, the soil composition consists mainly of soft layers, which cannot adversely affect the intensity of earthquakes. In particular, these soils are prone to water, and as their moisture content increases, their strength decreases. For this reason, it is important to apply many measures, such as prevention of factors that increase the intensity of seismic processes, aimed at the construction of buildings and structures that can withstand earthquakes. Strong earthquakes have occurred in the cities and villages of the western part of Uzbekistan since ancient times. Historically, the last major earthquake to hit this area was in Ghazli, which left most of the buildings in the city unusable and caused extensive damage.

Key words: Earthquake, history, seismology, loss, disaster, area, plate, east, west, south, region, city.

ИСТОРИЯ ЗЕМЛЕТРЯСЕНИЙ В ЗАПАДНОМ УЗБЕКИСТАНЕ

Аннотация

Существующая почва Бухары и ее окрестностей состоит из 6 инженерно-геологических слоев, состав почвы состоит преимущественно из мягких слоев, которые не могут отрицательно повлиять на интенсивность землетрясений. В частности, эти почвы склонны к обводнению, и по мере увеличения влажности их прочность снижается. По этой причине важно применять множество мер, таких как предотвращение факторов, повышающих интенсивность сейсмических процессов, направленных на строительство зданий и сооружений, способных противостоять землетрясениям. В городах и селах западной части Узбекистана с древнейших времен происходили сильные землетрясения. Исторически сложилось так, что последнее крупное землетрясение, произошедшее в этом районе, произошло в Газли, в результате чего большинство зданий в городе стали непригодными для использования и причинили значительный ущерб.

Ключевые слова: Землетрясение, история, сейсмология, ущерб, катастрофа, площад, плита, восток, запад, юг, местность, город.

G'ARBIY O'ZBEKISTONDA SODIR BO'LGAN ZILZILALAR TARIXI

Аннотация

Buxoro va uning atrofida mavjud bo'lgan tuproq 6 ta muhandis-geologik qatlamdan, ya'ni, tuproq tarkibi asosan yumshoq qatlamlardan iborat bo'lib yer silkinishlari intensivligiga teskari ta'sir ko'rsata olmaydi. Ayniqsa, bu tuproqlar suvga moyil bo'lib, ularning namligi ortgan sari mustahkamligi pasayadi. Shu sababdan yer silkinishlariga bardosh bera oladigan bino va inshootlarning barpo etilishiga qaratilgan seysmik jarayonlar intensivligini oshiruvchi omillarning oldini olish kabi ko'plab chora-tadbirlarni qo'llash muhim masala hisoblanadi. O'zbekistonning g'arbiy qismidagi shahar va qishloqlarda qadimdan kuchli zilzilalar sodir bo'lib kelgan edi. Tarixan olib qaraganda, ushbu hududga eng so'nggi sodir bo'lgan katta talofatli yer silkinishi Gazlida bo'lib, bu tufayli shahardagi binolarning ko'p qismi foydalanish uchun yaroqsiz holga kelib qolganligi va katta talofat yetgan.

Kalit so'zlar: Zilzila, tarix, seysmologiya, talofat, ofat, maydon, plita, sharq, g'arb, janub, hudud, shahar.

Kirish. Geoseysmologik jihatdan olib qaraganda, O'zbekiston Respublikasining shimoliy-g'arbiy hududlari Ural-Sibir platformasi tarkibiga kiruvchi Turon plitasining sharqiy qismiga joylashgan. Bu plitaning umumiy maydoni esa 500 ming kilometr kvadratdan iborat. Turon plitasi to'rtta murakkab blokdan tashkil topgan bo'lib, bular Sirdaryo, Qizilqum, Nurota-Tomdibuloq va Amudaryo bloklaridir [1]. Turon plitasining sharqiy hududiga O'zbekistonning Qoraqalpog'iston Respublikasi, Buxoro, Navoiy, Xorazm viloyatlarining barcha hududlari hamda Qashqadaryo, Samarqand, Jizzax viloyatlarining ma'lum bir qismi to'g'ri keladi [2].

Aynan, bu plita ustida Xiva, Buxoro, Qarshi, Samarqand kabi qadimgi hamda yangidan rivojlanayotgan shaharlar, minglab qishloqlar va yirik ishlab chiqarish ob'ektlari mavjud [3].

Tarixiy ma'lumotlar tahlili shundan dalolat beradiki, ayni shu hududda joylashgan O'zbekistonning g'arbiy qismidagi shahar va qishloqlarda qadimdan kuchli zilzilalar

sodir bo'lib kelgan [4]. Bularga, Buxoro (818 y., 1812 y., 1822 y.), Urganch (1208 y.), Urgut (1795 y.), Qoratog' (1907 y.), Qizilqum (1932 y.) va Gazlida (1976 y., 1984 y.) yuz bergan kuchli zilzilalarni misol keltirish mumkin. Bu ma'lumotlardan O'zbekistonning sharqiy hududlari kabi g'arbiy hududlari ham zilzila va uning xavfidan holi bo'lmaganligi ma'lum bo'ladi.

Shu o'rinda qayd etish kerakki, Buxoro viloyati atrofidagi hududlar lyoss tuproq qatlamlaridan iborat bo'lib, bu tuproqning suvga moyilligi esa ancha yuqori hisoblanadi va shu sababli qadimdan yer osti suvlari bunyodkorlik ishlarida muhim ahamiyat egallab kelganligi tarixiy manbalarda ham o'z aksini topgan. Masalan, tarixchi Muhammad Narshaxiy o'zining "Buxoro tarixi" kitobida "hozirgi Buxoro hududi qadimda qamish va yulg'unzorlardan iborat botqoqlik bo'lgan. U yerda juda ko'p qushlar bo'lar, ayrim joylarda qalin yulg'unzorlar bo'lib, ulardan hech qanday yovvoyi hayvon o'ta olmagan. Buning sababi shundan iborat ediki, Samarqand atrofidagi tog'lardan qorlar erib, suvlari o'sha tomonga

borgan. Samarqand atrofida sersuv Masaf (hozirgi Zarafshon) bor. Bu daryo ko'p joylardan tuproqlarni yuvib ketgan. Bitik va Farob daryolari ko'p miqdorda tuproqlarni olib kelganlar, tuproq bilan to'ldirilgan va tekislangan maydonda Buxoro shahri paydo bo'lgan" – deb aytib o'tadi.

Muallif ushbu asarida Buxoroda sodir bo'lgan zilzila haqida ham to'xtalib, Amir Said (914-943 yy.) hukmronligi davrida Ramazon oyining juma kuni Jomiy masjid odamlar bilan to'lgan paytda kuchli zilzila yuz bergani, bino zilzila kuchiga dosh bermay qulagani va ko'p odamlar nobud bo'lgani, shahar motam ichida qolgani haqida aytib o'tadi [5].

Ma'lumki, sovet davlati hukmronligi yillarida respublikada paxta monopoliyasining o'rnatilishi oqibatida, katta yer maydonlarining sug'oriladigan dalalarga aylantirilishi va mavjud suv resurslaridan nooqilona foydalanish grunt suvlarining ko'tarilishiga olib keldi [6]. Sovet davridan bizga "meros" bo'lib o'tgan suvga bepisandlik bilan yondashuv oqibatida Buxoro viloyatida keyingi paytlarda ham juda katta miqdordagi suv yer ostiga sizib ketishiga yo'l qo'yildi.

Buxoro, Xorazm, Qashqadaryo, Sirdaryo viloyatlari va Qoraqalpog'iston Respublikasida yer osti suvlari sathining baland bo'lishi hududlarda aholini yashashiga hamda inshootlarni ekspluatatsiya qilish sharoitlarini yaxshilashga halaqit beradi.

Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, Buxoro va uning atrofida mavjud bo'lgan tuproq 6 ta muhandis-geologik qatlamdan, ya'ni, tuproq tarkibi asosan yumshoq qatlamlardan iborat bo'lib yer silkinishlari intensivligiga teskari ta'sir ko'rsata olmaydi [7]. Ayniqsa, bu tuproqlar suvga moyil bo'lib, ularning namligi ortgan sari mustahkamligi pasayadi. Shu sababdan yer silkinishlariga bardosh bera oladigan bino va inshootlarning barpo etilishiga qaratilgan seysmik jarayonlar intensivligini oshiruvchi omillarning oldini olish kabi ko'plab chora-tadbirlarni qo'llash muhim masala hisoblanadi. Holbuki, bu hududda o'rganilayotgan yillar mobaynida bir nechta kuchli zilzilalar yuz bergani hamda ular mamlakat iqtisodiyotiga katta zarar yetkazgani ma'lum.

Bulardan biri "Gazli zilzilasi" nomi bilan tarixda qolgan, Buxoro viloyatining Gazli shahri yaqinida ta'sir kuchi bir necha yuz kilometr masofa radiusda sezilgan zilzila sodir bo'ldi. Mazkur zilzila o'sha davrda O'rta Osiyodagi eng kuchli zilzilalar qatoriga qo'shildi hamda tabiiy tUSDagi favqulodda vaziyatlar turkumiga kiritildi [8].

Gazli zilzilasi 1976 - yilning 8 aprel kuni Buxoro viloyatining Gazli posyolkasidan 40 km, Toshkentdan esa, shaharni g'arb tomonidan hisoblaganda 495 km uzoqlikda yuz berdi. Zilzila markazi Quljuqtov tizma tog'lari hududida sodir bo'lgan. Yer qimirlash markazidan 120 km shimoliy sharq tomonida Tomdibuloq tumanida esa zilzila kuchi 7 ballga yetgan bo'lsa, yer qimirlash markazida silkinish kuchi 9 ballni tashkil etib, zilzila katta talofatlarga sabab bo'ldi [9].

Shu yilning 17 - mayida ertalab soat 7 dan 58 daqiqa o'tganda oldingisidan ancha kuchli bo'lgan yer silkinishi qayta yuz berdi. Uning magnitudasi 7,0 hamda 7,3 dan iborat bo'lib epitsentrdan uning kuchi 9-10 ballni tashkil etdi. Yer silkinishi Buxoro, Kogon, Navoiy, Zarafshon va boshqa shaharlarga muayyan miqdorda zarar yetkazdi. Jumladan, Toshkent shahriga uning ko'rsatkichi 5 ball bilan yetib keldi [10]. Markaziy Qizilqumda ro'y bergan mazkur zilzila epitsentri Gazli shahridan 40 km shimoliy sharqda, yer yuzidan 15-20 km chuqurlikda joylashgan edi.

Zilzila parametrlarini aniqlash uchun G'arbiy O'zbekistonda Tomdibuloq, Nurota, Ko'lquduq, Kargiz, Samarqand va Jizzaxda joylashgan barcha seysmik stansiyalardan olingan ma'lumotlardan foydalanildi. Gazlida sodir bo'lgan zilzila natijasida yer yuzasida va qumliklarda kengligi 1-3 sm, uzunligi 100-200 metr, ba'zilarida 300

metrga yetadigan yoriqlar paydo bo'ldi. Yoriqlar uzoq-uzuq bo'lib umumiy uzunligi bir kilometrdan ziyodni tashkil qiladi.

Gazli shahar pasyolkasida sodir bo'lgan zilzilaning birinchi larzasidan keyin, darhol kasalxonalar va boshqa muassasalardagi insonlar evakuatsiya qilindi. Ushbu zilzila vaqtida o'lim holatlar bo'lmadi [11]. Buxoro shahriga bu zilzila 7 ball bilan ta'sir etgan bo'lsada, qadimgi madaniy yodgorliklar zilzilaga bardosh bera oldi.

Shu kuni ko'plab joylardan – Chorjo'y, Tejen, Ashxobod, Hisor vodiysi Ko'lob viloyati va boshqa joylardan tashvishli xabarlar yetib keldi. Xabarlarga ko'ra bu zilzila uchta Respublika – O'zbekiston, Turkmaniston va Tojikiston hududlariga o'z ta'sirini ko'rsatganligi ma'lum bo'ldi [12].

Tabiatning bunday daxshatli ofati tufayli Gazli shahridagi binolarning ko'p qismi foydalanish uchun yaroqsiz holga kelib qoldi. Ayrim binolar butunlay vayron bo'ldi, ko'p binolarda yoriqlar yuzaga kelganligi, to'sma devorlarni qulashi yoki qiyshayib qolishi tufayli ularni mustahkamligiga putur yetdi. Ilgarilari kuzatilganidek, bu gal ham sinchli uylarning zilzilabardoshligi namoyon bo'ldi. Bunday uylarni devor suvoqlari ko'chdi, boshqa hech qanday zarar yetmadi [13].

Pishiq g'ishtdan qurilgan binolar esa zilzilaga bardoshligi jihatdan yirik panelli binolardan keyinga turishi Gazli zilzilasi vaqtida yana bir bor isbotlandi. Gazlidagi ana shunday pishiq g'ishtli binolardan ayrimlarni yon devorlari ag'darilib tushdi [14]. Pishiq g'ishtli uylardagi bo'lingan joylarda, devor burchaklarida, plitalar biriktirilgan joylarda ingichka yoriqlar paydo bo'ldi. Tutun chiqaruvchi mo'rilari buzildi [15].

Buxorodagi Mirzo Ulug'bek hamda Abdulazizxon madrasalarining yuqori qismlarida yoriqlar paydo bo'ldi. 1121 - yilda me'mor usta Baqo [16] bunyod etgan va shu davr mobaynida necha-necha zilzilalarni shohidi bo'lgan jahonga mashhur Minorai Kalon mezanasi yuqori piramonining bir qismi qulab tushdi.

O'zbekiston SSR Kompartiyasi MKning birinchi kotibi Sh.R.Rashidov 18 may kuni Buxoroga bordi va zilzila ro'y bergan tumanlarda bo'lib, tabiiy ofat oqibatlarini tugatish va undan zarar ko'rganlarga ko'maklashish ishlarini amalga oshirish yuzasidan tegishli ko'rsatmalar berdi. Aholini sanoat mollari va oziq-ovqat mahsulotlari bilan uzluksiz ta'minlash tizimi yo'lga qo'yildi [17].

Tabiiy ofat ro'y bergandan keyingi dastlabki kunlardan boshlab ittifoq va respublikani boshqa shaharlaridan Buxoro viloyatiga hamma qulayliklarga va isitish sistemasiga ega bo'lgan yuzlab yig'ma uylar, ko'chma oshxonalar, mashinalar va asbob-uskunalar yuborildi [18]. Qo'shni Qashqadaryo, Andijon, Farg'ona, Namangan, Samarqand va Toshkent oblastlarining quruvchilari ham Gazlini qayta qurishda jonbozlik ko'rsatdi.

Zilzilalarni asosiy xavfi seysmik to'lqin ta'sirida yer satxini kuchli suratda larzaga kelishidir. Seysmik tulqinlar oqibatlarini yumshatish uchun binolar zillalarga bardosh bera oladigan bo'lishi, ya'ni, seysmik jihatdan xavfli hududlarda zilzilaga qarshi muayyan tadbirlar ko'rilishi lozimdi [19]. Shularni hisobga olib, 1976 - yil Gazli zilzilasidan so'ng Gazli hududiga "Bars" deb nomlanuvchi avtomatlashtirilgan seysmik sistema o'rnatildi va zilzila o'chog'i nazoratga olindi.

1984 - yilning 20 - mart kuni tunji soat 1 dan 29 daqiqa o'tganda Gazli posyolkasida ilgari yer silkinishi yuz bergan joyda yana katta kuchga ega bo'lgan zilzila sodir bo'ldi. Bu zilzilani epitsentriga yaqin bo'lgan Gazli va Jongeldi seysmik stansiya xodimlari ushbu zilzila kuchi 1976 yildagi yer qimirlashiga qaraganda kuchli ekanligini - qayd etdi. Zilzilaning quvvati esa 7,2 magnitudaga teng bo'ldi. Zilzila ta'sirida kuchi Buxoroda 7 ball, Nukus va Xivada 5

ball, Samarqandda 5-6 ball, Navoiyda 6 ball, Toshkentda esa 4 ballni tashkil etgan tebranishlar yuz berdi.

Zilzila gaz qazib olish jihozlariga, kompressor stansiyalariga qattiq zarar yetkazdi, ko'plab aholi yashash joylari, kasalxona, maktab va boshqa ma'muriy binolar vayronaga aylandi. Yer silkinishlari nafaqat O'zbekiston, balki Turkmanistonning xo'jaligiga ham katta zarar yetkazdi.

Zilzila sodir bo'lgan kunidayoq viloyat miqyosida zilzila oqibatlarini tugatish bo'yicha komissiya tuzildi. Maxsus komissiya tomonidan odamlarni vaqtincha yashashlari uchun chodir-palatkali uylar tashkil etildi. Aholiga ichimlik suvi yetkazib berildi. Uzilib qolgan telefon va telegraf aloqalari tiklandi.

Zilzila ro'y bergan hududlarda aholiga ittifoq va respublika tashkilotlari orqali zarur yordam ko'rsatildi. Sanoat korxonalari, transport tashkilotlari, aloqa, maktab, bolalar bog'chalari, shifoxonalar va tashkilotlarni belgilangan tartibda ishlashini ta'minlash choralarini ko'rildi. Gazli zilziladan zarar ko'rgan oilalarning 700 dan ortiq bolalarini sog'liqlarini tiklash va ko'ngilli dam olishlari uchun O'zbekiston SSR Sog'liqni saqlash ministrligi tomonidan Toshkent pioner lagerlariga va yuzdan ortiq bolalar esa Butunittifoq pioner lagerlariga jo'natildi.

Shu o'rinda qayd etish kerakki, 1984 - yilgacha bo'lgan davr mobaynida seysmik xarita tuzilib, bino va inshootlar qurilishida seysmik jarayonlar e'tiborga olingan bo'lsada, 1984 - yilgi zilzila oqibatida ayrim devor panellarida qiya yoriqlar paydo bo'lib, panellar orasida choklar ochildi. Ayvon pollari ostidagi tayanch ustunlari o'rnidan siljib, og'ib qoldi.

Zilziladan so'ng turli soha mutaxassislaridan iborat bo'lgan komissiya tuzildi. Ularga qurilish me'yorlarida belgilangan normalarga asoslangan holda qurilgan bino va inshootlar nima sababdan bunchalik ko'p shikastlanganligini aniqlash vazifasi qo'yildi. Bu komissiya tarkibiga Moskva, Qozog'iston va O'rta Osiyo respublikalaridan ham seysmolog, geolog, gidrometeorolog, geofizik, quruvchi-muhandislardan iborat mutaxassislar kirgan edi.

Yer usti egilishi natijasida yer osti quduqlaridan 10-20 metr chuqurlikdan suv favvorasi otilla boshladi. Ayrim joylarda bu favvora qumloq, loy aralash chiqib, suv harorati 45 gradusni tashkil etdi.

Maxsus komissiyaning 1984 - yil 12 - mayda bo'lib o'tgan yig'ilishida: "Gazli hududini seysmik xaritalashda uni 3-kategoriyadan 1-kategoriyaga o'tkazish, ya'ni, mahalliy

zilzilalar tez-tez qaytarilib turiladigan hududga kiritish" - tavsiya etildi. Shuningdek, 1976-1984 - yillar mobaynida zilzilalar talofatlarini kamaytirish bo'yicha turli soha mutaxassislari tomonidan olib borilgan o'zaro hamkorlik ishlari qoniarli deb topilib, Jonkeldi va Gazli seysmik stansiyalari bilan birga faoliyat olib boradigan tezkor xabar yetkazish xizmati tashkil etildi. Bu xizmatning asosiy vazifasi - Toshkent markaziy seysmik stansiyasiga va u orqali O'zbekiston SSR FAgA ma'lumot berishdan iborat edi. SSSR FAning seysmologiya va zilzilabardosh qurilish idoralari kengashi tomonidan O'zbekiston SSR FA Seysmologiya institutining o'sha vaqtdagi direktori o'rinbosari professor V.Ulomov zilzila bo'lgan hududdagi epitsentral tadqiqotlarning koordinatori etib tayinlandi.

Ushbu hududda tadqiqot olib borgan professor V.Ulomov Gazlidagi zilzila Pomir bilan Tyan-Shan ulkan tog' tizmalari miqyosida kuzatilayotgan zilzilaning aks sadosi ekanligi, yer osti bo'ronining birinchi silkinishi natijasida o'sha yili yangi yil arafasida Hindiqush zilzilasi sodir bo'lgani, uning ta'sirida Gazlida esa yer osti bo'roni birdaniga qattiq silkinish bilan boshlanganini ta'kidlagan edi.

Umuman olganda, 1976 - va 1984 - yillarda Gazlida yuz bergan yer silkinishlari Buxoro xalqi uchun ko'plab yo'qotishlarga sabab bo'ldi. Zilziladan so'ng 1976 - yil 15 - papreldan 5 - maygacha bo'lgan muddatda ilmiy mikro kuzatuv ishlari olib borildi va keyinchalik xaritalash chog'ida mana shu kuzatuv xulosalaridan foydalanildi. 1978 yilga kelib amalga oshirilgan seysmik xaritalash ishlari natijasida hududga muayyan o'zgarishlar kiritildi. Shuningdek, gazli zilzilasi va uning oqibatlari nafaqat O'zbekistonda, balki dunyoda tog'-kon ishlari olib borilayotgan quduqlarda alohida yondashuv kerakligini ko'rsatdi.

Xulosa. O'zbekistonning g'arbiy qismidagi shahar va qishloqlarda qadimdan kuchli zilzilalar sodir bo'lib kelgan edi. Shu o'rinda qayd etish kerakki, ushbu hududlardagi seysmik tebranishlar aholining kundalik hayotiga va respublika iqtisodiyotiga ham katta miqdorda zarar yetkazdi. Ayniqsa, mamlakatning g'arbiy qismida joylashgan qadimiy shaharlardagi me'moriy yodgorliklar, tarixiy inshootlarning tashqi qiyofasiga kuchli ta'sir o'tkazdi. Chunki, O'zbekiston hududida asrlar davomida barpo etilgan, turli tarixiy voqealarni o'zida aks ettirgan madaniy yodgorliklarni targ'ib etish, mamlakatni jahon sahnasidagi nufuzini yanada oshirishga, davlatning turistik jozibadorligini yuqori darajaga ko'tarishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Уломов В.И. Газлийские землетрясения и сейсмическое раёнирование. Сейсмологические исследования в Узбекистане. Сборник Глазами ученого. - Ташкент, 1979. - С.3, 17.
2. Проблемы сейсмологии в Узбекистане // Научный журнал ИС им. Г. Мавлонова. 2007, № 4. - С.33.
3. Давлятов Ш.Д. Тектоника нефтегазоносных раёнов западного Узбекистана. - Ташкент, 1971. - С.26.
4. Таджикот довруги // Фан ва турмуш. 1984, № 3. - 24 б.
5. Уломов В.И. Газлийские землетрясения и сейсмическое раёнирование. Сейсмологические исследования в Узбекистане. Сборник Глазами ученого. - Ташкент, 1979. - С.3.
6. Абу Бакр Мухаммад ибн Жаъфар ан-Наршахий. Бухоро тарихи. "Мерос" туркуми. - Тошкент: Камалак, 1991. - 125 б.
7. Зилзилалар сабаби нима? // Ешлик. 1989, № 8. - 6 б.
8. АН РУз, "Прогноз сейсмической опасности Узбекистана, сейсмораёнирование и долгосрочный прогноз сейсмической обстановки". Т.1. - Ташкент: Фан, 1994. - С.161, 162.
9. Газли zilzilasi // Фан ва турмуш. 1976, № 7 (261). - 24 б.
10. Иброхимов Р. Кучли zilzilalar izidan. - Тошкент, 1982. - 46 б.
11. Абдуллабеков Қ., Ильясова З. Фавкуллода vaziyatlar tarixidan: Zilzila. - Тошкент, 2016. - 106 б.
12. Cliff Frohlich, Scott D. Davis: Texas earthquakes. University of Texas Press. 2003. - R. 75. ISBN 0292725515
13. Курбонов Ж.М. Хаёт фаолияти хавфсизлиги. - Самарқанд, 2016. - 136 б.
14. Газли zilzilasi // Фан ва турмуш. 1976, № 7 (261). - 26 б.
15. Газлийские землетрясения 1976 и 1984 гг. // Под ред. Г.А.Малянова. - Ташкент, 1986. - С.142.
16. Жизнь продолжается // Правда Востока. 23 марта 1984, № 70 (20443).
17. Газли zilzilasi // Фан ва турмуш. 1976, № 7 (261). - 26 б.
18. Зилзила oqibatlari tugatilmoqda // Совет Узбекистони. 19 май 1976, № 115 (16.501).
19. Ликвидация последствий землетрясения // Правда Востока. 20 мая 1976, № 116 (18088).



UDK:10.018.21:12

Beshim MIRZAQULOV,

Buxoro muhandislik-texnologiya instituti "Ijtimoiy fanlar" kafedrasida dotsenti, tarix fanlari nomzodi
E-mail: mirzaqulovbeshim1956@mail.com

Buxoro muhandislik-texnologiya instituti dotsenti, tarix fanlari nomzodi F.M.Bafoyev taqrizi asosida

BUXORO MANG'ITLAR SULOLASI HUKMRONLIGI DAVRIDA (1756-1920 YY.)

Аннотация

Ushbu maqolada XVIII asrning o'rtalaridan to XX asrning boshlarigacha Buxoroda davlat hokimiyatini boshqarib kelgan mang'itlar sulolasi vakillari, davlat boshqaruvi tizimi, davlatning ichki va tashqi siyosati, qo'shni davlatlar bilan aloqalari, xalq ommasining iqtisodiy va ijtimoiy ahvoli, soliqlar, savdo-sotiq va elchilik munosabatlari o'rganilgan hamda tegishli xulosalar chiqarilgan.

Kalit so'zlar: Sulola, davlat, xon, amir, hokim, viloyat, tuman, siyosat, boshqaruv tizimi, elchilik munosabatlari, savdo-sotiq, soliq.

В ПЕРИОД ПРАВЛЕНИЯ БУХАРСКИМ ЭМИРАТОМ (1756-1920 ГГ.)

Annotation

In this article, the system of public administration in the mid-18th-early 20th centuries in the Emirate of Bukhara during the Mangit dynasty was studied and the corresponding conclusions were given.

Key words: The Emirate of Bukhara, the Mangit dynasty, the of public administration, emir, paternity, kushbegi, centurion, commander of thousand people, commander of the guard, head of the guard.

DURING THE RULE OF THE BUKHARA EMIRATE (1756-1920)

Аннотация

В данной статье представители династии Мангитов, управлявших государственной властью в Бухаре с середины XVIII до начала XX века, рассматривают систему государственного управления, внутреннюю и внешнюю политику государства, изучены отношения с соседними странами, экономическое и социальное положение народа, налоги, торговые и посольские отношения и сделаны соответствующие выводы.

Ключевые слова: Династия, государство, хан, эмир, правитель, область, округ, политика, система управления, посольские отношения, торговля, налог.

Kirish. Muhammad Rahimxonning 1756 - yil 16 - dekabrda Buxoro taxtini rasmiy ravishda egallashi va o'zini amir deb e'lon qilishi bilan yangi sulolaning hukmronligiga asos solinib, Buxoro bundan keyin amirlik deb atala boshlandi. Hokimiyatni egallab olgan mang'itlar sulolasining vakillari markaziy hokimiyatni mustahkamlashga harakat qilsalarda viloyatlarning mustaqillikka intilish jarayoni davom etgan. Mahalliy tarixchilardan uning jiyani Muhammad Yoqub (Doniyolbiyning o'g'li) amakisini jasur, o'z maqsadiga erishish yo'lida kuch-quvvati va irodasini ayamaydigan, harbiy sarkardalik salohiyatiga ega shaxs bo'lganligini qayd etadi.

1758 - yilning 24 - martida Muhammad Rahimxon vafot etgandan keyin uning o'g'illari bo'lmaganligi tufayli taxtga voyaga yetmagan nabirasi Fozilto'ra o'tqazilgan va Miyonqol hokimi bo'lib turgan Doniyolbiy (Muhammad Rahimning katta amakisi) unga otaliq qilib tayinlanadi. Ammo ushbu qarorni hamma ham ma'qullamaydi. Norozi bo'lgan viloyat hokimlari va ayrim qabilalar (kenegas, yuz, bahrin, burqut va saroy) amirlari markaziy hokimiyatga qarshi bosh ko'tarib, 10 ming yigitni qurollantirib Buxoro shahriga qarab harakat qiladi. Doniyolbiy isyon ko'targan hokimlar va amirlar bilan bir bitimga kelishga muvaffaq bo'ladi. Shu kelishuvga ko'ra Fozilto'ra taxtdan tushirilib, uning o'rniga ashtarxoniyalardan bo'lgan shahzoda Abulg'ozixon taxtga chiqadi (1758-1785). Bo'lib o'tgan voqeadan keyin Doniyolbiy ham otaliq mansabini, ham amaldagi hukmdorlikni o'zida saqlab qolgan.

Doniyolbiy otaliq hukmdorligi davrida ham o'zaro urushlar davom etib, bir qator viloyatlar (Karmana, O'ratepa, Nurota, SHERobod, Boysun)da mahalliy hukmdorlar markazga bo'ysunmaslikka harakat qilishgan. Doniyolbiydagi ko'ngilchanlik va rahmdillik xislatlari tufayli o'zbek qabilalarining oqsoqollari mustaqillikka intilgan, yuqori mansabdagi saroy amaldorlari o'z mansabini suiste'mol qilgan. Shu yillarda (1781y.) Rossiya davlati tomonidan savdo bitimi tuzish to'g'risidagi taklifni 92 o'zbek qabilalari boshliqlarining rozilgisiz qabul qila olmasligini aytar ekan, Doniyolbiy otaliq markaziy hokimiyatning ancha zaifligini tan oladi. Haqiqatdan ham bu vaqtga kelib markaziy hokimiyat Muhammad Rahimxon davriga qaraganda ancha zaiflashib qolgan edi. Buning ustiga Doniyolbiy otaliqning qo'shin ta'minoti uchun qo'shimcha soliqlarning joriy etishi vaziyatni og'irlashtirib yuboradi va 1784 - yilda Buxoroda qo'zg'olon ko'tarilishiga olib keladi, 1000 ga yaqin kishi o'ldiriladi. Markaziy hokimiyatning zaiflashuvi, viloyatlarning mustaqillikka intilishi va yuzaga kelgan ijtimoiy-iqtisodiy tanglik oqibatida Doniyolbiy otaliq hokimiyatni o'g'li Shohmurod (1785-1800) ga topshirishga majbur bo'ladi. Chunki poytaxt aholisi o'rtasida Shohmurodning obro'-e'tibori ancha baland edi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Manbalarda qayd etilishicha, Shohmurod sakkiz yoshida Karmana viloyati hukmdori bo'lib, unga otasi bolalik yillaridanoq harbiy san'at sirlarini o'rgatgan. U keyinchalik Qarshi viloyatining hukmdori bo'lgan. Shohmurod kunning birinchi yarmida

islom huquqshunosligi ilmi bilan, kunning ikkinchi yarmida esa "Qur'on"ning sura va oyatlarini yod olish bilan shug'ullanib, sakkiz yoshidayoq uni yod bilgan. Amir Shohmurod boshqa hukmdorlardan farqli ravishda kamtarona hayot kechirib, eng arzon va oddiy kishilar ziyadigan oyoq kiyimini kiygan. Sadridin Ayniyning yozishicha, amir Shohmurod o'quvchi va olimlarga g'amxo'rlik qilgan, mamlakatda tartib o'rnatgan. Ahmad Donish esa amir Shohmurod islomiy rivojga hissa qo'shdi deb yozadi.

Shohmurod yuzaga kelgan ijtimoiy-siyosiy beqarorlikni bartaraf etishning o'ziga xos usulini qo'lladi: o'n nafar ukasining har biriga bittadan viloyat hokimligini berib qo'ydi (Doniyolbiyning Ma'sum, Mahmud, Umar, Fazl, Sultonmurod, Rustam, Kenjaali, Yoqub, To'xtamish, Darvish va Rajabali ismli o'n bir o'g'li bo'lgan). Albatta o'zining o'g'illarini ham unutmagan yo'q. O'g'li Haydarni Qarshiga, Nosirbiyni Marvga va Husaynbiyni Samarqandga hokim etib tayinladi.

O'zining o'n besh yillik hukmdorligi davrida amir Shohmurod mustaqil ichki va tashqi siyosat olib borishga harakat qilib, mamlakatning ichki hayotini, iqtisodiy ahvolini yaxshilash maqsadida pul islohoti o'tkazgan va sof kumushdan tanga zarb qildirgan [1].

Buxoroda Mang'itlar sulolasi hukmronligining dastlabki davrida Buxoro va Rossiya munosabatlarida elchilik va savdo aloqalari ham muhim ahamiyat kasb etib, har ikki tomondan ham elchilik almashinuvi davom etgan. 1774 - yilda Buxoro amirligining elchisi Mulla Ernazar Maqsudov Astraxan orqali Moskvaga borgan va yo'lda YE.Pugachyovning isyonchilari tomonidan mol-mulki talangan. 1779 - yilda E.Maqsudov yana elchi bo'lib Peterburgga boradi va Rossiya davlati hududidan buxoroliklarning Hajga borishiga ruxsat olinadi. Javob tariqasida 1781 - yilda malika Yekaterina buyrug'i bilan Bekchurin Buxoroga elchi bo'lib keladi. Elchi nima sababdan Turkiya elchisi kelgani, nega u Eron orqali emas, Rossiya orqali kelgani, Buxoro amirligining kuch-qudrati bilan bog'liq ma'lumotlarni olishga harakat qilgan [2].

Muhammad Mir Olim Buxoriyning yozishicha, amir Shohmurod o'zining piri – shayx Safarning talabi bilan Xurosonga yurish qilgan. Harbiy kengashning maslahatiga ko'ra, u bu yurish uchun 150 ming kishilik lashkarni Amudaryo bo'yiga to'plagan. Ammo bu yurish mazhablararo (sunnii – shia) urushga aylanib ketgan [3].

Amir Shohmurod tomonidan qo'shni davlatlarga, xususan, Turkiya va Rossiyaga bir necha marta elchilar jo'natilgan.

Amir Shohmurod tasavvuf g'oyalari bilan sug'orilgan «Ayn fi-hikmat» («Donishmandlik asoslari») asarini yozgan, islomning hanafiya mazhabi qonun-qoidalariga bag'ishlangan «Fatava-yi ahli Buxoro» («Buxoro ahliga fatvolar») to'plamini tuzgan.

Amir Shohmurod 1800 yilning 30 noyabrida vafot etib, Jo'ybordagi Eshoni Imlo qabristonidagi o'zining piri Shayx Safar qabri oldida dafn etilgan.

Uning vafotidan keyin Buxoro amirligi taxtini 1778 - yilda Buxoroda tavallud topgan o'g'li Haydar egalladi. Amiri Sayyid nomini olgan Amir Haydarning onasi ashtarxoniyalardan sanalgan Abulfayzxonning qizi Bonu Shams bo'lgan.

Amir Haydar hukmdorligi davrida Buxoro-Xiva xonliklari o'rtasidagi munosabatlar unchalik yaxshi emasdi. Marv viloyatining hokimi bo'lib turgan ukasi Din Nosirbek Xiva xoni Eltuzarxonning va'dalariga ishonib, 1804 yilda o'z akasiga qarshi bosh ko'taradi, biroq mag'lubiyatga uchraydi. Shu yili Amir Haydar O'ratepaga yurish qiladi va uni zabt etib, Qobilbek ibn O'tkir So'fini hokim etib tayinlaydi. Mirzo Olim Maxdumi Hojining yozishicha, 1804 yilda Mir Alovuddin Moskvaga elchi sifatida yuborilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. 1806 - yilda Xorazm xoni Etluzarxon Buxoro atroflarini talon-toroj qilib, 50 ming bosh qo'y va bir necha ming tuyani olib ketadi. Oradan ko'p o'tmay yana kelib, Buxoro atroflarini g'orat qilib ketadi. Bunga javoban Buxoro amiri Haydar Xorazmga 30 ming askarini yuboradi. Bu harakatdan voqif bo'lgan Etluzarxon ham 12 ming askari bilan Amudaryodan Buxoro tomoniga o'tib harakatlanadi. Harbiy to'qnashuvda ko'p odam suvga cho'kib, g'arq bo'ladi, Etluzarxonning o'zi va sarkardalaridan Hasanmurodbek va Jonmurodbeklar ham halok bo'ladi, xonning katta akasi Qutlug'murod va boshqalar asirga tushadi. Amir Haydar asirlarni bir hafta ushlab turib yana Xorazmga qaytarib yuboradi. Qutlug'murod xon sifatida yuborilsa-da, xorazmliklar uning ukasi Muhammad Rahimxonni xon qilib ko'taradilar [4].

1819 - yilda Xiva xoni Muhammad Rahimxon bir necha marta lashkari bilan kelib Chorjo'y viloyatini, Buxoro atrofini va tumanlarini talon-toroj qildi. 1821 - yilda Xiva tomonidan 7 ming kishilik harbiy guruh Buxoro yerlariga bosqinchilik uyushtirib, Qorako'lni talash uchun Qorahoji ustidan yurib, Qandahor qumiga kirdilar va qumlikda halokatga uchradilar. Shu yilning o'zida xivalik bir guruh Qorako'ldan kelayotgan Eljik savdo karvonini talab, ko'p kishini asirga oladi. Oradan ko'p o'tmay Qutlug'murod inoq boshchiligidagi yana bir guruh Farabga kelib, Qorako'lning janubiga hujum qiladi, ammo amirning qorovul qismiga duch kelib, orqaga qaytib ketadi [5].

1823-1824 - yillarda Xiva xoni tomonidan Buxoro amirligiga tegishli bo'lgan Qoqishtuvon, Og'or va Boykand mavzellariga talonchilik yurishi uyushtirilgan. 1812-1818 yillarda Xiva xoni Muhammad Rahimxon Marvga yurish qilib, uni Xivaga qo'shib olgan. Marv viloyati ikki davlat o'rtasidagi to'qnashuvning qurboniga aylangan. Amalga oshirilgan yurishlarda Chorjo'y va uning atroflari, Farab va Qorako'lni hududlarida istiqomat qiluvchi aholi ham katta zarar ko'rgan [6].

Tahlil va natijalar. Saroy tarixchisi, amir Doniyolbiyning kichik o'g'li Muhammad Yoqub Buxoriy amir Haydar to'g'risida yozar ekan, uni shunday ta'riflab beradi: «Ilmi, ma'rifatlil, qat'iyatli, xudojo'y, Hadis ilmining bilimdoni. Davlat ishlari bilan qanchalik band bo'lmasin, baribir u har kuni 400 talaba (mullabachcha) uchun ma'ruza qiladi, 10 minglab qalander va darvishlarga xayr-ehson qiladi, shuningdek tegishli suratda vatandoshlariga yordam ko'rsatadi. Shayxlarni hurmat qiladi hamda ularga katta miqdordagi g'allani in'om etadi. Juma namozini va kechqurungi ibodatlarini hech qachon kanda qilmaydi» [7].

Amir Haydardan Husaynxon, Umarxon, Abdullohxon, Nasrullohxon, Bahodirxon, Zubayrxon va Jahongirxon ismli o'g'illar qolgan. Otasining vafotidan so'ng katta o'g'li Husayn taxtga o'tirgan. U onasi tomonidan Sayyid Jo'ybori xo'jalarga avlod edi. Husayn otasi hukmdorligi davrida Karmana va Samarqandning hokimi bo'lgan edi. Amir Husayn 2 yarim oy muddat hukmdorlikni ado etgan va zaharlanib (uni Hakim qo'shbegi zaharlagan degan gap tarqalgan) Buxoroda vafot etgan.

Amir Husayndan keyin ukasi Umarxon amirlik taxtiga chiqqan. Akasining hukmdorligi davrida u Karmananing hokimi bo'lgan. Mirzo Olim Maxdumi hojining yozishicha, amir Umarxon davlat ishlariga e'tiborsizlik bilan qaragan va mayxo'rlikka ruju qo'ygan. Bundan foydalangan kichik ukasi Bahodirxon Nasafdandan yo'lga chiqib, Samarqandda katta qo'shin to'plab, Buxoroni qamal qilgan. Ammo biron-bir natijaga erisha olmasdan, ikki kundan keyin Buxorodan chiqib Hirotga borgan, u yerdan Farg'onaga qaytib kelgan va shu yerda vabo kasalidan vafot etgan. Jasaki bobosi Doniyolbiyning yonida dafn etilgan.

Xulosa va takliflar. 1826 - yilda Buxoro taxtiga o'tirgan Nasrullaxon 1806 - yilning 1 - iyunida Buxoro

shaharida tavallud topgan. U 34 yil davomida hukmdorlik qilgan. Amir Nasrullaxon shaxsi to'g'risida bir-biriga qarama-qarshi fikrlar mavjud. N.Xanikov esa Nasrullaxonning hokimiyatga kelishini (1826) Rossiyada Nikolay Romanov (1825)ning hokimiyatga kelishiga qiyoslaydi.

Buxoroda Nasrullaxon hukmronlik qilgan yillarda Xiva xonlari Olloqulixon (1825-1842), Rahimqulixon (1842-1845) va Muhammad Aminxon (1845-1855) bilan o'zaro urushlar bo'lib turdi. Faqatgina 1842-1845 yillarda Buxoro yerlariga 7 marta ketma-ket yurish uyushtirildi.

Amir Nasrullaxon 1860 - yilning 30 - sentabrida, 54 yoshida vafot etadi va Buxoroda dafn etiladi. Amir

Nasrullaxonning vafotidan keyin Buxoro amirligi taxtini Karmanada hokimlik qilib turgan o'g'li Muzaffar egalladi. Amir Muzaffarning hukmronlik davri Rossiya imperiyasining O'rta Osiyoni zabt etish uchun boshlangan hatti-harakatlarining kuchayishi pallasiga to'g'ri keladi. Pishpak (hozirgi Bishkek), To'qmoq viloyatlarini 1862 - yilda, So'zoq qal'asini 1863 - yilda, Turkiston, Avliyoota (hozirgi Taron) ni va Chimkentni 1864 - yilda rus qo'shinlari bosib oladi. Harbiy harakatlarni kuchaytirgan chorizm qo'shinlari 1865 - yilning 17 iyunida general Chernyayev boshchiligida Toshkent shahrini ham egallab oladi.

ADABIYOTLAR

1. Мирзақулов Б.Т. Бухоро тарих зарваракларида. 1-китоб, 2016, Т., LESSON PRESS. б 198-200.
2. Жуковский С.В. Россиянинг Бухоро ва Хива хонликлари билан сўнги уч юз йилликдаги муносабатлари. Бухоро.2009.62-63 бет.
3. Саидкулов Т. Очерки историографии истории народов Средней Азии. Т. 1992. с.136
4. Мирзо Олим Маҳдуми хожи. Тарихи Туркистон. Т. 2008 й., 174-175 бет.
5. Мунис ва Огаҳий. Фирдавс ул-икбол. Т., 2010, 453-470 бет.
6. Мирза Салимбек. Кашқўли Салимий. Таворихи мутақаддимин ва муттаахирин. Бухоро, 2003. 294-бет.
7. Саидкулов Т. Очерки историографии истории народов Средней Азии. Т. 1992, с.135.



UDK: 902.03(575.1)

Yakubdjani MUXAMEDOV,
O'zbekiston Milliy universiteti katta o'qituvchisi, t.f.f.d.(PhD)
E-mail: mukhamedov-2017@mail.ru
Tel: +99895 0214815

Toshkent davlat texnika universiteti professori R.E. Xoliqova taqrizi asosida

SOME COMMENTS ABOUT THE ADMINISTRATIVE CENTERS OF THE WESTERN TURKIC KHANATE IN THE EARLY MIDDLE AGES

Annotation

This article provides information about the centers that performed the function of the administrative system during the period of the Western Turkic Khaganate, in particular, the large cities of the Chach oasis and their activities.

The article was prepared on the basis of a mutual analysis of information provided by foreign and Uzbek scientists.

Key words: Chionites, Ephthalites, Turkic Khaganate, Chach, administration, Kanka, Minguruk, Tunket, Barsket, Khotunket, Dzhabguket, Ardlonket, tegin, tudun.

НЕКОТОРЫЕ РАЗМЫШЛЕНИЯ ОБ АДМИНИСТРАТИВНЫХ ЦЕНТРАХ ЗАПАДНО-ТЮРКСКОГО КАГАНАТА В РАННЕМ СРЕДНЕВЕКОВЬЕ

Аннотация

В данной статье приведены сведения о центрах, выполнявших функцию административной системы в период Западно-Тюркского каганата, в частности, крупных городах Чачского оазиса, и их деятельности.

Статья подготовлена на основе взаимного анализа информации, предоставленной зарубежными и узбекскими учёными.

Ключевые слова: Хиониты, Эфталиты, Тюркский каганат, Чач, администрация, Канка, Мингурюк, Тункет, Барскет, Хотункет, Джабгукет, Ардлонкет, тегин, тудун.

ILK O'RTA ASRLARDA G'ARBIY TURK XOQONLIGINING MA'MURIY MARKAZLARI XAQIDA BA'ZI MULOHAZALAR

Аннотация

Ushbu maqolada G'arbiy Turk xoqonligi davrida ma'muriy jixatdan boshqaruv tizimi vazifasini bajaragan markazlar xususan, Choch vohasidagi yirik shaharlar va ularning faoliyati xaqida so'z yuritiladi.

Maqolani yoritishda xorijlik va o'zbekistonlik olimlar tomonidan bildirib o'tilgan ma'lumotlarni o'zaro tahlili asosida yoritilgan.

Kalit so'zlar: Xioniylar, Eftaliylar, Turk xoqonligi, Choch, boshqaruv, Qanqa, Mingo'rik, Tunkat, Barskat, Xotunkat, Jabg'ukat, Ardlonkat, tegin, tudun.

Kirish. Tarixdan ma'lumki qaysiki sulola o'z boshqaruvini tashkil qilar ekan, albatta u yerda biror bir markaz shaharlar tashkil qilgan. Xususan, xioniylar, kidariylar, eftalitlar va Turk xoqonligini keltirib o'tishimiz mumkin. Bular ichida G'arbiy Turk xoqonligining ma'muriy markazlari xaqida so'z yuritish orqali olib borayotgan ilmiy tadqiqot ishimizning asosiy muammomini aniqlash imkonini berishi mumkin. Biroq hozirgi kunga qadar bu o'z yechimini kutayotgan masalalardan biri hisoblanadi. G'arbiy xoqonlik davri ma'muriy markazlarini o'rganish borasida tadqiqotchilar o'rtasida turli qarashlar mavjud. Mana shunday markazlardan biri Choch hisoblanib u haqida alohida so'z yuritish mumkin.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Ushbu masalani tadqiq etishda asosan arxeologik va yozma manbalarda keltirilgan ma'lumotlarni o'rganish asosida ilmiy tadqiqot ishlarini olib borgan olimlardan E.V. Rtveladze, L. S. Baratova, A. Xo'jaev, Sh. Kamoliddin, E. de la Vesser, F. Grene, Z. Shtark, amerikalik J.K. Skeff, nemis tadqiqotchisi Z. Shtark, venger sharqshunosi K.I. Bekvis, turkiyalik sharqshunosi va tarixchilar Z.V. To'g'on, E. Esin va E. Ekrem, A. Otaxo'jaev, G. Boboyorov, M. Xatamova, A. Kubatin, F. Jumaniyozova, D. Normurodov, Y. Muxamedov va boshqalarni tilga olib o'tish mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu mavzuni yoritib berishda tarix fanida tan olingan tarixiylik, obyektivlik tamoyillari, tizimli qiyosiy tahlil, muammoviy va fanlararo yondashuv kabi usullardan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. Choch vohasi geografik joylashuviga ko'ra qulay mintaqada joylashgan voha bo'lib, uning hududidan o'tgan qadimgi karvon savdo yo'llari shaharsozlik madaniyatining rivojlanishiga asosiy turtki bo'lgan. Shuning uchun ham bu zamin madaniyati boshqa qo'shni hudud mintaqalarga yoyilgan. Bu borada ilk o'rta asrlarda G'arbiy Turk xoqonligi tomonidan o'lkani qo'lga olinishi ham bevosita vohaning urbanizatsiyasiga o'z ta'sirini o'tkazmay qolmadi. Xususan bu davrda shaharsozlik gullab yashnadi.

Qang' saltanati va uning markaziy hukmdorligi bo'lmish Chochda milodiy bir mingyillikning o'rtalarida shakllana boshlagan o'nlab shahar va yirik qishloqlar miqdori Turk xoqonligi davrida yanada ko'paygan. Toshkent vohasi va Janubiy Qozog'istonda VI-VIII yuz yilliklarda shahar madaniyati o'zining eng yuqori cho'qqisiga chiqqan [1]. Xususan, Ibn Xavqal Chochda jami 52 ta shaharni qayd etgan bo'lsa, yana bir qator arab va fors geograflari vohada bir necha o'nlab shaharlar bo'lganligiga urg'u berishgan. Toshkent vohasidagi 32 ta shahar xarobasidan 1 tasi – Qanqa yirik (150 ga), 5 tasi – o'rta (25 dan 75 gacha ga) va 26 tasi esa kichik (25 gacha ga) shaharlar bo'lib, mutaxassislar bu davrda Chochdagi urbanizatsiya kichik shaharlar evaziga taraqqiy etib borganligini olg'a suradilar [2]. Janubiy Qozog'istonda esa VI-IX asr birinchi yarmiga tegishli qatlamga ega shahar xarobalari manbalarda berilgan shaharlar soniga qaraganda ancha ko'p. To'g'rirog'i, arxeologlar tomonidan bu davrga oid

30 ta shahar aniqlangan bo'lib, ulardan faqat 6 tasining nomigina yozma manbalarda uchraydi [3]. Har ikkala hududda ham shaharlar soni o'sishi Turk xoqonligi va sug'diylar faoliyati natijasida bo'lib, ulardan bir qismining turkiy-sug'diy asosli yoki aralash ekanligini guvohi bo'lishimiz mumkin [4].

Toshkent vohasidagi mavjud bo'lgan bir qancha yodgorliklarda, xususan, Qanqa, Mingo'rik, Xonobod va Ko'lota kabilar arxeologik jihatdan birmuncha yaxshi tadqiq etilgan. Xususan, ularni o'rganish natijasida o'ziga xos tarzida bir biridan farq qiluvchi urbanizatsiyalashuv jarayonlari yuzaga kelgan bo'lib, madaniyat egalari o'z hududida muqim yashab kelganliklarini kuzatishimiz mumkin [5]. VI-VIII yuz yilliklardagi joy nomlarining muayyan qismini tashkil qiluvchi sug'diy toponimlar butun voha bo'ylab uchraydiki, bu o'z navbatida sug'diylarning Choch yerlarida anchadan beri muqim yashaganligini ko'rsatadi. Xususan, Chochda sug'diy - kat topoformanti bilan tugallanuvchi toponimlar keng tarqalgan [6]. Qizig'i shundaki, ushbu topoformant oldida ko'p hollarda qadimgi turkiy so'zlar o'rin olgan bo'lib (mas. Tunkat, Barskat, Xotunkat, Jabg'ukat, Ardlonkat), bu esa Toshkent vohasi o'z davrida turk-sug'd simbiozi faol kechgan hudud bo'lganidan darak beradi.

Chochda unvonlar bilan bog'liq shaharlar ham anchagina. Izlanishlarga ko'ra, vohada ham turkiy, ham sug'diy asosli unvonlardan yasalgan shahar nomlari boshqa hududlarga qaraganda ko'proq uchraydi [7]. Buning sababini sug'dshunoslar yettisiv va Choch hududida shahar va manzilgohlarga sug'd savdogarlari tomonidan amalga oshirilgan savdo munosabatlari hamda bu yerda tashkil topgan savdo markazlari bilan bog'liq holda kechganligi bilan asoslaydilar [8]. Biroq shuni unutmashimiz kerakki, bu hududlardagi shahar va manzilgohlarga birgina sug'diylar emas, balki turkiylar ham asos solishgan. Buni u yerdagi toponimlarning katta bir qismi turkiy yoki turkiy va sug'diy asosdan kelib chiqqanligi ham ko'rsatadi [9]. Bu davrda Toshkent vohasida turkiy -liq/lig' topoformanti bilan tugallanuvchi Sobliq (Soyliq), Abrlig', Namudlig' (Yag'uzlig'), Nekaliq (Yaqaliq), Olmaliq, Otlig' (Itliq), Ajig' (Achig') kabi toponimlar keng tarqalganligi kuzatiladi. Xususan, Abrlig' (80 ga), Kabarna (75 ga), Namudlig' (70 ga), Chinanchkat (50 ga) kabi shaharlar maydonining kattaligi ularda ko'p sonli aholi yashaganligini ko'rsatadi. Abrlig' va Namudlig' yirik hunarmadchilik va metallurgiya markazlari o'laroq nom chiqargan shaharlar qatoriga kiritish mumkin [10].

Choch vohasidan topilgan arxeologik materiallar va yozma manbalarni o'rgangan mutaxassislar ilk o'rta yuz yilliklarda turklar birgina qishloqlarga emas, balki vohaning shaharlari aholisi ichiga ham kirib borganligini ko'rsatgan. Shuningdek, vohaga yaqin hududda - Quyruqto'ba (Kadar) shahar xarobasining zalidan topilgan kuydirib o'yilgan naqshli doskaning "Unashtiruv sahnasi" deb nomlangan tasviridagi qahramonlarning tashqi qiyofasi, keng soqolsiz yuzi, yassi burni, ko'z tuzilishi va kiyimlari ularning turklar ekanligini ko'rsatmoqda [11]. Xuddi shunga o'xshash inson qiyofalari Choch vohasida Turk xoqonligi davrida zarb qilingan tangalarda ham uchraydi. Shuningdek, G'arbiy Turk xoqonligi, Choch Teginlari va Choch Tudunlari tangalarida dumaloq yuzli, soqolsiz hukmdor tasvirlarida ham o'z aksini topgan [12]. Agar ushbu tangalardagi tasvirlarni Qang' davriga oid Choch tangalaridagi hukmdor qiyofasi bilan solishtiradigan bo'lsak, ular orasida ancha farq borligi, Chochning qadimiy tangalarining ko'pchiligida hukmdor tasvirlari ko'pincha ingichka yuz, soqolli qilib tasvirlanganligiga [13] guvoh bo'lamiz.

Ilk o'rta asrlar davriga kelib Chochning asosiy markazi qaysi shahar ekanligini aniqlash ishning asosiy masalalaridan biri xisoblanadi. Bu borada VII-VIII asrlarda vohadagi turkiy sulolalar hukmdorlarining markazlari qarda

joylashganligi borasida tarixshunoslikda quyidagi xulosalar keltirilgan bo'lib, bu borada masalani mohiyatini aniqlashda quyidagicha ma'lumotlarni aniqlash imkoniga ega bo'ldik.

1) Oqqo'rg'on tumanidagi Qanqa shahar xarobasi va Toshkent shahridagi Mingo'rik shahar xarobasi ham Chochning poytaxti bo'lganligi ehtimoldan xoli emas. Ehtimol, oldinroq Qanqa, keyinroq Mingo'rik poytaxt vazifasini bajargan [14].

2) Qang' saltanatining poytaxti bo'lgan Qanqa shahar xarobasi Turk xoqonligi davrida ham Choch sulolalaridan birining poytaxti vazifasida bo'lishda davom etgan. Mingo'rik esa bu davrda Chochning mudofaa qo'rg'onlaridan biri bo'lgan [15].

3) Qanqa shahar xarobasi Choch Teginlarining, Mingo'rik, Tarband, Tunkat shaharlari Choch Tudunlarining markazi, Yunusobod Oqtepsi qo'rg'oni esa ularning shahar tarshqarisidagi qarorgohi vazifasini o'tagan [16].

G'arbiy Turk xoqonligi davrida Chochda joylashgan ikki shaharni o'rganish alohida ahamiyatga egadir. Jabg'ukat va Xatunkat shaharlari ushbu shaharlar haqida ilk ma'lumotlarni arab mualliflari tomonidan berilgan ma'lumotlari va boshqalari orqali olishimiz mumkin. Xususan, Al-Istaxriy (X asr) uni Chochdan Iloqqa olib boruvchi yo'ldan sharqda, ya'ni Turk (Chirchiq) daryosi vodiysida devorning ichkarisidagi shaharlar qatorida tilga olgan va Binkatdan Turk daryosining qirg'og'idagi Jabg'ukatgacha bo'lgan masofani 2 farsax (chamasi 16 km) deb ko'rsatgan [17]. Yana bir muhim manba "Hudud ul-olam" asarida (X yuz yillik)ning noma'lum muallifi ham Binkatdan 2 farsax uzoqlikda joylashgan Jabg'ukatni "chiroyli bir shahar bo'lib, u qadimda Chochning harbiy lageri - lashkargohi vazifasini bajarganligi e'tirof etib o'tiladi" deb qayd etgan [18]. Qudama ibn Ja'far va al-Muqaddasiylar (X asr) ham uni "ichki mudofaa devoriga ega harbiy lashkargoh" tariqasida ta'riflaganlar [19]. Turk xoqonligi davrida bunday qarorgoh shaharlar - harbiy garnizonlar vazifasini o'tagan bo'lib, G'arbiy Turk xoqonligining ilk poytaxt shaharlaridan biri - Beshbaliq (Turfon atrofi Sharqiy Turkiston)da xoqonlar ham o'z vassallarini nazoratda tutish uchun maxsus qo'shin saqlaganlar [20].

Jabg'ukat yoki "Jabg'u shahri" ma'nosini anglatgan shahar xarobasining izlari Toshkent shahrining shimoli-sharqidagi Do'rmon qishlog'i yaqinidagi Oq-ota shahar xarobasi o'rnida bo'lgan [21]. Uning umumiy maydoni 18 ga tashkil etgan, ammo ushbu manzilgohda, arxeologlar tomonidan keng qazish ishlarini o'tkazishmagan. Stratigrafik tekshiruvlar u yerdan VII-VIII, X -XII va XV asrlarga oid materiallarni bergan [22]. Yodgorlikning ilk o'rta asrlarga oid ko'handiz (ark)i aniq ajralib turadi. Arxeologik tekshiruvlar natijasida uning pastki qismida paxsali binolar uyumi hamda kamroq miqdorda sirlanmagan sopol buyumlar topilgan. Shuning uchun ayrim arxeologlar Oq-otani shahar emas, balki manzilgoh sifatida baholagan bo'lishlariga qaramay, Yu.F.Buryakov uning shaharcha bo'lganligiga shubha yo'q, deb topgan [23].

Ayrim tadqiqotchilarga ko'ra, Jabg'ukat birinchi harbiy maqsadlar (qo'shin saqlash, qo'shinning harbiy tayyorgarligi va b.) uchun mo'ljallab qurilgan. Chunki arxeologik qazishmalar natijasi unga VI asrning ikkinchi yarmidan keyin asos solinganini tasdiqlaydi. Qolaversa, xuddi shu davrda Istami va uning avlodlari "jabg'u" unvoni bilan yuritilganligi ko'zda tutilsa [24], shahar shunchaki "Jabg'u shahri" ma'nosini anglatmagan bo'lib chiqadi. Umuman, Jabg'ukat xoqonlik G'arbiy qanotining shakllanishining ilk davrlari - Yabg'ulik davri (VI yuz yillikning 60- yillari [25]) va oxirgi choragi)da vujudga kelgan. Keyinroq Sheguy, Tun yabg'u kabi xoqonlar Jabg'ukatdan qishlik qarorgoh sifatida foydalangan bo'lishlari kerak.

Chochda zarb qilingan G'arbiy Turk xoqonligi tangalarining katta qismida hukmdor – yabg'u, yabg'u-xoqon yoki xoqon bilan birga malika – xotun tasviri uchraydi. Qadimgi turk davlatchiligi bilan bog'liq bu an'ana o'sha davr shaharsozligida ham aks etganini kuzatishimiz mumkin.

Xulosa. G'arbiy Turk xoqonligi biror bir hududni o'zining asosiy ma'muriy markazlarini tanlashda bevosita hududning strategik jihatdan qulayligiga alohida etibor qaratgan. Hususan Choch vohasi tarkibida bo'lgan shaharlarni tanlashi ham shundan dalolat beradiki, hudud urbanizatsiyasini yana rivojlanishiga katta turtki bo'lgan.

ADABIYOTLAR

1. Байпаков К.М. Средневековая городская культура Южного Казахстана и Семиречья. А-А., 1986. – С. 41; Аскарлов А.А., Бураков Ю.Ф., Квирквелия О.Р., Радлиловский В.В. Теоретические и методологические проблемы исследования в археологии. Ташкент. 1988. – С. 128, 134.
2. Бураков Ю.Ф. Генезис и этапы развития городской культуры Ташкентского оазиса. – Ташкент., 1982. – С. 140, 168.
3. Байпаков К.М. Средневековая городская культура ... – С. 66.
4. Бобоёров Ф. Чоч тарихидан лавҳалар (Илк ўрта асрлар). – Тошкент., 2010. – Б. 80.
5. Бураков Ю.Ф. Генезис и этапы развития городской культуры... – С. 124.
6. Лурье П.Б. Историко-лингвистический анализ согдийской топонимии. Дис. канд. филол. наук. СПб., 2004. – С. 105.
7. Лурье П.Б. Историко-лингвистический анализ ... – С. 206.
8. Лурье П.Б. Историко-лингвистический анализ ... – С. 208.
9. Бураков Ю.Ф. К истории раннесредневекового Чача // O'zbekiston tarixi, № 3. – Ташкент, 2002. – С. 16;
10. Бобоёров Ф.Б. Илк ўрта асрларда Чоч воҳасида туркий топонимлар ... – С. 113-114.
11. Бураков Ю.Ф. Генезис и этапы развития городской культуры ... – С. 64.
12. Байпаков К.М. Западнотюркский и Тюркешский каганаты: тюрки и согдийцы, степь и город. – Алматы, 2010. – С. 62-63.
13. Бабаяров Г.Б. Древнетюркские монеты Чачского оазиса (VI–VIII вв. н.э.). Ташкент, 2007. – С. 10 – 19, 40 – 42, 52 – 53.
14. Rtveldze E.V. Pre-Muslim coins of Chach // Silk Road Art and Archaeology, 5. – Kamakura, 1997/1998. – P. 307 – 328; Бобоёров Ф. Чоч тарихидан лавҳалар (Илк ўрта асрлар). – Тошкент.: Yangi nashr, 2010. – Б. 91.
15. Филанович М.И. Ташкент: зарождение города и развитие городской культуры древности и средневековья // Роль города Ташкента в развитии мировой цивилизации (Материалы Международной научной конференции посвященной 2200-летию юбилею города Ташкента. – Ташкент: Фан, 2009. – С. 45-51; Мукминова Р. Г., Филанович М. И. Ташкент на перекрестке истории (Очерки древней и средневековой истории города). – Ташкент: Фан, 2001. – С.14; Алимова Д. А., Филанович М. И. Ташкент тарихи (қадимги даврлардан бугунгача) – История Ташкента (с древнейших времен до нашей дней). Қайта ишланган ва тўлдирилган иккинчи нашри. – Тошкент: ART-FLEX, 2009. – Б. 24.; Филанович М.И. Древняя и средневековая история Ташкента в археологических источниках. – Тошкент: Ўзбекистан, 2010. – С. 26.
16. Бураков Ю.Ф. Археологические материалы к этнической истории... – С. 61; Ўша муаллиф. Средневековый Чач в системе торгово-экономических связей... – С. 35; Филанович М.И. Ташкент: зарождение и развитие... – С. 182; Мукминова Р.Г., Филанович М.И. Ташкент на перекрестке истории... – С. 14; Алимова Д.А., Филанович М.И. Ташкент тарихи... – Б. 24.; Филанович М.И. Древняя и средневековая история Ташкента... – С. 26.
17. Бураков Ю.Ф. Средневековый Чач в системе торгово-экономических связей... – С. 35.
18. Пугаченкова Г.А., Ремпель Л.И. Выдающиеся памятники архитектуры Узбекистана. Ташкент, 1958. – С. 145 – 146; Филанович М.И. Древняя и средневековая история Ташкента... – С.162, 183; Хатамова М.М. Қанқа – Чоч Тегинларнинг маркази // Ўзбекистон тарихининг долзарб муаммолари ёш таджикотчилар талқинида. ЎЗР ФА Археология институтида 2013 йил 28 мартда ўтказилган ёш олимлар Республика конференцияси материаллари. Самарқанд, 2013. – Б.148 – 154
19. al-Istakhri, Abu Ishak Ibrahim al-Farisi. Masalik al-mamalik (Viae regnorum). ed. M.J. de Goeje, BGA, pars 1. Lugduni-Batavorum: E.J. Brill, 1967. – P. 330.
20. Hudud al-'Alam. The regions of the world. Translated by R.V. Minorsky. London, 1970. – P. 117, 357.
21. al-Moqaddasi, Abu 'Abdallah Muhammad ibn Ahmad Shamsaddin. Kitab ahsan al-taqasim fi ma'rifat al-aqalim (Descriptio Imperii moslemici), ed. M.J.de Goeje, BGA, pars 3. Lugduni-Batavorum, 1967. – P. 264; Ibn Haukal, Abu'l-Kasim an-Nasibi. Kitab sura al-Ard, ed. J.H. Kramers. Leiden, 1939. – P. 507, 522.
22. Абдурахмонов Ф., Рустамов А. Қадимги туркий тил. Тошкент: Ўқитувчи, 1982. – Б. 128; Лурье П. Б. Историко-лингвистический анализ согдийской топонимии. Дисс. кандидата филологических наук. – СПб., 2004. – С. 93.
23. Бураков Ю.Ф. Историческая топография... – С. 75.
24. Бураков Ю.Ф., Қосимов М.Р., Ростовцев О.М. Тошкент областининг археологик ёдгорликлари. Тошкент, 1975. – Б. 45; Бураков Ю.Ф. Верификация археологических материалов письменными источниками // Аскарлов А.А., Бураков Ю.Ф., Квирквелия О.Р., Радлиловский В.В. Теоретические и методологические проблемы исследования в археологии. Ташкент, 1988. – С. 81.
25. Moravcsik G. Byzantinoturcica. T. 2. – Berlin 1958. – P. 130-131, 290; Golden P.V. Türk Halkları tarihine Giriş. Çev. O.Karatay. Ankara, 2002. – S. 103; Гумилев Л.Н. Древние тюрки. М., 1967. – С. 158-159.



UDK: 903.54 (584.4)

Dilmurod NORMURODOV,
O'zbekiston Milliy universiteti dotsenti, PhD
E-mail: d.r.normurodov@mail.ru

O'zbekiston Milliy universiteti professori, t.f.d. R. Suleymanov taqrizi asosida

BURIAL STRUCTURES IN KAVARDAN

Annotation

This article is about burial structures in Kavardan cite, Yukari-Chirchik district of the Tashkent region, where burials of cleaned bones of the deceased were found, arranged in ossuaries. On the basis of the analysis of these burials and artifacts found, it can be assumed that it belongs to the Kavunchi culture of the 2nd century BC – 1st half of the 6th century AD and in the 6th–8th centuries there were changes in burial customs of the population of the Tashkent oasis.

Key words: Chirchik, Kavardan, Kaunchi culture, burial structures, grave, deceased, ossuary, pottery, pakhsa.

О ПОГРЕБАЛЬНЫХ СООРУЖЕНИЯХ В КАВАРДАНЕ

Аннотация

В этой статье говорится о погребальных сооружениях в селении Кавардана, Юкари-Чирчикского района Ташкентской области, в которых были обнаружены захоронения очищенных костей умерших, сложенные в оссуарии. На основе анализа этих захоронений и найденных артефактов можно предположить что это относится к Кавунчинской культуре 2 в. до н.э. – 1ая пол. 6 века н.э. и в 6-8 веках в обычаях захоронения населения Ташкентского оазиса произошли изменения.

Ключевые слова: Чирчик, Кавардан, Каунчинская культура, погребальные сооружения, могила, покойник, оссуарий, керамическая посуда, пахса, арк.

KOVARONDAGI DAFN INSHOOTLARIGA DOIR

Annotatsiya

Ushbu maqolada Toshkent viloyati, Yuqori Chirchiq tumanidagi Kovardon qishlog'idan aniqlangan dafn inshootlari tahlilga tortilgan bo'lib, qabrlarga marhumlar erga yotqizib, marhumning etidan tozalangan suyaklari ostadonlarga solinib ko'milganligi qayd qilingan. Tahlilga tortilgan qabrlar va ulardan topilgan artefaktlar asosida Qovunchi madaniyatining miloddan oldingi II – milodiy VI asr 1-yarmi bilan davlashtirilishining to'g'ri ekanligi, VII–VII asrlarda Toshkent vohasi aholisi marhumlarni dafn etish urf-odatida o'zgarishlar ro'y berganligi asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: Chirchiq, Kovardon, Qovunchi madaniyati, dafn inshooti, qabr, marhum, ostadon, sopol idish, paxsa, ark.

Kirish. Dafn inshootlarini o'rganish orqali yozma manbalar yoritib bera olmaydigan ayrim masalalarni, xususan turli joylarda tarqalgan aholi vakillarining ma'naviy madaniyatini aniqlash, arxeologik madaniyatlarining o'zgarib borishini kuzatish, madaniyat davri va bosqichlariga yechim topish mumkin. Shu sababli, ayrim tadqiqotchilar orasida tortishuvli bo'lib kelayotgan Qovunchi madaniyatining yakunlanishini yechib berishga xizmat qilishi mumkin bo'lgan [7; 10; 5; 2; 8; 11], XXI asrning boshlarida tadqiqot ishlari olib borilgan bo'lsada, qo'lga kiritilgan natijalar keng ommaga ma'lum qilinmay kelinayotgan Kovardon arxeologik yodgorligining dafn inshootlaridagi tadqiqot ishlari natijalarini e'lon qilishga zarurat tug'ildi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Kovardon arxeologik yodgorligi qadimgi shaharning xarobasi bo'lib, u Chirchiq daryosining chap sohilidan ajralib chiqqan Qorasuv daryosining chap qirg'og'ida, hozirgi Toshkent viloyati, Yuqori Chirchiq tumani, Kovardon qishlog'ida joylashgan. To'g'ri burchak shakli bu yodgorlik yozma manbalarda qayd qilingan qadimgi Kabarna shahri bilan qiyoslangan bo'lib [6], uning xarobasi 75 gektardan ortiqroq maydoni egallagan. Shahar strategik tomondan qir-tepaliklar ustidagi qulay joyda joylashgan. Uning shimoliy va g'arbiy tomonlaridan Chirchiq daryosining shahobchalari, sharqiy, janubiy tomonlari Oqoliq, Yuzurug' kabi soylar bilan o'ralgan.

Bu shaharning xarobasi 1972 - yilda O'zR FA Areologiya institutining Yu.F.Buryakov boshchiligidagi Shosh-Iloq ekspeditsiyasi tomonidan aniqlangan. Shu yilning

o'zida shahar xarobasida va unga shimol hamda sharq tomondan tutash bo'lgan, mahalliy xalq tomonidan «Mingtepa» deb yuritiladigan joyda qabr qo'rg'onlari ochib o'rganilgan [4].

Yuqarida aytilganidek, Kovardonning qulay geografik joyda joylashganligi uni mahobatli mudofaa inshooti bilan himoyalashga hojat tug'ilmagan. Ko'hna shaharning g'arb tomonida alohida-alohida ikkita ark o'rnatilgan. Ular balandligi 14-15 metr keladigan to'g'riburchak shaklidagi tepaliklardan iborat. Bu tepaliklar «Xontepa» hamda «Xonimtepa» deb yuritiladi. Ularning har ikkalasi ham yirik hajmdagi xom g'ishtlardan (50x30x10 santimetr) va paxsadan qurilgan mahobatli mudofaa devori bilan o'rab olingan.

Tadqiqot metodologiyasi. Xontepa arkidagi 9 metrdan ortadi madaniy qatlamning eng pastki qatlamdan III – IV asrlarga oid kulochilik charxi yordamisiz – qo'lda yasalgan sopol buyum parchalari aniqlangan [4]. Arkka o'z davrida qatnovlar bo'lgan ko'cha izlari saqlangan keng maydonli shahriston tutashgan. Shahristonni tadqiq qilish maqsadida uning bir qancha joyidan stratigrafik qazilma ishlari olib borilib, bir qancha qiziqarli sopol buyumlar topilgan.

Tahlil va natijalar. Kovardonda bir-biriga yaqin joylashgan, diametri 8 – 14 metr va balandligi 1,5-3,5 metr keladigan tepaliklarning tagida devori loydan ko'tarilgan dafn inshooti – nauslarning aniqlanganligi e'tiborlidir. Ochib o'rganilgan turli xil turdagi bir qancha dafn inshootlari, ularning ko'pchiligidagi tartibsiz joylashgan

marhum suyaklari, idish parchalari va boshqalar quyidagicha tavsifga ega:

1-dafn inshooti. Tashqi tomondan ko'rinishi oval shaklidagi dafn inshootining o'zagi shimoli-g'arbdan janubi-sharq tomonga qarab biroz cho'zilgan. Bu inshootiga janubi-g'arb tomondan kirilgan. U yo'lak ko'rinishidagi ikki parallel cho'zilgan devordan iborat. Uning kirish joyining uzunligi 3 metr, eni 0,8 metr. Kirish yo'lagi xonaning o'rtasiga borib tutashgan. Xona to'g'ri to'rtburchak shaklida bo'lib, uning uzunligi 3,85 metr, eni 2,10 metr. Paxsadan ko'tarilgan xona

Xonaning devori suvoqsiz (1-rasm).



Xonaning polidagi uyumlar orasidan tuproqqa aralashib har tomonda sochilib yotgan marhumlarning jasad suyaklari va turli xil narsa-buyumlar topilgan. Bu holat «marhamning go'ri» keyinchalik kimlardir (ehtimol xazina-boylik qidiruvchilar) tomonidan talanganligini, undagi narsalar olib ketilganligini (o'g'irlanganligini) ko'rsatadi.

Xonaning har tomonidan kulolchilik charxida yasalgan qizg'ish rangdagi ko'zalarning (tiklab bo'lmaydigan darajadagi) parchalari sochilib ketgan. Ko'zalardan birining tanasi qisqa bo'lib, uning tepa-og'iz qirg'og'iga yopishgan kichkina tik dastasi mavjud. Uni og'zining diametri 9 santimetrni, tagligining diametri 8,5 santimetrni tashkil qiladi. Xonadagi topilmalardan bo'yi 12,5 santimetr, eni 3,5 santimetr, qalinligi 1 santimetr bo'lgan toshdon yasalgan to'g'rito'rtburchak shakldagi ikkita teshikchasi bor qayroqtosh diqqatga sazovordir. Yana bir topilma yapaloq, boshqasi oval shaklidagi qayroqtoshlardir. Aftidan, bu topilmadan buyumlarga bezak berish yoki pardozi uchun foydalanilgan. Qayroqtosh bilan bir joydan kulrang tosh tayoqcha (surmatosh), hamda toshga aylangan chig'anoq topilgan.

Shuningdek, bu joydan diametri 1 santimetr keladigan suyakdan yupqa qilib yasalgan uzuk, uzunligi 2,5 santimetr bo'lgan temirdan yasalgan to'qa topilgan. Kichkina hajmli bu to'qa asosan ingichka kamarlar uchun mosdir. Xonaning shimoli-sharqdagi devori yonidan bir dona diametri 1,5 santimetr bo'lgan, juda yomon saqlangan yupqa mis tanga ham topilgan. Shuningdek, bu yerdan ikki dona munchoq ham topilgan bo'lib, ulardan biri – dumaloq shakldagisining tepa qismiga aylana ko'rinishidagi naqshlar bilan bezak berilgan. Ikkinchisi shishadan yasalgan. Uning yuza qismi sakkiz qirrali. Topilmalar ichida yana ko'rinishidan ko'mir bo'lagini eslatuvchi topilma qiziqarli. Undan ehtimol surma tayyorlagan bo'lishi mumkin.

2-dafn inshooti. Tashqi tomondan aylana ko'rinishga ega. Bu inshootga janubi-g'arb tomondan kirilgan. Kirish yo'lagingin uzunligi 2,70 metr, eni 0,8 metr. Undan uzunligi 3,8 metr, eni 2,10 metr bo'lgan to'g'ri to'rtburchak shaklidagi xonaga kiriladi. Bu xona uzunasiga shimoli-sharqdan janubi-sharq tomonga qarab yo'naltirilgan. 2 – dafn inshootining barcha belgilari birinchisining o'xshash.

Shimoli-sharq tomondagi devorga yaqin joydagi polning ustidan yirik hajmdagi xum va uning yonidan etidan tozalangan marhum suyaklarini solib qo'yishga mo'ljallab

devorining qalinligi 2,25 metrgacha, saqlanib qolgan balandligi 0,9 metrgacha boradi. Devorning ichki tomonga qiya ishlanganligi, shuningdek, yo'laksimon kirish eshigi uning tomi unchalik baland bo'lmagan qubba shaklida yopilganligini bildiradi. Xonaning pastki tomoniga ham paxsa urilib, tepa qismiga esa paxsa va to'g'rito'rtburchak shaklidagi xom g'ishtlar (o'lchami 37-38x27-28x8 santimetr) aralashtirib terilgan. G'ishtlarni yuzasiga qo'l barmoqlarida to'g'ri chiziq ko'rinishida tamg'a-belgilar tushirilgan. Xonaning poli tekis bo'lib, uning ustiga yirik-yirik qum to'shalgan.

yasalgan sopol tobut (ostadon)ning sinib parchalarga bo'linib ketgan qismlari topilgan. Ostadonni qisman tiklashga erishilgan. U o'ziga xos, to'rtburchak (25x25 santimetr) ko'rinishga ega. Uning uzunligi 60 santimetr.

Ostadonning tagida uzunligi 6,5 santimetr, diametri 3 santimetr keladigan to'rtta silindrsimon oyoqchalari bor. Ostadonning tepa qismida ovalsimon kesishma mavjud. U kesishma ostadonning qopqog'i yopiladigan joyi bo'lishi mumkin. Kesishmaning to'rt tomonidan diametri 0,6 santimetr bo'lgan bir-biriga o'tib turuvchi ikkita teshikchalar bo'lib, teshikchalar joylashgan yerining devori qalinligi 1,5 santimetrdir.

Ostadonning yonida turgan tuzilishi tuvaksimon, qorin qismi shorsimon xum ham etidan tozalangan marhum suyak qoldiqlarini saqlash uchun ishlatilgan. Uning yelka qismida vertikal o'rnatilgan dastasi bo'lgan. U kulolchilik dastgohida yasalgan. Pishirilgandan keyingi loyi och qizg'ish rangda. Tashqi tomoni (sirti) kul rangda angoblangan. Uning balandligi 43 santimetr, og'zining diametri 27 santimetr, tagliginiki esa 26,5 sm, devorining qalinligi 1,2 santimetr.

3-dafn inshooti. Bu dafn inshooti o'ziga xos tarxga ega bo'lib (2-rasm), tashqi ko'rinishi o'tovni eslatadi. Olib borilgan qazish ishlari natijasida yaxlit qilib ishlangan inshootni tag qismidan to'g'ri to'rtburchak shaklidagi chuqurlikdan marhum jasadi topilgan. Uncha chuqur bo'lmagan bu go'rning chuqurligi 35 santimetr. Go'r shimoli-sharqdan janubi-g'arbgacha tomon cho'zilgan. Go'rning o'zining 1,76 santimetr, eni 80 santimetr. Bu yerga yosh qiz yon tomoni bilan uzunasiga cho'ziltirilgan holatda ko'milgan. Uning boshi shimoli-sharqqa qaratilgan. Manhumaning suyaklari juda yomon saqlangan, ba'zi qismlari batamom chirindiga aylangan. Boshining chap tomonidan aylana ko'rinishida bo'lgan kumush sirg'a (1,5 santimetrlik), sirg'aning yonidan kichik hajmdagi qadaxsimon idish topilgan. Bu idishning balandligi 5,5 santimetr, og'zi va tagligining diametri 4,5 santimetrdan iborat. Go'rning polidan 1-dafn inshootidan topilgan ko'zaga o'xshash ko'za ham topilgan. Avval aytganimizdek chuqurlikka ko'milgan marhuma ustiga yaxlit holatdagi qurilma ishlangan. Marhuma chuqurlikka qo'yilgach, uning ustiga maxsus navdalardan to'qilgan bo'ya to'shalgan bo'lishi mumkin. Bunday deyilishiga sabab qazishma vaqtida marhuma ustidan olingan mayda kulsimon qatlamning topilganligidir. Shundan so'ng uni ustiga pishirilgan loydan tayyorlangan paxsa qatlami

ishlangan. Uning balandligi 80 santimetr, diametri 5 metr bo'lgan. Uning ustidan esa o'lchami 45-46x26x8-9 santimetr bo'lgan xom g'ishtlar terilgan. Uni balandligi qancha bo'lganligi noaniq.

4-dafn inshooti. Bu dafn inshooti tashqi ko'rinishidan 3-dafn inshootiga o'xshab ketadi. U buzilib ketgan bo'lib, xom g'isht (o'lchami 48x26x10 santimetr) va paxsa bloklarining murakkab aralashmasidan qurilgan.

Bu yerdan janubga qarab cho'zilgan 40 santimetr chuqurlikdan katta yoshdagi erkak kishining jasadini topilgan. Jasadning boshi tomoni janubga qo'yilib orqasi bilan yotqizilgan. Marhumning atrofidan, poldan bir qancha shisha munchoqlar va pichoq topilgan.

5-dafn inshooti. U 4-dafn inshootidan 250 santimetrcha shimoli-sharqda joylashgan. Bu dafn inshooti ham tashqi ko'rinishidan 3-dafn inshootiga o'xshash. Uning tarxi aylana (asosining aylanasini 13 metr) shaklda. U yaxlit ko'rinishdagi, balandligi 80 santimetr bo'lgan paxsa va to'g'ri to'rtburchak shakldagi xom g'ishtlardan (o'lchami 44x24x10; 45x27x10; 52x32x12-13 santimetr) iborat. G'ishtlar orasiga qo'yilgan loyning qalinligi 4-5 santimetr. Bu yerdagi e'tiborli tomoni shuki, paxsa quyulgandan keyin ustidan yupqa qilib ganchdan suvoq berilgan, keyin esa ustidan 1,5-2 santimetr qalinlikda yirik-yirik qum qatlami yotqizilgan. Sof tuproqni o'yish natijasida kvadrat shaklda (o'lchami 70x70 santimetr) 7 metr uzunlikda ishlangan yo'lakcha orqali ichkariga kirilgan. Bu cho'ziq yo'lak shimoldan janubga qarab bir oz ko'tarilib borgan. Bu yerda qolgan qoldiqlarga ko'ra yo'lak qazib bitkazilgandan keyin ustidan mahsus novdalardan to'qilgan bo'ya yopilgan. U ikki qavat qilib yopilgan bo'lib, qavat oralig'iga qalinligi 10 santimetrdan iborat bo'lgan tosh aralash tuproq solingan. Ushbu dafn inshootidan bir-biriga o'xshash bo'lgan ikkita dafn xonasi aniqlangan (3-rasm).

Birinchi dafn xonasi yuqorida aytib o'tilgan yo'lakning sharq tomoni o'rtarog'ida joylashgan. Uning tomi ravoq shaklida bo'lgan. Bu xonaning balandligi 1 metr, uzunligi 1,6 metr, eni 1 metr bo'lib, xona shimoldan – janubga tomon cho'zilgan. Yo'lakdan xilxonaga kirish eshigi kvadrat shaklida bo'lib, u paxsa bloklari bilan yopilgan. Xilxonadagi buyumlar o'g'irlangan. Tuproq uyumlaridan toshga aylangan chig'anoqlar va mayda sopol bo'laklari topilgan. Sopollar qizg'ish loydan yasaliib, kulrangda angoblangan.

Birinchi dafn xonasidan 1,70 metr janubda ikkinchisi joylashgan. Bu xonaning bo'yi 1,6 metr, eni 1 metr balandligi 0,7 metrni tashkil etadi. U birinчисiga nisbatan ancha buzilib ketgan va undan umuman hech narsa topilmagan.

6-dafn inshooti. U 5-dafn inshootidan (120 metrcha) g'arbda joylashgan. U paxsa (balandligi 90 santimetr) va yirik hajmdagi to'g'ri to'rtburchak shaklli xom g'ishtlardan (52x32x12; 44-45x27-28x10-12 santimetr) barpo qilingan. Diametri 11 metrlik bo'lgan bu inshootga tashqaridan qaraganda o'tovni eslatadi. G'ishtlarning yuza qismiga geometrik shaldagi har xil tamg'a-belgilar tushirilgan. Bu yerda ham paxsa devorining ustidan qum sepilgan. Qurilma o'rta qismining tagidan marhum qo'yilgan to'g'ri to'rtburchak shakldagi chuqurlik ochilgan. Uning bo'yi 2 metr, eni 90 santimetr, chuqurligi 45 santimetrni tashkil qiladi. Bu yerda ko'milgan marhum erkak kishiga tegishli bo'lib, uning bo'yi 1,85 metr. Marhum boshi shimol tomonga yotqizilgan. Qabrdagi suyak qoldiqlari betartib holatda. Go'rdagi narsalar o'g'irlab ketilgan. Undan faqatgina toshga aylangan yirik hajmdagi chig'anoq topilgan.

Xulosa va takliflar. Shunday qilib, o'rganilgan uch xil ko'rinishdagi dafn inshootlarining tashqi tomondan bir xilda, ya'ni dumaloq shakldadir. Ularni qurishda asosan paxsa va to'g'ri to'rtburchak shakldagi yirik hajmli xom g'ishtlar ishlatilgan. G'ishtlarning yuza qismiga turli geometrik shakldagi tamg'a-belgilar qo'l barmoqlari yordamida

tushirilgan. Bunday shakllar Toshkent vohasidagi yodgorliklardan kam topilgan. Tamg'a-belgilar har bir dafn inshootida o'ziga xos shakllarda ishlatilgan bo'lib, ular biri – ikkinchisini qaytarmaydi. Faqatgina 6-dafn inshootida turli-tuman tamg'a-belgilar, shuningdek har xil hajmdagi xom g'ishtlar uchraydi. Bu dafn inshootiga qabila orasida yuqori mavqega ega shaxsning jasadini ko'milganligidan dalolat beradi [14]. 5-dafn inshooti haqida gapiradigan bo'lsak, bu qabr marhumlarni "yotar yeri" hisoblanmagan. Bunga sabab ko'p bo'lib, birinchidan, bu yerdagi xilxonalarni marhum uchun juda torligida, ikkinchidan, ularga kirish yo'laklarining yirik g'ishtlar bilan yopib tashlanganligida, uchinchidan, bu xilxonalar tor yo'lak orqali emaklab kirishni ham qiyinlashtirgan. Bu yerda xulosa shuki, mazkur xilxona ehtimol kenotap (mayitsiz qabr) vazifasini o'tagan bo'lishi mumkin. Bunday holat O'zbekistonda o'rganilgan bu turdagi xilxonalarda ko'plab kuzatilgan, ya'ni ochib ko'rilgan bunday inshootlar bo'sh (murdasiz) bo'lgan. Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, ikki raqibning bir-biri bilan to'qnashuvi natijasida halok bo'lgan shaxs o'sha yerda qolib ketsa, uning yaqinlari tomonidan o'z yurtiga olib ketishning iloji topilmasa, ular marhumning sharafiga o'z yurtlarida shunday inshootlarni qurganlar. Bu shaxs albatta yurtining, qabilasining boshlig'i bo'lgan bo'lishi kerak. Marhum uchun qurilgan bunday inshootlarga unga atalgan jihozlar qo'yilgan bo'lishi kerak. Dafn inshootining birinchi xillariga (1-dafn inshooti) marhumlarni yotqizib ko'milgan, ikkinchi xillariga esa (2-dafn inshooti) marhumning etidan tozalangan suyaklari ostadonlarga solib ko'milgan. Ular tarxi ko'rinishi Toshkent viloyatining Tuyabo'g'uz [1] va Pskent [3] hududlarida o'rganilgan qabrlarga o'xshash. Shuningdek, bunday dafn inshootlari O'zbekistondan tashqaridagi Panjikentda [13] (Tojikiston) hamda Qozog'istonda [12 Tabl. 1] o'rganilgan. Ularning barchasi VII – VIII asrlarga tegishlidir.

Dafn inshootlaridan topilgan kulolchilik buyumlari qiziqarliqdir. Ular orasida dumaloq shakldagi ko'zaning ustki labidan qorin qismigacha tushgan dastasi bo'lib, uning qarama-qarshisida jumragi bo'lgan. Shuningdek, yirik tuvoksimon (xumga o'xshash) idish juda noyobdir. Uning ikki tomonida tik joylashgan dastaglari bo'lgan. Bu idishning yonidan sarkofag (tosh tobut) ko'rinishidagi to'rt oyoqli ostadon diqqatlidir. Bunday ostadonlar Xorazmdagi [9] yodgorliklardan topilgan bo'lib, ular birmuncha oldingi davrlarga to'g'ri keladi.

Bu dafn inshootlarining tag qismidan I – IV asrlarga [10: 90] oid kulolchilik buyumlarining topilishiga qarab bu yerlarda hayot IV – V asrlarda tugagan, deb aytish mumkin. Natijada bu yerlar mozorlarga aylantirilgan va VII – VIII asrlarga yuqorida aytilgan an'ana (urf-odat)lar asosida marhumlar dafn etilgan. Bu bilan Toshkent vohasida keng tarqalgan, miloddan oldingi II – milodiy VI asr 1-yarmiga oid bo'lgan "Qovunchi madaniyati" an'anasidan [11] boshqa, yangi bir an'analarning yuzaga kelgan deysishga yana bir to'liq asos borligini e'tirof etish dalillanadi. Shuningdek, ayrim tadqiqotchilar tomonidan "Qovunchi madaniyati" quyi davriy chegarasi VIII asr bilan belgilanishi [8] noto'g'ri ekanligi aytish joizdir. To'g'ri Qovunchi madaniyatidan meros bo'lib qolgan an'analarning bir qismi ma'lum o'zgarishlar bilan saqlanib kelgan. Buni hatto, IX–X asrlarda yasalgan ko'zalarning sirtini bezashda qovunchi madaniyatiga oid idishlarni bezashda qullangani kabi qora yoki qizg'ish rangdagi suyuqlik ularning yelkasidan quyib-oqizib belangan. Ana shunday ko'zalardan biri No'g'oyqo'rg'on-Ko'gaittepa yodgorligining yuqorida ko'rsatilgan davrga tegishli ustki qatlamidan topilgan. Xullas, Kovardonda o'rganilgan dafn inshootlari Choch-Toshkent vohasida yangi an'analarning tarkibi topishini dalillashda, aholisining ongida mafkurvviy o'zgarishlar yuz berganligini isbotlashda muhim rol tutadi.

ADABIYOTLAR

1. Агзамходжаев Т. Туябугизские наусы // ИМКУ. № 3. – Ташкент, 1962. – С. 71-76.
2. Asqarov A. O'zbek xalqining kelib chiqish tarixi. – Toshkent, 2015. – 290-bet.
3. Буряков Ю.Ф. Пскентские наусы // СА. – Ташкент, 1968. № 3. – С. 131-132.
4. Буряков Ю.Ф. Историческая топография Ташкентского оазиса. – Ташкент: Фан, 1975. – С. 87.
5. Буряков Ю.Ф. Генезис и этапы развития городской культуры Ташкентского оазиса. – Ташкент, 1982. – С.70–71, 100.
6. Буряков Ю.Ф., Ростовцев О.М., Левен Г.Д. Работы Шаш-Илакского отряда // Археологические открытия 1972 г. – Москва, 1973. – С. 456-457.
7. Григорьев Г.В. Каунчитепа (раскопки 1935 г.). – Ташкент, 1940. – С. 3-40.
8. Inomov O.U. Qovunchi madaniyati va uning o'zbek xalqining shakllanishidagi roli. Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2018. 16-bet.
9. Кочевники на границах Хорезма // Труды Хорезмской археолого-этнографической экспедиции. – Ташкент: Наука, 1979. № 11. – С. 100. Рис. 5.
10. Левина Л.М. Керамика Нижней и Средней Сырдарьи, 1 тыс. н. э. – Москва, 1971. – С. 90.
11. Normurodov D.R. Toshkent vohasining qadimgi va o'rta asrlar davri moddiy madaniyati tarixi (miloddan avvalgi XIII – milodiy XIII asr boshlari). Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2020. 17-bet.
12. По следам древних культур Казахстана. – Алма-ата: Наука, 1970. – С. 112. Табл. 1.
13. Ставицкий В.Я. и др. Пянджикентский некрополь // МИА. – № 37. 1963. – С. 65-78.
14. Bu dafn inshooti bizningcha ko'pchilikning yordamida, hashar yo'li bilan qurilgan.



UDK: 94(575.1)

Roviyajon OTAMURADOVA,
Urganch davlat universiteti tayanch doktoranti
E-mail: roviyajonotamurodova@gmail.com

Urganch davlat universiteti professori, t.f.d U.Abdullayev taqrizi asosida

XORAZM VOHASI TARIXIY-MADANIY MEROSINING O‘RGANILISH TARIXI

Annотatsiya

Xorazm tarixi va madaniyatiga doir ma'lumotlar turli manbalarda o'z aksini topgan. Ular ichida "Avesto", ahamoniylar davri fors bitiklari va yunon rim mualliflarining asarlari eng qadimgi manbalar hisoblanadi.

XX asrning 20-30 yillarida o'lkashunoslarning joylarda kuzatuv va mahalliy aholisidan so'rov uslubi orqali qadimiy obidalarni tekshirish, moddiy va ma'naviy madaniyatga oid ma'lumotlarni yig'ib olish qatorida, ilk bor arxeologik tadqiqotlar amalga oshirildi. Maqolada voha tarixiy-madaniy merosining o'rganilish tarixi tarixiy-qiyosiy, xolislik metodlari asosida tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Madaniy meros, manbaa, tarixshunolsik, ekspeditsiya, etnografiya, arxeologiya.

ИСТОРИЯ ИЗУЧЕНИЯ ИСТОРИКО-КУЛЬТУРНОГО НАСЛЕДИЯ ХОРЕЗМСКОГО ОАЗИСА

Аннотация

Сведения об истории и культуре Хорезма отражены в различных источниках. Среди них древнейшие источники — «Авеста», персидские надписи эпохи Ахеменидов и произведения греко-римских авторов.

В 20-е и 30-е годы 20 века, наряду со сбором сведений о материальной и духовной культуре, впервые были проведены археологические исследования. В статье анализируется история изучения историко-культурного наследия оазиса на основе историко-сравнительного и объективного методов.

Ключевые слова: Культурное наследие, источники, историография, экспедиция, этнография, археология.

HISTORY OF STUDYING THE HISTORICAL AND CULTURAL HERITAGE OF THE KHOREZM OASIS

Annotation

Information about the history and culture of Khorezm is reflected in various sources. Among them are the most ancient sources - "Avesta", Persian inscriptions of the Achaemenid era and works of Greco-Roman authors.

In the 20s and 30s of the 20th century, along with the collection of information about material and spiritual culture, archaeological research was carried out for the first time. The article analyzes the history of the study of the historical and cultural heritage of the oasis on the basis of historical-comparative and objective methods.

Key words: Cultural heritage, sources, historiography, expedition, ethnography, archeology.

Kirish. Geografik jihatdan Xorazm vohasi quyi Amudaryoning o'ng va so'l sohillari yerlarida joylashib, hozirgi Qoraqalpog'iston, Shimoliy Turkmaniston va Xorazm viloyati hududlarini o'z ichiga oladi. Vohada qadimdan o'ziga xos xususiyatlaridan iborat qadimiy va ma'naviy madaniyat rivojlangan hamda shu asosda boy tarixiy-madaniy meros shakllangan.

Xorazm tarixi va madaniyatiga doir ma'lumotlar turli manbalarda o'z aksini topgan. Ular ichida "Avesto", ahamoniylar davri fors bitiklari va yunon - rim mualliflarining asarlari eng qadimgi manbalar hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. XIX asrning 70-yillarida Markaziy Osiyo tarixiga oid ilk yozma manbalarga tayangan holda, yevropalik sharqshunoslari qadimgi Xorazm tarixi va madaniyatini ilmiy nuqtai nazardan yoritishi va talqin qilishi ishlarini boshlab berishadi. Bunda E.Zaxay, V.Teyger, V.Totoshek asarlarini qayd etib o'tish darkor [1:172-174].

1878 - yilda nemis sharqshunos olimi E.Zaxay, Abu Rayhon al-Beruniyning "Al-osor al-baqiya an al-qurun al-holiya" ("Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar", Yevropada "Xronologiya" deb atalgan) asarining arabcha nusxasini Leypsigda nashrdan chiqarib, 1879 yili ushbu qo'lyozmaning ingliz tilidagi tarjimasini nashr etadi [2:13]. Shu tariqa, birinchi marta Yevropa olimlari buyuk xorazmlik allomaning kitobida yoritilgan qadimiy Xorazmning islomgacha bo'lgan davrlardagi urf-odatlar, e'tiqodlar,

taqvimiy bayramlar va marosimlar to'g'risida ma'lumotlar bilan tanishib chiqishadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Xorazm tarixi va madaniyatiga doir ma'lumotlar turli manbalarda o'z aksini topgan. Maqolada o'lkashunoslarning joylarda kuzatuv va mahalliy aholisidan so'rov uslubi orqali qadimiy obidalarni tekshirish, moddiy va ma'naviy madaniyatga oid ma'lumotlarni yig'ib olish qatorida, ilk bor arxeologik tadqiqotlar amalga oshirildi. Voha tarixiy-madaniy merosining o'rganilish tarixi tarixiy-qiyosiy, xolislik metodlari asosida tahlil qilinadi.

Tahlil va natijalar. O'rta asrlar Xorazm vohasi tarixi va madaniyatini o'rganishda IX-XIII asrlarda arab-fors tillarida (At-Tabariy, al-Istaxriy, ibn Xavkal, al-Maqdisiy, Yoqut va boshqalar tomonidan) yaratilgan manbalar XIII-XIV asrlarga oid yevropalik sayyoh, savdogar va missionerlarning (Nikolo va Maffeo Polo, Plono Karpini F.B.Pegolitti) ma'lumotlari. Amir Temur va temuriylar davri mualliflarining (Nizomiddin Shomiy, Sharafiddin Ali Yazdi, Hofiz Abru) asarlari katta ahamiyatga ega. Ularda Xorazmning karvon yo'llari bo'ylab joylashgan karvonsaroylar, rabotlar va shaharlar, mahalliy aholining moddiy va ma'naviy hayoti to'g'risida qimmatli axborot keltirilgan. Bu manbalar Xorazmning boy tarixiy-madaniy o'tmishi haqidagi bilimlarning rivojlanishiga katta hissa qo'shgan va tadqiqotchilar tomonidan yuqori baholangan [3:13-16]. Xiva xonligi tarixi va madaniyatiga oid manbalar

orasida Abulg'oziy Bahodurxonning "Shajarai turk" asari alohida ahamiya kasb etadi. Mazkur asarda ijtimoiy va siyosiy tarix yoritilishi qatorida, Xorazmning tarixiy rivoyatlari, xalq afsonalari va etnik dostonlar hamda turk qabilalar shajarasi to'g'risida ma'lumotlar katta joy olgan [4:126]. Tadqiqotchilar Abulg'oziy Baxodurxonni Xorazm tarixshunosligi asoschisi deb hisoblashadi va uning asari ko'plab sharqshunoslar diqqatini jalb etib, turli tillarda nashr etilgan [5:125].

Xiva xonligi so'nggi davrlar tarixini o'rganishda Munis, Ogahiy va Bayonoyning asarlari alohida e'tiborga loyik [6:102].

XVI asrning ikkinchi yarmidan Xiva xonligining Rossiya bilan o'zaro iqtisodiy aloqalarining rivojlanish savdo va diplomatiya, elchilik missiyalar almashinuvi jarayonlari boshlanadi.

Xos jihatlari shundaki, XVIII asrdan boshlab, Rossiyadan Xivaga tashrif buyurgan elchilar, diplomatlar va sayyohlarning maqsadlari ichida Xiva xonligida olib boruvchi karvon yo'llarining ahvoli, ular bo'ylab joylashgan quduqlar, mudofaa inshootlari, Amudaryodan kechuvlar va boshqa harbiy-strategik ahamiyatga ega axborotni yig'ish, Xorazm vohasi aholisining urf-odatlarini yaxshiroq bilib olish kabi vazifalar muhim ahamiyat kasb etgan.

Shu sababli, Xivaga kelgan elchilar F.Beneveni (1725 y.), D.Gladishev va I.Muravin (1740-1741), D.Rukovkin (1753), N.I.Muravyev (1819-1820), G.I.Danilevskiy (1843) va boshqa diplomatlarning axborotlarida xonlik aholisining turmush-tarzi, xo'jaligi, ijtimoiy munosabatlari, hunarmandchilik ishlab chiqarishining ahvoli haqida etnografik xususiyatga ega ma'lumotlar keltirilgan [7].

Xususan, etnografik kuzatuv natijalari jihatidan N.I.Muravyevning kittobida anchagina ma'lumotlar bayon etilgan, shuningdek bu asar fransuz va nemis tillariga tarjima qilib, sharqshunos V.V.Bartoldning yozishiga, mazkur kitob ko'p yillar davomida yevropalik o'quvchilar uchun xonlik davri Xorazm vohasi to'g'risidagi "yolg'on ma'lumot manbai bo'lib qoldi" [8].

Rossiya elchilari va diplomatik missiyalari axborotlaridan olingan parchalar muhim ma'lumotlar sifatida alohida e'lon qilingan, [9] shuningdek, ular Rossiya imperiyasi va Xiva xonligi o'zaro munosabatlari tarixiga oid yangi tadqiqotlarda talqin qilingan [10].

Etnografik mazmunidagi ma'lumotlar haqida shuni ta'kidlash joizki, Xorazm vohasida tarixiy rivoyatlar va xalq afsonalari avloddan-avlodga o'tib kelgan va ularga doir bilimlar uzoq o'tmishda paydo bo'lib, turli-tuman manbalarda bayon etilgan. O'z paytida al-Beruniy rivoyatlarni o'rganish ishning oson emasligini aytib, shunday yozgan: "...u rivoyatlarning davrimizgacha eng yaqin va eng mashhurini, so'ngra yaqinroq va mashhurrog'ini birin-ketin olib borishimiz lozim, ularni o'z arboblardan qabul qilib, tuzatish mumkin bo'lganini tuzatamiz, boshqalarini o'z holicha qoldiramiz [11].

Buyuk olimning yozishicha, xorazmliklar "Xorazmga odamlar joylasha boshlaganidan tarix olar edilar, bu Iskandardan to'qqiz yuz sakson yil ilgari bo'lgan edi. Undan keyin Siyovush ibn Kaykovusning Xorazmga kelishidan, Kayxusrav va uning naslining Xorazmda podshohlik qilishlaridan tarix oldilar" [12]. Ushbu hukumdorlar ro'yhatida qadimiy podshohlar sulolasi-kaviylar (kayoniylar) vakillari tilga olingan. Ular dastlab "Avesto" da qayd qilingan [13].

Ma'lumki, arablar yurishlaridan ilgari, xorazmliklar yozuv madaniyatiga ega bo'lib, Xorazm vohasida yozma adabiyot ham rivoj topganligi ehtimoldan holi emas. Al-Beruniy o'zining asarida, arab lashkarboshchisi Qutayba ibn Muslim, yozuv madaniyat an'analari saqlab qolgan xat-savodli xorazmliklarni o'ldirgani to'g'risida quyidagilarni yozadi: "Qutayba Xorazm xatini yaxshi biladigan, ularning xabar va rivoyatlarini o'rgangan va bilimni boshqalarga

o'rgatadigan kishilarni halok etib, butkul yo'q qilib yuborgan edi" [14]. Shu boisdan, tarixiy ildizlarga ega bo'lgan rivoyatlar og'zaki hikoya shaklida ham rivojlanib, afsonaga aylangan va o'zgarishlarga uchrab turgan.

Misol tariqasida, XVII asrda irod qilgan balxlik geograf olimi Mahmud ibn valining asarida Xorazm nomining kelib chiqishi "xva"- baliq va "razm" - butazor kabi so'zlarga asoslangan holda talqin qilingan shuningdek, Kayxusrav va Afrosiyob o'g'li Shida o'rtasida yuz bergan jang joyining nomi "xvar"- manfur va "razm" - jang tushunchalari bilan bog'langan [15].

1851 - yili Xivaga kelgan Eron elchisi Rizoqulixon Hidayot o'zining xotiralarda Xorazm atamasining vujudga kelishini Kayxusrav va Shida jangi talqinida biroz boshqacha yoritadi: "fors tilida "xor" so'zi "yengil, oz, oson, qiyinchiliksiz va zahmatsiz" degan ma'nolarni bergani uchun, Kayxusrav "u zaminda xor (oson) razm (jang) bo'ldi degan" va shu xulosani davomida xorazmliklar kelib chiqishiga oid shunday afsonani keltiradi: "Hazrati Sulaymon payg'ambar alayhissalom zamonida bir parizod gunoh ish qilib qo'yibdi. Hazrati Sulaymon qo'li ostidagi bir devga "buni hech bir qishlog'i va kimsasi bo'lmagan biyobon bir cho'lga eltib tashla", deb buyuribdi. Dev uni Xorazm sahrasiga keltiribdi, ammo shunday go'zal parini yolg'iz qoldirishni istamay, qaytib ketish fikridan qaytibdi. Shu yerda abadiy qolib, pari bilan birga yashay boshlabdi. O'sha dev va paridan farzindlar dunyoga kelibdi" [16]. Mazkur afsonalar mahalliy aholisining og'zaki ijodi bo'lib xorazmliklar orasida saqlanib qolgan.

Bunga o'xshash afsonalar o'rta asrlar davri geograflari (al-Maqdisiy, Yoqut, Kazviniy) asarlarida ham keltirilgan, biroq ularga nisbatan Rizoqulixon Hidayot o'z zamonining mashhur shoiri va adibi bo'lgani uchun Xorazm xalq afsonalarini yorqin badiylashtirib yoritgan.

1863 - yili Venger sharqshunosi A.Vamberi Makkadan qaytayotgan darveshi sifatida Xivaga kelib, eski-tuski kiyimda mahfiy sayohat qilgan va shu tariqa kuzatuv uslubining durust imkoniga ega bo'lgan. Uning asari dastlab ingliz tilida nashr etilgan, shuningdek rus tiliga tarjima qilingan [17]. A.Vamberi Xorazm vohasida madaniy muhit, qadimiy qal'alar, afsonalar, urf-odatlar va boshqa ma'lumotlarni tasvirlab bergan.

1873 - yilda rus qo'shinlari Xivani bosib oladi. Bosqin arafasida Rus geografik jamiyati tomonidan Xiva xonligini geografik, etnografik va madaniy-tarixiy jihatdan tadqiq etish rejasini tuzish V.V.Grigorev va P.I.Lerxning zimmasiga yuklatilib bu reja alohida hujjat sifatida e'lon qilingan [18].

Rossiyaning turli soha mutaxassisarlari, shu jumladan, sharqshunolari Xiva xonligining hududi, tabiiy-geografik sharoiti, aholisi, shaharlari, tarixiy yodgorliklari va mdaniyatini bevosita o'rganish imkoniga ega bo'lishadi. Ehtimol, shu sababi, 1873 - yilning o'zida bir qator risola va maqolalar chop etildi [19].

A.L.Kun quyi Amudaryo hududida qadimiy qal'alarni o'rganishga xarakat qilib, xorazmliklarning afsonalarini yozib oladi [20] Sharqshunos N.I.Veselovskiyning Xorazm tarixi va madaniyatiga oid katta ishida, asosan, Xiva xonligining tarixi ochib berilgan [21].

XIX asrning 70-yillari-XX asr boshlarida sharqshunoslardan tashqari, rus harbiylari, topograflari, tuproqshunoslari va geograflarining tadqiqotlari natijasida o'ng va so'l sohil Amudaryo hududlarida joylashgan o'rta asrlar arxitektura yodgorliklari, karvonsaroylar va bir qator qadimiy qal'alar, jumladan, Tuproqqal'a, Jonbosqal'a, Ayozqal'a, Guldursun, Govurqal'a, Shohsanam va boshqalari to'g'risida ma'lumotlar nashr qilindi [22].

Bu davrda Xorazm vohasi janubida ayrim me'moray obidalarining buzulishi holati qayd etilgan. 1896 - yili "Okraina" deb nomlangan gazetada o'lkashunos N.S.Likoshinning Darg'onota yaqinida joylashgan XII asrga oid Dayaxotin karvonsaroyiga bag'ishlangan maqolasi e'lon

qilindi. Mualliflarning yozishicha, “atrofdagi ko'chmanchilar yodgorlikning devorlarini buzib, inshootning pishiq g'ishtlari shavqatsiz talon-taroj qilinmoqda” [23]. N.S.L Likoshin 1895 - yilda tashkil etilgan Turkiston arxeologiya havaskorlari to'garagi a'zolariga murojaat etib, yodgorlikda tadqiqotlarni amalga oshirishni taklif etgan. Ayni shu paytda Turkistonning turli viloyatlarida qadimiy qo'lyozmalar tilla va kumush eski tangalar, tasviriy san'at namunalari hamda qimmatbaho metallardan tayyorlangan buyumlarni tashqariga olib chiqish jarayoni keng rivojlangan edi. M.E.Massonning yozishicha, mahalliy moddiy va ma'naviy madaniyat boyliklarni yig'ib olish ishlarida xorijiy sayyohlar, sanoat agentlari va harbiylar faol ishtirok etishgan. Shuningdek, qadimgi qal'alar harobalarida hashamidor va qimmatbaho buyumlarni qo'lga kiritish maqsadida, arxeologiya vazifalaridan yiroq, talon-taroj qazishma ishlar olib borilgan. Turkiston o'lkashunoslari va arxeologiya havaskorlari to'garagining a'zolariga tarixiy yodgorliklarni o'rganishi uchun, Turkiston general-Gubernatorligi tomonidan mablag' ajratilmagan, ko'hna me'moray inshootlar ham ta'mirlanmagan.

Bizningcha, XIX asrning 70-yillari-XX asr boshlarini Xorazm vohasi tarixi va madaniyatini yozma manbalar asosida maxsus rejalar tuzib hududda kuzatuvlarni amalga oshirish, mahalliy aholisidan surishtirib ma'lumotlarni yig'ib olish uslubi orqali ilmiy o'rganishning birinchi bosqichi deb hisoblash mumkin. Mazkur davrda Xorazm vohasining tarixiy-madaniy o'tmishiga tegishli bilimlar nisbatan kengayib, to'plangan ma'lumotlar izchil va maqsadli nashr qilina boshladi. O'sha davr nashrlarida, tarixiy tadqiqotlar uslubi yetarlicha rivojlanmaganligi tufayli, noaniq bayon etilgan holatlar, isbotlab berilmagan munozarali masalalarning mavjudligi va xatolarga yo'l qo'yilganligi tabiiy edi. Ehtimol, shu sababli, amalga oshirilgan tadqiqotlarga mansub, quyidagi baholar ham bor: “bu ishga mutlaqo tayyorlanmagan kishilar-chor mustamlakachi amaldorlar va ofitserlar qo'lga topshirib qo'yildi...ularning birontasi ham ayrim yodgorliklarni va yodgorliklar gruppasini juda yuzaki ta'riflashdan nariga

o'tolmadi. Bu ta'riflar, aslini olganda, bizga hech narsa bermaydi” [24].

Haqiqatdan ham harbiylarning topografik ishi tarixiy tadqiqotlardan yiroq edi, shuning uchun yodgorliklarni keng ta'riflash-ular vazifasi bo'lmagan ammo shu harbiylarning hisobotlaridagi ma'lumotlar va ular tuzgan xaritalarda Tuproqqa'l'a, Jonbosqa'l'a, Ayozqa'l'a kabi va Xorazm vohasining boshqa yodgorliklarining joylashishi ko'rsatilib, keyingi davrlarda olib borilgan arxeologik qidiruv ishlariga, muhim axborot sifatida yordam bergan.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib, shuni aytib o'tmish joizki, XIX asrning 70- yillarida yevropalik sharqshunoslar yozma manbalar asosida Xorazm vohasi tarixi va madaniyatini ilmiy nuqtai nazardan yoritishga harakat qilganlar. Bundan avval Xiva xonligiga kelgan elchilar, diplomatik missiyalarining a'zolari va sayyohlarning asarlarida ma'lum darajada etnografik mazmunidagi ma'lumotlar keltirilgan. Xivaning Rossiya imperiyasiga qaramlik davrida, Xorazm vohasi tarixiy-madaniy yodgorliklarning topograflar, geograflar, sharqshunoslar va o'lkashunoslar tomonidan o'rganish imkoni paydo bo'lgan, ammo, bu davrda tarixiy tadqiqot usullari ishlab chiqilmagan edi.

XX asrning 20-30 yillarida o'lkashunoslarning joylarda kuzatuv va mahalliy aholisidan so'rov uslubi orqali qadimiy obidalarni tekshirish, moddiy va ma'naviy madaniyatga oid ma'lumotlarni yig'ib olish qatorida, ilk bor arxeologik tadqiqotlar amalga oshirildi.

Mazkur tadqiqotlar, ayniqsa, XX asr 40-yillarining ikkinchi yarmidan takomillashib, keng miqyosda olib borildi. Xorazm vohasi tarixiy-madaniy merosining o'rganish jarayonida arxeologlardan tashqari, etnograflar, manbashunoslar, tarixchilar, tilshunoslar, san'atshunoslar va arxitektorlar faol ishtirok etishdi. Ilmiy tadqiqotlarning natijalari to'plamlar, monografiyalar va ko'p sonli maqolalarda yoritildi. Shuningdek, tarixiy va etnografik mazmundagi tadqiqotlarda sobiq davrda ustunlik qilgan sinfiy yondashuv, materialistik qarashlar va ateistik g'oyalar hisobga olindi.

ADABIYOTLAR

1. Sachau E.Zur Geschichte und Chronologie von Khwarizm// Sitzungberichte der historischen classe der Kaiserlichen Academie der.Wissenschaften.-wien,1873.№4,6; Geiger W.Ostiranische Kultur in Altertum.-Erlangen,1882-S.29-30;Tomaschek W.Central asiatische Studien-Wien,1887-S.172-174.
2. Абдуллаев И. Беруний ва унинг “Қадимги халклардан қолган ёдгорликлар” асари // Абу Райҳон Беруний .Танланган асарлар.Т.І.- Тошкент : фан, 1968.- Б .13.
3. Толстов С.П. Древний Хорезм. Опыт историко-археологического исследования.-М.:МГУ,1948-С.13-16.
4. Абулғозий .Шажарайи турк/масъул муҳаррир Б.А.Ахмедов.-Тошкент.1992-126 б.
5. Луин Б. В., Муниров К.,Ртвеладзе Э. В.Хива тарихи тадқиқотчилар назарида//Хива минг гумбаз шаҳри.- Тошкент,1997-Б.-125.
6. Мунис ва Огахий.Фирдавс ул-иқбол /Араб ёзувидан табдил ва изоҳлар Ш.Воҳидов,И. Бекчанов, Н. Полванов.- Ташкент: Янги аср авлоди, 2010-520 б.; Баёний Мухаммад Юсуф.Шажарайи хоразмшоҳий.-Тошкент: Ғ.Ғулум номидаги адабиёт ва санъат нашриёти,1994.-102 б.
7. Попов А. Н. Сношения России с Хивойю и Бухарою при Петре I // Русского Географического общества-СПб., 1853.№ 9- С. 237-453;
8. Бартольд В В История изучения Востока в Европе и России /Соч. Т.IX.-М .1977-С.443 .
9. История Узбекистана в источниках.Известия путешественников, географов и ученых XVI- первой половины XIX века / Составитель Б.В Луин. –Ташкент.1989-256 С.
10. Гуломов Х. Г. Дипломатические отношения государств Средней Азии с Россией в XVIII-первой половине XIX века.- Ташкент: фан, 2005.-333 С.;Аллаев Н. Хива хонлигининг дипломатияси ва савдо алоқалари (XVI-XIX асрлар).- Ташкент: Akadem nashr, 2019.
11. Абу Райҳон Беруний. Қадимги халклардан қолган ёдгорликлар / танланган асарлар. Т. Т. – Ташкент: Фан, 1968.-Б. 41.
12. Абу Райҳон Беруний. Қадимги халклардан қолган ёдгорликлар... Б.71.
13. Сағдуллаев А. Қадимги Ўзбекистон илк ёзма манбаларда.- Ташкент: Ўқитувчи, 1996. –Б.24-25.
14. Абу Райҳон Беруний. Қадимги халклардан қолган ёдгорликлар... Б.72.
15. Махмуд ибн Вали. Море тайн относительно довлестей благородных (география) / В ведение и перевод Б. А .Ахмедова. -Ташкент: Фан,1977.- С. 43-44.
16. Ризоқулихон Ҳидоят. Сафоратномаи Хоразм/ форс тилидан таржимон И. Бекжонов.- Ташкент: Янги аср авлоди, 2009-Б. 153-155 .

17. Вамбери А. Путешествие по Средней Азии/ перевод с английского.-СПб.: 1865.-221С.
18. Вопросы предлагаемые Географическим обществом при исследовании Хивинского ханства...в географическом этнографическом и культурно-историческом отношениях // Известия Русского географического общества. Кн.IX.-СПб.,1873.- С.43-73.
19. Баёний Мухаммад Юсуф. Шажарайи Хоразмшохий... Б.53.
20. Иванин М. И. Хива.-СПб., 1873.-64 С.; Бутаков А. В .Несколько страниц из истории Хивы // материалы по статистике Туркестанского края. Вып. 2.-СПб., 1873.-С. 408-411; Кун А.Л .Заметки о Хивинском ханстве // Туркестанские ведомости. – Ташкент, 1873. № 40; Венюков М. И. Население Хивы // Известия Русского географического общества. Т. IX. Вып.10.- СПб.,1873.-С.379-389.
21. Кун А. Л. Культура оазиса низовьев Аму-Дарьи // Материалы для статистики Туркестанского края.Вып. 4.- СПб., 1876.-с. 214-257 .
22. Веселовский Н. И. Очерк историко-географических сведений о Хивинском ханстве от древнейших времен до настоящего.-СПб., 1877.-364 С.
23. Кун А. Л. Культура оазиса низовьев Аму-дарьи...С. 255-256; Каульбарс А.В. Низовья Амударьи ,описанные по собственным исследованиям в 1873 г.// Записки Русского географического общества.Т. 9.- СПб., 1881.- С. 15-32;Сборник маршрутов по Туркестанскому военному округу составленный полк Родионовым –Тошкент, 1907.- С. 89; Россикова А. Е. По Амударье от Петро-Александровска до Нукуса // Русский Вестникю.-СПб, 1902.-С .641-643; Герасимовский А. И .Древности Хивы и Амударьинского отдела // Исторический вестник.- СПб., 1909 (Вып.XVII).- С. 971-973 .
24. Толстов С. П. Қадимги Хоразм маданиятини излаб.- Тошкент: фан ,1964.- Б. 19-20



Elbek RASULOV,
Farg'ona davlat universiteti magistranti
Elbekrasulov777@gmail.com

Tarix fanlari doktori, professor B.Usmonov taqrizi asosida

HISTORY OF THE 18TH CENTURY KOKAND KHANATE

Annotation

It covers the political processes during the formation of the Kokand Khanate, the history of the formation of the Kokand Khanate, the return of the entire history of the Kokand Khanate in the XVIII century in historical data, general information about all the periods of the Kokand Khanate in this century. The works of palace historians, local authors and Russian and European tourists visiting the khanate provide information about the study of the Kokand khanate.

Keywords: historiography, "Golden Cradle", Chodak Khojas-the process of establishing the Kokand Khanate, rulers of the Kokand Khanate: Shohruhbiy, Abdurahimbiy, Abdulkarimbiy, Abdurahimbiy, Erdonabi, Norbotabi.

ИСТОРИЯ КОКАНДСКОГО ХАНСТВА XVIII ВЕКА

Аннотации

Он охватывает политические процессы во время образования Кокандского ханства, историю образования Кокандского ханства, историю Кокандского ханства в XVIII веке, все периоды Кокандского ханства в этом веке. В трудах дворцовых историков, местных авторов, российских и европейских туристов, посещающих ханство, рассказывается об изучении Кокандского ханства.

Ключевые слова: источниковедение, "Золотая Колыбель", Ходжа Чодак процесс образования Кокандского ханства, правители Кокандского ханства: Шахрухби, Абдурахимбий, Абдулкаримби, Абдулрахимбий, Эрдонабий, Норботабий.

XVIII ASR QO'QON XONLIGI TARIXI

Annotatsiya

Qo'qon xonligi vujudga kelishi davridagi siyosiy jarayonlar, Qo'qon xonligi tashkil topish tarixi, Qo'qon xonligining butun XVIII asri tarixini tarixiy ma'lumotlarda qayd qilinishi, Shu asrda hukmdorlik qilgan barcha Qo'qon xonlari davrlari haqida umumiy ma'lumotlar yoritilgan. Saroy tarixchilarining asarlari, mahalliy mualliflar va xonlikka tashrif buyurgan rus va Evropalik sayyohlar tomonidan Qo'qon xonligini o'rganilishi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Manbashunosligi, "Oltin Beshik", Chodak xo'jalari Qo'qon xonligi tashkil topish jarayoni, Qo'qon xonligi hukmdorlari: Shohruhbiy, Abdurahimbiy, Abdulkarimbiy, Abdurahimbiy, Erdonabi, Norbotabi.

Kirish. Qo'qon xonligi manbashunosligi. Qo'qon xonligi XVIII-XIX asrlarda rivojlangan hudud sifatida doimo olimlarning e'tiborini jalb qilgan. Farg'ona vodiysi haqida ko'plab tarixchilar qiziqarli tarixiy ma'lumotlarni o'z asarlarida qayd qilganlar. Farg'ona vodiysidagi XVIII-XIX asrlar tarixi ko'pgina tadqiqotchilar asarlaridan joy olgan. Ular yashagan va ijod qilgan vaqtga qarab mavjud manbalarni shartli ravishda bir necha davrlarga ajratish mumkin: 1. Saroy tarixchilarining asarlari; 2. Mahalliy mualliflarning xonlik tarixini ozida aks ettirgan asarlari; 3. XVIII-XIX asrlar davomida xonlikka tashrif buyurgan rus va yevropalik sayyohlar, harbiylar, elchilar va savdogarlarning safarnoma va esdaliklari; 4. arxiv hujjatlari.

Qo'qon xonligi haqidagi manbalar ichida eng asosiylari sifatida, shubhasiz, o'sha davr yoki o'sha davrga yaqin davrda yashab ijod etgan tarixchilar tomonidan yozilgan asarlarni olishimiz mumkin. Bunday asarlar qatoriga Muhammad Hakimxon To'raning "Muntaxab at-tavorix" [1], Isxoqxon-Ibratning "Farg'ona tarixi", Xudoyorxonzoda qalamiga mansub "Anjum at-tavorix" [2] ("Tarixlar yulduzi") Mullo Olim Maxdumxojaning "Tarixi Turkiston" [3] va shu kabi tarixiy asarlarni misol qilib olishimiz mumkin. Bu asarlarda xonlikning tashkil topishi, ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli, harbiy yurishlari va hukmdorlari faoliyatiga oid ma'lumotlar uchraydi.

Qo'qon Xonligi tashkil topishi. Temuriylar davridagi siyosiy inqiroz paytidagi holatdan unumli foydalangan Shayboniyxon o'z davlatiga asos solidi. Bu davlat vorislari

davridan rasmiy ravishda Buxoro xonligi nomini oldi. Buxoro xonligida shayboniyar sulolasi 1601-yilgacha hukmronlik qilishdi. Shu yildan boshlab Shayboniyar sulolasiga begona bo'lmagan Ashtarxoniylar sulolasi hokimyat tepasiga keldi. Dastlab bu sulola vakillari davlatni nisbatan yaxshiroq boshqarishgan bo'lishsa-da, keyingi hukmdorlar davrida davlatning iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy inqirozi kuchayib bordi. Bu hol o'z navbatida buxoro xonligi tarkibidagi hududlarning ajralib chiqishiga zamin yaratdi. Farg'ona vodiysini Muhammad Shayboniyxon 1504-yil-da o'z hududiga qo'shib olgan edi va Farg'ona buxoro xonligi hududi bo'lib keldi.

Yuqorida aytganimizdek XVIII asr boshlariga kelib Buxoro xonligida umumiy siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy ahvol shu qadar keskinlashdiki, bu davrda Ashtarxoniylardan Samarqand, Balx va bir qator hududlar mustaqil bo'lib olgan edilar va bunday imkoniyatdan Farg'onadagi siyosiy kuchlar foydalanib qolishga urinishdi. Qo'qon xonligi tarixi haqida fikr yuritganda eng avvalo yodimizga mahalliy mualliflar tomonidan yozib qoldirilgan "Oltin beshik" afsonasi keladi. Xo'sh "Oltin beshik" afsonasi mazmuni nima va u qanchalik tarixiy haqiqatga ega? degan savollar tug'ilishi tabiiy. Ushbu afsonaning mazmuni quyidagicha: Zahiriddin Muhammad Bobur Shayboniyxondan yengilib, Hindiston tomon ketayotib, safar asnosidaxotini tug'adi yer (manbalarda Farg'ona hududi deb ko'rsatiladi). Safarni go'dak bilan davom ettiraolmasligi uchun Bobur bu yerga go'dakni javohirlar bilan beshigi bilan bir yigitni qorovul qilib tashlab ketadi [1]. Bu atrofda

yashagan uch o'zbek qabilasi bolani o'zlariga oladilar. Buni bir ayolga topshiradilar va unga Oltin beshik ismini qo'yadilar. Voyaga yetgach, uni bir qizga uylantiradilar bu nikohdan Sulton Edik (yoki boshqa manbalarda Ilik) ismli farzand tug'iladi. Undan Xudoyor ismli farzand qolgan, undan esa Abulqosim, undan esa Shohmastbiy, ikkinchi ismi esa Jamoshbiy, Shohmastbiy, Jamoshbiydan Shohruhbiy va undan Hojibiy, undan esa Ashurbiy tug'ilib, Ashurbiydan esa bizga mashhur Shohruhbiy tavallud topgandir. Oltin Beshik bilan Qo'qon xonligiga asos solgan Shohruhbiy orasida 10 taavlodalmashgan. "Oltin beshik" haqidagi afsona haqida B. M. Babadjanov [2], V. V. Nalivkin [3] va Xudoyorxonzoda [4] asarlarida batafsil ma'lumot berilgan. Oltin Beshik haqidagi afsonaning qisqacha mazmuni shunday. Aslida bu afsona bilan Zahiriddin Muhammad Boburning hech qanday aloqasi yo'q. Qo'qon xonligining tashkil topishida Ming urug'ining muhim o'rin tutganligi, uning dastlabki vakillarixususida ilmiy tadqiqotlarda ham, qo'lyozma manbalarda ham turlicha qarashlar mavjud.

1709-yilda O'zbeklarning ming urug'i yetakchisi Shohruhbiy taxtga keladi va mustaqil Qo'qon xonligiga asos solinadi. Poytaxt sifatida Xo'qand [5] shahrini tanlagan. Ho'qand o'rnida yangi qal'a, qo'rg'on va saroy, ya'ni o'rdaqurdirgan. Shundan keyin Shohruhbiy taxtga ko'tarish marosimi bo'lib o'tgan. Uning qasri Eskiqo'rg'on dan Qo'qonga ko'chiriladi. Shohruhbiydan keying xonlar ham Ming sulolasi vakillari bo'lishgan. Bu sulola vakillari Qo'qon xonligini 1876-yilgacha idora qilishgan. Bu davr haqida ko'plab manbalar bor.

Qo'qon xonligi hukmdorlari. Aynan Shohruhbiyning taxtga kelgan yili haqida "Ansob us-salotin tavorixi al-xavoqin" asarida: "Shohruhbiy ko'k to'nluk otada bir qal'a barpo etdi va u yerda 1121 yilda (milodiy 1709-1710yillarga to'g'ri keladi) taxtga o'tirdi. Shohruhbiyning 12 yillik hukmronligidan so'ng hijriy 1133-yil, milodiy 1721-yil 52 yoshida vafot etgan. U Namanganda vafot etganligi uchun uni shu yerdagi Sari- Mozor degan qabristonga dafn etilgan. Shohruhbiydan uch farzand qolgan: Abdurahimbiy, Abdulkarimbiy, Shodibiylar va ismlari noma'lum bo'lgan ikki qiz qolgan. Otasining o'rnigataxtga Abdurahimbiy o'tiradi. Abdurahimbiy hijriy 1110-yil, milodiy 1690-yilda tug'ilgan. 1722 - yil 1-yanvar kuni Qo'qon taxtiga o'tiradi. Abdurahimbiy taxtga o'tirgach, dastlab, o'ziga yangi poytaxt hududini tanlaydi. U o'ziga Dehqon-to'da degan joyda qal'a qurdiradi. Abdurahimbiy manbalarda saxovatli hukmdor sifatida nom qoldirgan. U harbiy yurishlar orqali Davlat hududini kengaytirish yo'lidan bordi. 1725-yilda 20 ming kishilik qo'shin bilan Xo'jandni zabt etadi. Xo'jandni egallagach, u yerga hokim qilib ukasi Abdulkarimbiy, kichik ukasi Shodibiyni esa Marg'ilon hokimligiga tayinlaydi. Xo'jandni bosib olgandan bir yil keyin O'ratepaga yurish qilib, u yerni bosib oladi. Oradan olti yil o'tgach 1732-yilda Samarqandga yurish qilgan. Shahar bir necha kunlik qamaldan keyin taslim bo'ladi. Shu yili Samarqandda Buxoroxoni va Abdurahimbiy o'tasida sulh tuziladi. Sulhga ko'ra, Samarqand va Kattaqo'rg'on Qo'qon xonligi ta'sirida deb tan olinadi, evaziga Abdurahimbiy u yerdan u yog'iga o'tmaslik majburiyatini oladi. Taxminan 3 yoki 6 oydan so'ng buxoro yana samarqandni qaytarib oladiva Abdurahimbiy Samarqandga qaytishga majbur bo'ladi. Lekin Xo'jandda kasallikka chalinib, U yerda vafot etadi. Abdurahimbiydan Erdona ismli o'g'il va 3 qiz qoladi.

Abdurahimbiy vafotidan keyin taxtga Abdulkarimbiy o'tirgan. Abdulkarimbiy 1703-yilda tug'ilgan. Abdurahimbiy 30 yoshida yani 1733-yilda taxtga o'tiradi. Hukmronligining dastlabki olti yilida otalaridan qolgan Tepaqo'rg'on da istiqomat qilgan. Akasi davridagi ma'murlarni birortasini ham amalidan olmagan. Hukmronligining oltinchi yilida u shahar markazida Ark qurdirgan. Shahar atrofini devor bilan

o'rattirgan. Shahar to'rt darvozali bo'lgan. Bular quyidagicha nomlangan Isfara, Qatag'on, Marg'ilon va Haydarbek. Abdulkarimbiy 1750-yilda vafot etadi. Undan bir o'g'il farzand -Abdurahmonxon qolgani ma'lum, xolos.

Abdulkarimbiy o'rniga taxtga o'g'ili Abdurahmonbiy o'tqaziladi. Lekin oradan to'qqiz oy o'tgach, u taxtdan tushirilib, Marg'ilon hokimligigayuboriladi va Erdonabi taxtga o'tqaziladi. Erdonabi 1720-yilda tug'ilgan. U o'z singlisi Oyjon oyimni taxtning muxolifi bo'lgan Abdurahmonbiyga turmushga beradi. Erdonabi bu yo'l bilan birinchidan, taxtni regent sifatida boshqarish, ikkinchidan esa sulolaning Temuriylarga bog'lash yo'lidagi legitimatsiyani amalgaoshirish bo'lgan.

Hukmronligining dastlabki davrida Erdonabi qabilalarni tinchlantirish, ya'ni, tashqi ekspansiyani qabilalar bilan birgalikda amalgaoshirgan. U dastlab O'ratepaga yurish qiladi. Lekin mag'lubiyatga uchraydi. Bir yildan so'ng Erdonabi Fozilbiydan Xo'jandni qaytarib oladi. Shundan so'ng darhol O'ratepaga yurish boshlab, u yerni bosib oladi. U yerda juda katta qirg'in uyushtiradi. Yuzlarga nisbatan bunday vahshiyliklar nafaqat Erdonabiya raqiblarini, balki uning yaqinlarini ham hushyor torttirib qo'ydi. Erdonabi birinchi navbatda o'zigaxavf sifatida amakivachchasi Abdurahmonbiy (Abdulkarimbiyning o'g'ini)ni ko'radi. Abdurahmonbiy Isfara qal'asida o'zining mustaqilligini e'lon qiladi. Erdonabi va raqibi o'rtasidagi kurash 7 yil davom etadi. Oxir-oqibat Erdonabi Abdurahmonbiyning o'zaro kelishuv uchun Qo'qonga taklif etib, uning hayotiga xavf yo'qligiga kafolat beradi. Lekin hiyla bilan uni opasi bilan birga qatl etishga muvaffaq bo'ladi. Otasi qatl etilgan kuni o'g'li Norbo'tabiy buvisi Oyuchuk oyim bilan bo'lganligi sababli o'limdan qutulib qoladi va Shahrisabzga ketib, taxtga chiqquniga qadar u yerda yashaydi. Abdurahmonbiy qatl etilgach, uning butun mulki ham musodara qilinadi. Undan uch o'g'il qolganligi ma'lum, ulardan Norbo'tabiy Kenagas oyimdan (Ochuchuk oyimning qizi Oyjonoyim nazarda tutilayapti), Shohruh va Hojibeklar chorkuh qabilasidan bo'lgan xotinidan tug'ilgan farzandlari edi. Qo'qon xonligi qonuniy taxt vorisi o'ldirilganda taxminan 23-25 yoshlarda edi. Norbo'tabiy Shahrisabzda ikki yilga yaqin yashagan va shundan so'ng O'ratepaga keladi. Fozilbiy esa uni Qizli qal'asi hokimi etib tayinlaydi.

Bu paytda Erdonabi O'ratepa va Xo'jandni qaytarib olish, Farg'ona vodiysining g'arbiy tomonidagi raqiblari isyonini bostirish uchun kurash boshlasa-da, bunga muvaffaq bo'laolmadi. Uning hukmronligi oxirgi yillarida O'rta O'rda yerlariga Xitoy qo'shinlari bostirib kiradi va Jung'or xonligi mag'lubiyatga uchratiladi. Xitoyliklar Toshkentga shimol tomondan yurishlarini davom ettirib, sharqda O'shni bosib oladilar. Andijon, Marg'ilon va Namangandagi mahalliy hokimlar Sin suzerenligini rasman tan oladilar. Hatto Erdonabi ham so'zda suzerenlikni tan olishga majbur bo'ladi. Lekin bu suzerenlik o'zaro elchilik va sovg'alar jo'natish bilan cheklangan.

Erdonabiyning hukmronligi davrida amalgaoshirgan eng muhim ishi Xitoyga qarshi O'rta Osiyo davlatlarining rasman bo'lsa-da ittifoq tuzishi edi. Taxminan 1758-yilda amalgaoshirilgan bu ish Xitoyning O'rta Osiyoga yurishini to'xtatgan. Shu bilan birgalikda, Erdonabi davrida Farg'ona vodiysida davlatchilik asoslarini shakllantirish siyosati ham davom etgan. Masalan, Erdonabiyning ichki siyosati, xususan, soliq tizimi boshqaruvi borasida olib borgan siyosati mamlakat fuqarolariga yengilliklar yaratish bilan bir qatorda ularning davlatga va hukmron doira vakillariga bo'lgan ishonchining ortib borishigaxizmat qildi. Bu hukmdorning soliq undirishga mutasaddi amaldorlar o'boshimchaliklariga qarshi ko'rgan chora-tadbirlari natijasida soliq tizimi tartibga solindi. "Tarixi Shohruhiy" asarining muallifi bergan ma'lumotlarga ko'ra, Erdonaxon o'rtacha,

ya'ni "foydali kelishuv" tarzida soliq olgan amaldorlarni qattiq jazolagan. Erdonaxonning bu harakatidan uning ma'muriy-boshqaruv tizimidagi xizmatchilarning mansabini o'z maqsadi yo'lida suiste'mol qilishlariga va boshqaruv tizimidagi ta'magiriklik, poraxo'rlikka qarshi qattiq kurash olib borganligini anglash mumkin. Erdonabiy 1762-yil 43 yoshida vafot etgan. Erdonabiydan o'g'il farzand qolganligi haqida hech qanday ma'lumot yo'q. "Erdonaxon o'n to'rt yil hukmronlik qilgan, qirq ikki yoshida narigi dunyoga ko'chgan" [4]. Erdonabiyning necha yil taxtda o'tirgani va qancha vaqt hukmronlik qilgani haqida "Muntaxab at-tavorix" asarida esa boshqacha ma'lumot berilgan: "Umri muddati o'tiz olti yil, hukmronlik davri o'n yil bo'ldi". Undan beshta qiz farzand qolgan.

Erdonabiyning vafot etishi taxta uchun kurashning boshlanishi va siyosiy parokandalikkaolib kelishi mumkin edi. Shuning uchun saroy amaldorlaridan biri, Norbo'tabiy otasining qotili Irisqulibiy Sulaymonbiyini taxtga o'tqazadi. Sulaymonbiyning otasi Shodibiy yoshlik chog'larida ko'chmanchilar bilan bo'lgan Yozyovondagi jangda halok bo'lgan. Mamlakat zodagonlari o'zaro kelishib, taxtga Shodibiyning 30 yoshli o'g'ili Sulaymonxonni taxtga o'tqaziladi. U taxtga nomunosib shaxs bo'lib, vaqtini o'yin-kulgi bilan o'tkazgan. Bunday shaxsning taxtda uzoq vaqt qolishi mumkin emasdi. Shuning uchun ba'zi manbalarga ko'ra, uch oy, ba'zi manbalarga ko'raolti oy taxtda o'tirgan. Saroy zodagonlari hatto uning regenti Irisqulibiyini ham fitnaga ko'ndiradilar. Shundan so'ng Sulaymonxon fitna natijasida o'ldirilib, taxtga 14 yoshli Norbo'tabiy o'tqaziladi. Yuqoridagi fikrlardan ko'rinadiki, O'rta Osiyoda taxtga o'tqazish masalasida ko'pincha mayorat tizimiga amal qilingan. Lekin taxtgao'tqazilgan hukmdor saroy amaldorlari bilan hisoblashmasa, u taxtdan ag'darilishi hech gap emas edi. Sulaymonbiyning taqdiri buni yaqqol ko'rsatadi. Sulaymonxonni fitna natijasida o'ldirilgach, taxtga 14 yoshli Norbo'tabiy o'tqaziladi. Norbo'tabiy 1749-yilda tug'ilgan. Norbo'tabiyning yoshlik yillari Qoratepa (Mo'yi Muborak mavzeida) qishlog'ida o'tgan. Norbo'tabiy yosh bo'lganligi uchun unga regent sifatida qarindoshi Abdulloh Qushbegi tayinlanadi. Norbo'tabiy regenti yordamida dastlab Chustni egallab, isyon boshlig'ini qatl ettiradi. Shundan so'ng Norbo'tabiy Namangana yurish boshlaydi. Bu yerdaotasining qotili Irisqulibiy boshchiligidaoppozitsiya mavjud bo'lgan. Lekin to'satdan Irisqulibiy hukmdorga elchi jo'natib sulhni taklif qiladi. Sulh garovi sifatida Norbo'tabiyga o'zining nevarasi Ming oyimni xotinlikka taklif etadi. Mingoyimning aristokratik kelib chiqishi Norbo'tabiyga o'rtadagi dushmanlikni unutishga majbur qiladi. Norbo'tabiy taklifni qabul qiladi va Mingoyimga uylanadi. Undan Olimxon va Umarxonlar (ularning ikkisi ham keyinchalik xonlik taxtida o'tirganlar) tug'ilgan.

Norbo'tabiyning hokimiyatini mustahkamlash va kengaytirish uchun kurashning ikkinchi davri Farg'ona vodiysining g'arbiy qismi - yana Xo'jand va unga chegaradosh bo'lgan O'ratepani egallash bilan davom etgan.

ADABIYOTLAR

1. Muhammad Hakimxon To'ra Masumxon. Muntaxab at-tavorix. Toshkent. Yangi asr avlodi. 2010
2. Xudoyorxonzoda. Anjum at-tavorix. Toshkent 2014
3. Mullo Olim Maxdumxoja. Tarixi Turkiston. Qarshi. Nasaf. 1992
4. Bu afsona haqidagi to'liq ma'lumotlarni Mulla Olim Maxdumxoja Toshkandiyning «Tarixi Turkiston», Isxoqxon-Ibratning «Farg'ona tarixi» va Muhammad Hakimxon To'raning «Muntaxab ut-Tavorix asarlarida keltirilgan»
5. Babadjanov B. M. Qo'qon xonligi: hokimiyat, siyosat, din. Toshkent-Tokio. 2010 yil.
6. Nalivkin V. Qo'qon xonligining qisqacha tarixi. Qozon. 1886 yil.
7. Xudoyorxonzoda. Anjum at Tavorix. Toshkent. 2014
8. "Xo'qand" shahri kelib chiqishi Ho'r-qand so'zlaridan tuzilgan bo'lib, qurilishi 1709-yil bilan bo'g'liq. Vaholanki Ho'qand shahri X asrda shu nom bilan mashhur bo'lgan. Ma'nosi esa "yaxshi", "latif" so'zlariga to'g'ri keladi. Xaydarbek Bobobekov. Qo'qon tarixi. Toshkent, "Fan", 1996. 268-bet
9. Mullo Olim Maxdumxoja. Tarixi Turkiston. Qarshi. Nasaf. 1992

Chunki, Xo'jand hokimi etib tayinlangan Hojibiy Xudoyorbiyga shaharni boy bergan edi. 1766-yil Norbo'tabiyningakasi Shohruhbiy vafot etadi. Uning o'rniga to'raqo'rg'on hokimi etib, Xo'jand hokimligini sharmandalarcha topshirgan Hojibiyi tayinlaydi. Hojibiy To'raqo'rg'onga kelishi bilan mayorat tizimiga ko'ra, sulolaning eng yoshi katta vakili sifatida Norbo'tabiyga nisbatan oppozitsiyasini e'lon qiladi. Norbo'tabiy o'zaro jangda Hojibiyi mag'lubiyatga uchratadi. Hojibiy dastlab Kosonga, undan keyin Chotqolga, keyinchalik esa Toshkentga ketadi. O'z akalaridan qutulgan Norbo'tabiy Samarqanddan ona tomonidan qarindoshi bo'lgan Xonxo'jani Samarqanddan chaqirtiradi va unga To'raqo'rg'on hokimligini beradi. Shu bilan Norbo'tabiyning hokimiyat uchun kurashining ikkinchi davri ham tugaydi.

1762-yil hokimiyat tepasiga kelgan Norbo'tabiy Qo'qon xonligida alohida iz qoldirgan. Shu tariqa mamlakat chegaralarini mustahkamlab olgach, Norbo'tabiy yana e'tiborini mamlakat xo'jalik sohasiga qaratadi. Norbo'tabiy davrida mamlakat xo'jaligi shu qadar rivojlanadiki, mamlakatda mo'l-ko'chilik bo'ladi. Natijadaxonlikda texnika ekinlari ham ekilishi yo'lga qo'yildi. Buning natijasida to'qimachilik va u bilan bog'liq kasb-hunarlar ham taraqqiy etadi. Surunkasiga bir necha yil davom etgan arzonchilik shu darajaga yetganki, bozordan oz miqdorda mahsulot xarid qilish imkoni bo'lmay qoldi. U davlat birligini mustahkamlabgina qolmasdan, xonlik tarixida birinchi marotaba mustaqil ravishda tanga zarb ettirdi. 1776-1777-yillarda Norbo'tabiy birinchi mustaqil tangasini zarb ettirgan. Uning zarb ettirgan falsi shu qadar katta qiymatga ega bo'lganki, bir falsga bitta qo'y bergan. Garchi, bu tanga qo'shnilarining bu kabi tangalaridan sifati, tarkibi jihatidan ancha past bo'lsada, xonlikning real suverniteti uchun qo'yilgan katta qadam edi. Tanga sifatining past bo'lishi va tarkibi Qo'qon xonligidagi iqtisodning hali u qadar rivojlanmaganligidan darak beradi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Buxoro Xonligining bir bekligi bo'lgan hudud XVIII asrdagi ijtimoiy-iqtisodiy va o'ta og'ir siyosiy inqiroz davrida alohida bo'lib ajralib chiqdi. Bu beklig keyinchalik tarix kitoblarida Qo'qon xonligi deb ataluvchi davlat bo'lib shakllandi. Buxoroning o'z hududiniqaytarib olishdagi urunishlari zoye ketti. Davlat yosh bo'lsada turli xil bosqinlardan omon o'ta oldi va hattoki sharqiy tomondan Xitoy sinlarining va g'arbiy tomondan Mang'it amirlarining tazyiqlariga dosh bera oldi va munosib qarshiliklar ko'rsata oldi. Bir so'z aytganda XVIII asrda tarixdagi o'zbek davlatchiligidagi ahamiyati ma'lum darajada bo'lsaham mavjud bo'lgan davlat tashkil topdi va bu davlat o'z hukmdorlarining oqilona siyosati tufayli XVIII-XIX asrlarda hududiy jihatdan eng O'rta Osiyoning eng yirik davlatiga aylana oldi. Bu davlatda ilm-fan ravnaq topdi o'z davrining buyuk shoirlari va shoiralari, tarixchilari ijod qildi. Qo'qon xonligi hunarmandchilik yuksak darajada rivoj topgan, dehqonchilik sohasida o'z mahsulotlari tufayli qo'shni davlatlarda nom qozona olgan davlat bo'lgan edi.



Ravshan SIDDIQOV,
O'zbekiston Milliy universiteti dotsenti, t.f.n
E-mail:ravsidd@mail.ru

O'zMU prof v.b,t.f.d (DSc) K.Saipova taqrizi asosida

O'ZBEKISTON OLIY TA'LIM TIZIMIDAGI DASTLABKI O'ZGARISHLAR VA UNI TUBDAN ISLOH QILISH VAZIFALARI (1991-1997 YY)

Аннотация

Mazkur maqolada Sovet davrining oxirgi yillarida oliy ta'limdagi ahvol va O'zbekiston mustaqillikka erishgandan keyin oliy ta'lim tizimidagi muammolarni hal qilishga qaratilgan o'zgarishlar, amalga oshirilgan islohotlarning yo'nalishlari, universitet ta'limining ustivorligini ta'minlash va ularni bo'lish, ixtisoslashtirish hamda hududiy lashtirish borasidagi ishlar tahlil qilingan. Shuningdek islohotlarni dastlabki natijalari va keyingi bosqichdagi vazifalar ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: Oliy ta'lim, ekstensiv rivojlanish, mustaqillik, universitet, islohotlar, kadrlar sifati, uzluksiz ta'lim, test sinovlari, bozor iqtisodiyoti, ilmiy salohiyat.

ПЕРВОНАЧАЛЬНЫЕ ИЗМЕНЕНИЯ В СИСТЕМЕ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ УЗБЕКИСТАНА И ЗАДАЧИ ЕЕ КОРЕННОГО РЕФОРМИРОВАНИЯ (1991-1997 ГГ)

Аннотация

В данной статье анализируется ситуация в сфере высшего образования в последние годы советской эпохи и изменения, направленные на решение проблем в системе высшего образования после обретения Узбекистаном независимости. Сделан обзор основных направлений реализуемых реформ, в частности, показана работа по обеспечению приоритета университетского образования, делению вузов, их специализации и регионализации. В статье также рассматриваются первоначальные результаты реформ и задачи последующих этапов.

Ключевые слова: Высшее образование, экстенсивное развитие, независимость, университет, реформы, качество кадров, непрерывное образование, тестовые испытания, рыночная экономика, научный потенциал,

INITIAL CHANGES IN THE HIGHER EDUCATION SYSTEM OF UZBEKISTAN AND THE TASKS OF ITS RADICAL REFORM (1991-1997YY)

Annotation

This article analyzes the situation in the field of higher education in the last years of the Soviet era and the changes aimed at solving problems in the higher education system after Uzbekistan gained independence. A review of the main directions of the ongoing reforms is made, in particular, work is shown to ensure the priority of university education, the division of universities, their specialization and regionalization. The article also discusses the initial results of the reforms and the tasks of subsequent stages.

Key words: Higher education, extensive development, financing, independence, university, reforms, quality of personnel, continuous education, tests, market economy, scientific potential.

Kirish. XX asrning oxirgi o'n yilligida O'zbekistonning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy hayotida bo'lgan tub o'zgarishlar, butun dunyoga globalashuv jarayonlarining keng yoyilishi, yosh davlat oldida turgan jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvning dolzarb vazifalari, respublika ta'lim tizimining isloh qilish va rivojlanishining ko'lamini hamda xarakterini belgilab berdi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Tarixchi tadqiqotchilar S.Sodiqov, K.Oqilov, Q.Usmonov va R.Qurbonovlar monografiya va dissertatsiyalarida ilk bor mustabid davri O'zbekiston oliy ta'lim tizimidagi mavjud ayrim kamchilik va muammolar qisman tahlil qilingan. Shuningdek, markaz tadqiqotchilari N.Xromenkov va V.Mironovning monografiyalarida sovet ta'lim tizimidagi kamchilik va nuqsonlar hamda 70 yillarda jahon ta'lim makonida boshlangan o'zgarishlar va tendensiyalarni inobatga olinmaganligi hamda uni oqibatlarini ko'rsatib berilgan [1].

Tadqiqot metodologiyasi. O'zbekistonda oliy ta'lim tizimidagi islohotlarining birinchi bosqichini yoritishda materiallarni tanlash va tasniflash, xolislik, tarixiylik hamda faktlar, fikr hamda xulosalarni qiyosiy tahlil qilish metodidan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Sovet hukumronligi davrida ta'lim tizimida ustuvor bo'lgan rivojlanishning ekstensiv yo'li 80-yillarda ta'limni barcha bo'g'inlari singari oliy ta'limda ham o'zining salbiy oqibatlarini namoyon qildi. Bunday ahvolni vujudga kelishining asosiy sabablari sovetlar davrida jamiyatda shakllangan boshqaruvning ma'muriy-buyruqbozlik tizimi edi. Shuningdek, paxta yakkaxokimligi davrida maktab o'quvchilari va oliy o'quv yurtlari talabalarining oylab qishloq xo'jaligi ishlariga jalb qilinishi, qishloq maktablarining moddiy texnika bazasining nochorligi, ta'lim tizimining barcha bo'g'inlariga salbiy ta'sir ko'rsatdi.

Markaz tomonidan 80-yillarning o'rtalarida boshlangan "qayta qurish" siyosati ta'lim-tarbiya sohasini ham qamrab oldi. 1987-yilda markaz tomonidan oliy va o'rta maxsus ta'limni isloh qilishga qaratilgan bir nechta qarorlar qabul qilindi. Ayni paytda, hujjatda sovet ta'lim tizimining konseptual-metodologik asoslarini qayta qurish, ta'lim tizimining barcha bo'g'inlarini jahon ta'lim makonidagi ilg'or tajribadan foydalangan holda isloh qilish masalalariga e'tibor berilmadi [2]. Mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy ahvolni yomonlashib borishi, oliy ta'lim va kadrlar tayyorlashning isloh qilish uchun yetarli moliyaviy-iqtisodiy imkoniyatlarni

cheklanganligi sohada keng ko'lamli tub o'zgarishlarni amalga oshirish imkonini bermadi.

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov respublika rahbari etib tayinlangandan so'ng ta'lim tizimidagi kamchilik va muammolarni bartaraf qilish boshlandi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, Islom Karimov 1990-yilda respublikada ilm-fan va ta'lim sohasining moddiy texnika bazasi, kadrlar tarkibi achinarli ahvolga tushib qolgan, bu sohalar "qoldiq" prinsipi asosida moliyalashtirilayotgan, jumladan, 1700 ta maktab binosi avariya holatida bo'lgan bir vaziyatda "Bizga kadrlar tayyorlashning maxsus, milliy dasturi kerak" degan fikrni bildirib - "Oliy o'quv yurtlarida mutaxassislar tayyorlash sistemasini qayta qurishni, bu sohaga kadrlar tayyorlashning buyurtma usulini joriy etishni: respublikaning yuqori malakali milliy mutaxassislarini tayyorlash uchun Ittifoqdagi va chet ellardagi eng yaxshi markazlarga yoshlarni yuborish sistemasini o'z ichiga olishi kerak" deb ta'kidlagan edi" [3].

O'zbekiston Respublikasi 1991-yil 31-avgustda mustaqillikka erishgandan so'ng mamlakatda ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy sohalarida bozor iqtisodiyotiga asoslangan demokratik davlatning qurishga qaratilgan tub islohotlar boshlandi. Ayni paytda O'zbekistonda yangi sharoitda ta'limning barcha bo'g'inlarini modernizatsiyalash davlat konsepsiyasi hamda kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirishning zamonaviy mexanizmi ishlab chiqilmagan edi.

Mamlakatdagi o'tish davridagi umumiy ijtimoiy-iqtisodiy, moliyaviy ahvolini inobatga olib, ikkinchidan o'tgan davrda erishilgan ta'lim potensialini saqlab qolish maqsadida ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimining isloh qilishni "muvozanatlashtirilgan" islohotlar yo'lini tanladi [4].

Dastlabki islohotlar 1991-yilda zamon talablari va respublika ehtiyojlaridan kelib chiqib: birinchidan, universitet ta'limining ustuvorligiga; ikkinchidan, oliy ta'lim muassasalarini bo'lish va ixtisoslashtirishga; uchinchidan, oliy ta'limni hududiyalashtirish va joylashtirishga qaratildi.

Jahonning rivojlangan davlatlari tajribasidan kelib chiqib universitet ta'limini ustuvorligini ta'minlash maqsadida respublikaning yirik yetakchi oliygohlari negizida 1991-yilda Toshkent davlat texnika universiteti, Toshkent davlat agrar universiteti, Farg'ona davlat universiteti, 1992-yilda Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Respublika rus tili va adabiyoti instituti hamda Toshkent davlat chet tillari pedagogika instituti negizida O'zbekiston jahon tillari universiteti, O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 1992-yil 23-sentyabrdagi Farmoniga asosan Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti tashkil qilindi. Universitetga jahon iqtisodiyoti, davlatlararo munosabatlar, diplomatiya, xuquq va xalqaro jurnalistika sohasida yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash vazifasi yuklatildi. Yuqori malakali kadrlar tayyorlashni optimallashtirish va bozor iqtisodiyoti talablarini inobatga olgan holda yangi mutaxassisliklar bo'yicha yetuk kadrlar tayyorlashni yo'lga qo'yish maqsadida avvalambor, oliy ta'lim muassasalarini bo'lish va ixtisoslashtirish boshlandi. Jumladan, 1991-yilda Toshkent davlat universiteti tarkibidan Toshkent davlat sharqshunoslik va Toshkent davlat yuridik instituti ajralib chiqqan bo'lsa, Toshkent politexnika instituti negizida Toshkent davlat texnika universitetidan tashqari yana ikkita institute – Toshkent kimyo-texnologiya hamda Toshkent arxitektura qurilish instituti tashkil etildi. Shu yili Respublikani moliya va bank sohasida kadrlar tayyorlaydigan Toshkent Moliya instituti, Toshkent xalq xo'jaligi institutidan ajralib chiqib, mustaqil oliy o'quv yurtiga aylandi [5].

O'zbekiston oliy ta'lim tizimidagi islohotlarni yanada chuqurlashtirishga Toshkentda talabalar shaharchasida bo'lib o'tgan 1992-yil 16-17 yanvar voqealari turtki berdi. Bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida talabalarni ijtimoiy himoyalashga katta e'tibor berilishiga qaramasdan ayrim mutasaddilarning

o'z vazifalariga sovuqqonlik bilan qaraganliklari natijasida talabalarga stipendiyani va kuponlarni o'z vaqtida tarqatilmaganligi hamda talabalar shaharchasidagi do'konlarga non mahsulotlarini yetkazib berishdagi uzilishlar talabalarni norozilik namoyishga sabab bo'ldi. Hukumat zudlik bilan muammoni xal qilishga kirishgan bo'lsada ayrim siyosiy kuchlar fursatdan foydalanib talabalarni noqonuniy xarakatlarga undadilar. Tartibsizlikda ikkita talaba nobud bo'ldi [6].

Bo'lib o'tgan voqealar oliy ta'lim sohasida islohotlarni yanada faollashtirdi va viloyatlarda yuqori malakali kadrlar tayyorlash dolzarb masalaga aylandi. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 1992-yil 28-fevral "Respublikaning yangi oliy o'quv yurtlarini tashkil qilish to'g'risida"gi Farmoniga muvofiq, viloyatlardagi pedagogik institutlar negizida Andijon, Buxoro, Guliston, Qarshi, Namangan, Termiz, Urganch universitetlari tashkil topdi. Shu bilan birga viloyatlarda yangi ishlab chiqarish quvvatlarini barpo qilish va ularning yuqori malakali hamda bozor iqtisodiyoti talablariga mos kadrlarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish uchun 1992-yilda yetakchi oliy o'quv yurtlarini filiallari negizida Jizzax politexnika instituti, Qarshi muhandislik iqtisodiyot instituti, Navoiy Davlat pedagogika instituti tashkil qilindi. Shunday qilib, viloyat markazlarida 7 ta universitet, 6 ta institut, hamda Respublikaning nufuzli oliy o'quv yurtlarini 10 ta filiallari o'zlariga berilgan yangi maqomga ko'ra ta'lim shakli va mazmunini zamon talabiga mos holda qayta tuzib faoliyatlarini boshladilar [7].

1992-yil 2-iyulda O'zbekistonda "Ta'lim to'g'risida"gi qonun qabul qilindi. Ushbu qonunda ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy tamoyillari uni demokratik va dunyoviy xarakterda ekanligi hamda barcha davlat va nodavlat ta'lim muassasalarining teng huquqqa ega ekanligi kafolatlandi. O'zbekiston tarixida oliy o'quv yurtlariga ilk bor o'quv dasturlari, darsliklar va o'qitish uslubiyatini o'zi tanlash huquqiga ega bo'ldi. Oliy o'quv yurtlarida kadrlar tayyorlashni ikki pog'onali tizimini joriy qilish ko'zlandi [8].

O'zbekiston oliy ta'lim tizimida bevosita ta'lim sifatini ta'minlaydigan davlat ta'lim standartlarini tayyorlash va joriy qilish kirishildi. Rivojlangan davlatlar tajribasiga tayangan holda oliy o'quv yurtlariga qabul jarayonining shaffofligini ta'minlash maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 1992-yil 11-martdagi "Respublika oliy o'quv yurtlarining kunduzgi bo'limlariga qabulni takomillashtirish to'g'risida"gi Farmoniga binoan 19 ta oliy o'quv yurtlarining kunduzgi bo'limlariga 1992-1993 o'quv yilida kirish imtihonlari eksperiment tariqasida ilk bor test usulida amalga oshirildi. Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tasarrufidagi 28 ta oliy o'quv yurtlariga 172 ta mutaxassislik bo'yicha jami – 26782 nafar talaba, kunduzgi bo'limlarga 16980 nafar, shu jumladan test sinovlari asosida – 5462 nafar talaba o'qishga qabul qilindi [9].

Ilk bor talabalarni test usuli asosida o'tkazilgan qabul jarayoni ijobiy natija berdi. 1993-1994 o'quv yilidan boshlab O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qaroriga asosan mavjud oliy o'quv yurtlariga barcha ta'lim shakllari bo'yicha talabalarini test usuli bilan tanlash joriy etildi [10].

Shuningdek, Respublika oliy o'quv yurtlariga abituriyentlarni test usulida tanlash sohasida yagona davlat siyosatini ta'minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Davlat test markazi tashkil etish to'g'risida"gi 1994-yil 14-may qarorga asosan Oliy o'quv yurtlarining kunduzgi bo'limlariga abituriyentlar tanlash bo'yicha Respublika markazi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markaziga aylantirildi [11].

O'zbekistonda to'liq test sinovlarini joriy etilishi Oliy o'quv yurtlariga kirish chog'ida iqtidorli yoshlarni saralab

olish imkonini berdi hamda xolislik va adolatni ta'minlashda muhim rol o'ynadi. Islohotlar davrida respublika oliy o'quv yurtlari professor-o'qituvchilarining ijtimoiy himoyalashga va ijodiy ilmiy-pedagogik faoliyati uchun qulay sharoitlar yaratishga alohida muhim ahamiyat berib O'zbekiston Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasida oliy ta'lim sifatini yaxshilash chora tadbirlari" to'g'risida Qaroriga binoan 1993-yil 1-sentyabrdan boshlab shartnoma asosida birinchi navbatda ilmiy unvoni va ilmiy darajasi bo'lgan pedagog xodimlarga lavozim maoshlarini yangi miqdori belgilandi. Shuningdek, bir professor-o'qituvchiga to'g'ri keladigan talabalar sonini kamaytirish hamda pedagoglarni yuklama soatlarini nisbatini rivojlangan davlatlardagi me'yorlar darajasiga yaqinlashtirish vazifasi qo'yildi. Shu o'quv yilidan birinchi kursga talabalarni shartnoma asosida test sinovlari natijalari bo'yicha qabul qilishni amalga oshirish va ular bilan shartnoma tuzishning yagona qoidalari hamda o'qitish qiymati tasdiqlandi [12].

Mamlakatning ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy hayotida amalga oshirilgan tub islohotlar, o'tish davrini ob'ektiv qiyinchiliklari hamda bozor iqtisodiyotining kadrlarga qo'ygan talablari, eskicha ekstensiv yondoshuvdan voz kechib asosiy e'tiborni, tayyorlanayotgan mutaxassislarni sifatiga qaratishtni taqazo etdi. 1991-1996 yillar mobaynida ta'lim sifati past bo'lgan barcha ta'lim shakllarida kadrlar tayyorlash qisqarib bordi va bu tendensiya keyingi yillarda ham davom etdi. Masalan, 1991-1992 o'quv yilida O'zbekistonda 52 ta oliy o'quv yurtida 337,4 ming nafar talaba tahsil olgan bo'lsa, 1996-1997 o'quv yilida 58 ta oliy o'quv yurtida 163,7 ming nafar talaba bilim oldi [13].

Ko'plab zamon talabiga javob bermay qolgan mutaxassisliklar qisqartilib, ularning o'rniga zamonaviy texnika va texnologiya yo'nalishlari hamda bank-moliya, menejment sohalarini bo'yicha kadrlar tayyorlash yo'lga qo'yildi. Shu davrda O'zbekiston Respublikasi oliy o'quv yurtlarida 18,5 mingga yaqin professor-o'qituvchilar, shu jumladan 1356 nafar professor va fan doktorlari, 7267 nafar dotsent va fan nomzodlari faoliyat olib bordi va ilmiy salohiyat 52,35 foizni tashkil etdi. Biroq, respublika hududlarida joylashgan bir qator universitetlarda yuqori malakali professor-o'qituvchilarning ulushi nisbatan past bo'lib, atigi 15-30 foizni tashkil etdi. Ko'pgina universitetlarning moddiy-texnik bazasi jismonan va ma'nan eskirgan bo'lib zamon talablariga javob bermas edi. Ularda

zamonaviy axborot texnologiyalarining mavjudligi va undan o'quv jarayonida foydalanish past darajada edi.

O'zbekiston oliy ta'lim tizimida mustaqillikning dastlabki yillarida yuqori malakali ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash sohasida ham ma'lum salbiy holatlar ko'zga tashlandi. 1995-yilda O'zbekistonda 1884 ta fan doktori va 8859 ta fan nomzodi faoliyat ko'rsatdi. Ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlar umumiy sonidan fan doktorlari 7,8 foizni va fan nomzodlari 36,9 foizni tashkil etdi. O'zbekistonda har 10000 aholiga to'g'ri keladigan fan nomzodlarining o'rta soni 3,8 tani tashkil etdi. Shuni ta'kidlash kerakki, O'zbekistonda shu davrda ilmiy-pedagogik va ilmiy kadrlarning "qarishi" salbiy tendensiyasi kuzatildi. Respublika universitetlarida 40 yoshgacha bo'lgan fan doktorlari soni ularning umumiy sonining atigi 0,9 foizini, 50 va undan yuqori yoshda esa 78,8 foizni tashkil etdi [14].

Bunday ahvolni vujudga kelishini bir nechta sabablari bo'lib, avvalambor yosh olimlarni izlash va tanlash, ularni ijtimoiy himoyalashga yetarlicha e'tibor berilmaganligi edi. Kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash tizimi yangi sharoitda deyarli o'zgarishsiz o'z faoliyatini davom ettirdi. Bu sohada bashorat qilish mexanizmi va davlat konsepsiyasi ishlab chiqilmadi. Qo'shimcha kasbiy ta'lim tizimini isloh qilishda xorijiy ilmiy va o'quv markazlari va boshqa tashkilotlarning imkoniyatlari va takliflaridan yetarlicha foydalanilmadi [15].

Xulosa va takliflar. O'tish davrida (1991-1997 y.) respublika ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimidagi salbiy holatlarni bartaraf qilishga hamda milliy ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirish, uning milliy zaminini mustahkamlash, zamon talablariga moslashtirishga qaratilgan ma'lum ishlar amalga oshirildi. Oliy ta'limda universitet ta'limini ustivorligi hamda uni ixtisoslashtirish va hududiyashtirishga qaratilgan me'yoriy xujjatlar ishlab chiqildi. Oliy ta'limga qabul jarayoni modernizatsiya qilindi. Lekin ma'lum ob'ektiv sabablarga ko'ra oliy ta'lim tizimi respublikada jadal amalga oshirilayotgan siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy islohotlardan orqada qola boshladi. Mustaqillikning dastlabki davrida oliy ta'lim tizimida vujudga kelgan jiddiy ziddiyatlar va kamchiliklar O'zbekiston ta'lim tizimining barcha bo'g'inlarini tubdan isloh qilish, uzluksiz ta'lim tizimini shakllantirishni, keyingi bosqichida kadrlar tayyorlash milliy dasturini ishlab chiqishni taqazo etdi.

ADABIYOTLAR

1. Садыков С.Очерки развития высшего образования в Узбекистане. – Т., 1986.;
2. Основные направления перестройки высшего и среднего специального образования в стране: Сборник документов и материалов. М.: Высшая школа, 1987. – 77 с.
3. Каримов И.А. Ўзбекистон мустақилликка эришиш остонасида. – Т.: "Ўзбекистон", 2011. – Б. 16-17.
4. Курбанов Ш., Сейтхалилов Э. Национальная программа подготовке кадров-неотъемлемая часть национальной идеологии. – Т., 2000. С.5-6.
5. Ўзбекистон Республикаси Олий таълим муассасалари: Маълумотнома. – Т.: 2003. – Б.20,27,32,35,46,59,62
6. O'zMDA.P-2653- fond,1- ro'yxat , 6460- yig'ma jild ,8-9 varaq.
7. <https://lex.uz/docs/643035>.
8. <https://lex.uz/docs/56418>
9. O'z MDA.M-130- fond,1- ro'yxat,130- yig'ma jild ,73- varaq
10. <https://lex.uz/docs/559449>.
11. <https://lex.uz/docs/726048?ONDATE=14.05.1994%2000>
12. <https://lex.uz/ru/docs/519761>
13. O'z R PAA.975-fond, 26-ro'yxat, 153- yig'ma jild, 50- varaq.
14. O'z R PAA. 975- fond, 26- ro'yxat, 153- yig'ma jild, 51- varaq.
15. O'z R PAA .975- fond, 26- ro'yxat, 153- yig'ma jild, 52-varaq. .



Jaxongir TOJIBOYEV,
Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti
E-mail: j.i.tojiboev@gmail.com

NamDU professori, t.f.d A.N Rasulov taqrizi asosida

EVACUATION OF POWS IN TURKESTAN

Annotation

This article discusses the process of evacuating prisoners of war captured by the Russians during the First World War. The article also deals with the issues such as how the processes of POWs' repatriation to their homelands were organized, what benefits were given to the former prisoners.

Key words: Prisoner of war, evacuation, military camp, Red Cross Society, League of Nations, Turkestan Evacuation Department, refugees, Brest-Litovsk Peace Treaty, Czechoslovak Legion, Trans-Siberian Railway.

ЭВАКУАЦИЯ ВОЕННОПЛЕННЫХ В ТУРКЕСТАНЕ

Аннотация

В данной статье рассматривается процесс эвакуации военнопленных, захваченных русскими во время Первой мировой войны. В статье также описываются такие вопросы, как организованы процессы возвращения военнопленных на родину, какие льготы предоставляются бывшим военнопленным.

Ключевые слова: Военнопленные, эвакуация, военный лагерь, Общество Красного Креста, Лига Наций, Туркестанское эвакуационное управление, беженцы, Брестский мирный договор, Чехословацкий легион, Транссибирская магистраль.

TURKISTONDA HARBIY ASIRLAR EVAKUATSIYASI

Annotatsiya

Ushbu maqola Birinchi jahon urushi davomida ruslar tomonidan asirga olingan harbiylarning evakuatsiya qilinish jarayonlari haqida so'z yuritadi. Harbiy asirlarni o'z Vatanlariga qaytarish jarayonlari qay yo'sinda tashkil qilinganligi, sobiq mahbuslarga qanday imtiyozlar yaratib berilganligi kabi masalalar ham maqolada bayon etilgan.

Ключевые слова: Военнопленные, эвакуация, военный лагерь, Общество Красного Креста, Лига Наций, Туркестанское эвакуационное управление, беженцы, Брестский мирный договор, Чехословацкий легион, Транссибирская магистраль.

Kirish. Birinchi jahon urushi davrida ko'plab avstro-venger, nemis, turk, chex, polyak va slovak harbiylari ruslar tomonidan harbiy asirlarga aylantirildilar. Harbiy asirlar umrining 8-10-yilini Rossiyaning turli o'lkalarida tutqunlikda o'tkazdi. Turkiston o'lkasiga ham turli millatga mansub asirlar jo'natildi. Birinchi jahon urushi yakunlangandan so'ng, sekin-asta harbiy asirlarni o'z Vatanlariga qaytarish ishlari boshlandi.

Harbiy asirlarning evakuatsiya jarayonlari o'zaro xalqaro kelishuvlar asosida amalga oshirilgan. Turkistonda qolishni istagan asirlarning xohishlari ham inobatga olingan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Turkiston o'lkasidan harbiy asirlarni evakuatsiya qilish jarayonlari haqidagi ma'lumotlar xorijiy adabiyotlarda tadqiq qilingan. Masalan, R. Nachtigal, H. Leidenger, V. Moritz, G. Davis va A. Rachamimov kabi olimlar tomonidan harbiy asirlar masalasi, xususan ularning evakuatsiya jarayonlariga to'xtalib o'tilgan.

Harbiy asirlar evakuatsiyasi to'g'risida Turkistonga tashrif buyurgan siyosiy arboblarning xotiralari ham muhim o'rin egallaydi. Ayniqsa, F.M.Beylining "Миссия в Ташкент" asarida ahamiyatli dalillar keltirilgan. Bundan tashqari, O'zbekiston respublikasi milliy arxivi, Farg'ona viloyati davlat arxivi va Samarqand viloyati davlat arxivida ham asirlikdagi harbiylarni o'z Vatanlariga qaytarish haqida qimmatli manbalar mavjud.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqot xorijiy adabiyotlar va arxiv manbalarida berilgan ma'lumotlarni qiyosiy tahlil qilgan holda olib borildi.

Tahlil va natijalar. Urushlar tarixi shuni ko'rsatadiki, janglarda ko'plab harbiylar asirlikka tushadilar va

hayotlarining keyingi qismini yo zulmatda yoki farog'atda o'tkazishga majbur bo'ladilar. Birinchi jahon urushi davrida ham ko'plab harbiylar asirlarga aylandilar. Xususan, "Uchlar ittifoqi" vakillarining harbiy mahbuslarga aylanish jarayoni shiddat bilan kechdi. Ularning ko'pchiligi Rossiyaning turli hududlaridagi harbiy lagerlarga joylashtirildilar. Ko'plab harbiy asirlar umrining 3-4 yilini 1918-1919-yillarda ularga ozodlik berilguncha Rossiyaning turli hududlarida asirlikda o'tkazdilar. Birinchi jahon urushi yillaridagi harbiy tutqunlikdan so'ng sekin-asta ularning o'z davlatlariga evakuatsiyasi boshlandi. Bu jarayondan Turkiston o'lkasidagi harbiy asirlar ham chetda qolmadi.

Avstro-Vengriya va Rossiya o'rtasida harbiy asirlar masalasida o'zaro shartnoma tuzilgach, ko'plab harbiylar o'z Vatanlariga qaytdilar. Hukumatning bolsheviklar qo'liga o'tishi va Brest tinchlik shartnomasining imzolinishi natijasida harbiy asirlar rasman ozod kishilar deb e'lon qilindi va bir necha yillardan keyingina o'z Vatanlariga qaytishiga muvaffaq bo'ldilar. 1918-yilning iyulida Sovetlarning Butunittifoq V syezdida va 1920-yilning 29-dekabrda bo'lib o'tgan VIII syezdida harbiy asirlarni o'z Vatanlariga qaytarish masalasi o'rtaga tashlandi[18]. Rossiyadan harbiy asirlarning Vataniga qaytarilishi, dastlab, ularning Germaniyadagi rus nogiron harbiy asirlari bilan almashinuvi boshlangan murakkab jarayon edi [21]. 1918-yilning kuziga kelib, harbiy asirlarning aksariyati Yevropa Rossiyasini tark etishdi: 1917-yil oxirigacha almashtirilgan 22 000 nafarga yaqin nogironlarga qo'shimcha ravishda 670 000 nafardan ortiq harbiy asirlar ham o'z Vatanlariga qaytdilar. Ulardan faqat 200 000 nafari rasmiy kelishuvlar orqali Vataniga qaytarilgan bo'lsa, qolganlari siyosiy tartibsizlik davrida bo'sh nazoratdan

foydalanib, o'z yurtlariga qaytib ketish yo'llarini topa olishdi[20]. 1918-yil noyabridan 1920-yil yozigacha rasmiy evakuatsiya jarayonlari qisqardi. Ammo sekin-asta bolsheviklar asirlarning ishchi kuchidan foydalanishni istamay qo'ydi. 1920-yilda fuqarolar urushi tugatildi va harbiy asirlar lagerlari nihoyat tarqatib yuborildi, o'sha vaqtda 500 000 nafarga yaqin harbiy asirlar hali ham Rossiyada edi [22]. Harbiy asirlarni o'z ona mamlakatlariga evakuatsiya qilish jarayonini tashkil qilishda Qizil Xoch jamiyatlari, shuningdek, Millatlar Ligasi Qochqinlar bo'yicha komissar, Fridtjof Nansen (1861-1930) katta rol o'ynadi [19].

Turkistonda 1918-yil yoziga kelib yana 33 ming nafar sobiq harbiy asirlar bor edi[17]. 1920-yilda Sibir va Turkistondan taxminan 30 000 nafar nemis va 118 000 nafar sobiq avstro-venger harbiy asirlari o'z Vatanlariga qaytarildi[19]. Bolsheviklar dastlab o'z hokimiyatini faqat G'arbiy Rossiyada o'rnatgach, 1920-yilgacha fuqarolar urushi tufayli harbiy asirlar Sharqiy Sibirni AQSh va Yaponiya yurisdiksiyasi ostida tark etganidan so'ng Sibir o'lkasi ancha xuvillab qoldi. Shunday bo'lsa-da, 430 000 nafar harbiy asirlar Brest-Litovskda tinchlik shartnomasi imzolanganidan so'ng Oq Armiya tomonidan yana lagerlarga qaytarildi va ularning o'z uylariga qaytish jarayoni orqaga surildi[24]. 70 000 ga yaqin harbiy asirlar Chexiya legioni tarkibiga qo'shildi va ular bolsheviklarga qarshi asosiy siyosiy kuchni tashkil etdi. 1918-yil may oyida Chexiya legioni tomonidan Trans-Sibir temiyolining bosib olinishi natijasida Sibir o'lkasi Yevropadan to'sib qo'yildi va harbiy asirlarning evakuatsiya jarayoni 1920-yilgacha cho'zilishiga olib keldi [23]. 1921-1922-yillarda janubiy Rossiya va Ukrainani 13000 nafar avstro-venger harbiy asirlari tark etdi. Evakuatsiya jarayoni

1922-yilgacha davom etdi. Shu yili 6850 nafar harbiy mahbuslar Vladivostok orqali o'z yurtlariga jo'natildi [23]. Ko'plab harbiy asirlar Rossiyaning turli mintaqalarida qolishni afzal ko'rganlar. Bularning aniq soni hali hamon ma'lum emas. Ularning o'zga yurtda qolishlariga sabab shuki, aksariyati rus ayollari bilan nikoh qurib o'z oilalariga ega edilar. Bundan tashqari, ularni o'z Vatanlarida qanday kelajak kutayotganligi ularga qorong'u edi.

Farg'ona va Samarqand viloyati davlat arxivlarida harbiy asirlar evakuatsiyasi haqida ko'plab arxiv ma'lumotlari saqlanib qolgan. "Barcha avstro-venger harbiy asirlari millati va fuqaroligidan qat'iy nazar 1922-yilning 31-avgustiga qadar bepul o'z davlatlariga reevakuatsiya qilinadi. Evakuatsiya qilinishni xohlaganlar Toshkentning Veronovskiy ko'chasining 6-uyida joylashgan Turkiston Evakuatsiya bo'limiga murojaat qilishlari mumkin. Agarda kimda-kim Turkistonda qolishni afzal ko'rsa, harbiy lageri joylashgan hududning hokimliklariga borib, buni o'z imzolari bilan tasdiqlab kelishlari kerak [3]".

1920-yil iyun oyida Toshkentdan Samarqandga turk harbiy asirlari asl millatlari turk ekanligini tasdiqlovchi hujjatni ko'rsata olsalar, Krasnovodsk orqali o'z Vatanlariga reevakuatsiya qilinishlari mumkinligi haqida telegramma kelgan [11]. Unga asosan 1920-yil 26-iyunda Samarqand viloyati Harbiy asirlar va Qochoqlar Bo'limi tomonidan 359-sonli buyruq ishlab chiqildi. Unga ko'ra, ism-shariflari ilova qilingan quyidagi turk harbiy asirlari uchun alohida vagon ajratilishi va ularni Krasnovodskka qadar eltib qo'yish nazarda tutilgan [12].

Reevakuatsiya qilinayotgan Samarqanddagi turk harbiy asirlari [12]

#	Ism-sharifi	Yoshi	Oila a'zolari	Turk harbiy asiri ekanligini tasdiqlovchi hujjat
1	Silyan Anastas	37	Xotini va 6 nafar farzandi bilan	671 – 13/12/1918
2	Ilya Afendilidi	31	Uylanmagan	101-68 – 28/10/1908
3	Xoxoxa Anfina	28	Kelini bilan	4183 – 12/09/1917
4	Mixail Fulidi	70	Xotini (61 yosh) bilan	4516 – 30/09/1917
5	Vagen Miridjanyan	55	O'gli (27 yosh) bilan	4183 – 12/09/1917
6	Arshak Patrosyan	50	–	5103 – 3/09/1914
7	Xoren Abramyan	19	Uylanmagan	25709 – 21/04/1918
8	Nikolay Afendulidi	60	Xotini va 3 nafar farzandi bilan	145 – 10/04/1918

1921-yilning 17-noyabrida Kattaqo'rg'on uyezdi Evakuatsiya bo'limi tomonidan chiqarilgan 8430-sonli e'londa turk harbiy asirlari 1921-yilning 15-dekabriga qadar O'z Vatanlariga qaytish uchun ro'yxatdan o'tishlari kerakligi ta'kidlandi [13]. Ko'rsatilgan muddatgacha ro'yxatdan o'tmaganlar o'z mablag'lari hisobidan Turkiyaga qaytishga majbur bo'lganlar.

1921-yilning 21-dekabrida Toshkent shahrida joylashgan aholini evakuatsiya qilish bo'yicha Turkiston o'lkasi Boshqarmasi tomonidan Samarqand Evakuatsiya bo'limiga yuborilgan telegrammaga javoban xat tayyorlangan. Unda avstro-venger harbiy asirlari joriy yilning 1-dekabriga qadar ro'yxatdan o'tgan bo'lsalargina, ular davlat hisobidan evakuatsiya qilinishi, aks holda qaytish harajatlari ularning o'z gardaniga tushishi ta'kidlab o'tilgan. Shuningdek, avstro-venger harbiylari zobitlar va askarlarga ajratilganligi ham xatda keltirib o'tilgan [14]. Bundan ko'rinib turibdiki, zobitlar va askarlar uchun alhida vagonlar safarbar etilgan va ularga yaratilib beriladigan sharoitlar ham turlicha bo'lgan.

Harbiy asirlarni evakuatsiya qilish bo'yicha Turkiston Markaziy boshqarmasining 1922-yil 8-fevralda chiqqan buyrug'iga binoan Qo'qon shahridagi sobiq harbiy asirlar 14-fevraldan 28-fevralgacha o'z lagerlarini tark etib, o'z Vatanlariga qaytishlariga ruxsat beriladi [2]. Bu buyruqda ketishni xohlamaydiganlar Qo'qonda qolish mumkin ekanliklari ham ta'kidlanadi.

Farg'ona Davlat Arxividagi manbalardan birida harbiy asirlarning evakuatsiyasi bo'yicha Qo'qon evakopunkti boshlig'i va yordamchisi tomonidan Farg'ona bo'limidagi evakuatsiya punktiga harbiy asirlarning mehnat faoliyati bilan

bog'liq 192-sonli bildirishnoma telegraf xabari sifatida 1920-yil 1-iyunda jo'natilgan ma'lumotlar uchraydi: "1-iyuldagi 149-sonli buyrug'ingizni bajargan holda, men 187-sonli ismlarning ro'yxatini va 1920-yil 12-iyunda Toshkentga yuborilgan 170 kishilik nogiron harbiy asirlar uchun 172-sonli arizani qabul qilish to'g'risida hisobotni taqdim etaman. Ular 14 kun mobaynida oziq-ozqat va kiyim-kechak bilan ta'minlanadi. Santo va Sho'rob nomli mayda ishlab chiqarish obyektlarida harbiy asirlarning maoshlari to'liq hisob-kitob qilinadi. Yuborilgan harbiy asirlar miqdori quyidagicha jo'natiladi: Santodan 57 kishi, Sho'robdan 26 kishi, Qo'qondan 85 va Namangandan 2 harbiy asir, hammasi bo'lib 170 nafar harbiy. Ushbu nogiron harbiy asirlar 422040, 882352, 228665, 331300, 448165, 280178 raqamli 6 ta vagonlarda manzillariga yetkaziladi[1]". Turkiston harbiy okrugi Evakuatsiya bo'yicha Turkiston Markaziy Boshqarmasiga maxsus teegrammalar jo'natib, harbiy asirlar o'z yurtlariga jo'natish yuzasidan topshiriqlarni berib turgan. Boshqarma ham, o'z navbatida viloyat evakuatsiya bo'limlariga bu haqda ma'lum qilib turgan. Buni Markaziy Boshqarma tomonidan Farg'ona viloyati evakuatsiya bo'limiga yozilgan xatda ham ko'rish mumkin: "Evakuatsiya bo'yicha Turkiston Markaziy Boshqarmasi shuni ma'lum qiladiki, Turkiston okrugining 10.11.1921da yuborgan 0302-sonli telegrammasiga binoan sizlarga jo'nab ketuvchilar va ularning yuklari uchun 38 ta vagon ajratiladi [2]".

1921-yilning 10-mayida Toshkent shahridagi Turkiston respublikasi Favqulodda ishlar Komissiyasining 21-sonli buyrug'iga binoan Rossiya-Polsha tinchlik shartnomasi natijasida barcha polyak harbiy asirlari va qochoqlari o'z

Vatanlariga reevakuatsiya qilinishlari mumkin etib belgilangan [15].

Asirlarni evakuatsiya qilishda tasniflanishiga ko'ra o'ta nosog'lom bo'lgan harbiylarga afzalliklar berilgan. Bu borada RSFSR inqilobiy harbiy Soveti, Markaziy Evakuatsiya Boshqarmasi, so'g'liq saqlash xalq komiteti va aholini ijtimoiy himoya qilish xalq komitetining 1920-yil 12-mayda 825/465-sonli buyrug'iga asosan qo'llanma ishlab chiqilgan. Unda irsiy yuqumli kasalliklarga chalingan, ruhiy nosog'lom, protezga muhtoj va kurortlarda davolanishi kerak bo'lgan harbiy asirlarning evakuatsiyasi ustuvor ekanligi ta'kidlangan [9].

O'z Vataniga qaytishni xohamagan avstro-venger harbiy asirlar Turkiston o'lkasida qolishni afzal ko'rganlar. Farg'ona vodiysi deyarli harbiy asirlarning ikkinchi Vataniga aylanib bo'lgandi. Masalan, 1922-yil aprel oyida harbiy asir F. Raday evakuatsiya qilinmasligini so'rab murojaat qilgan: "Men, vengriyalik sobiq harbiy asir, Fyuzef Raday Farg'ona viloyati evakuatsiya boshqarmasi boshlig'iga shuni ma'lum qilamanki, hozirda o'z xohishimga binoan Vatanimga qaytishni istamayman [6]". Shuningdek, 1922-yil 28-mart kuni vengriyalik harbiy asir Chapo Petrovich Farg'ona evakuatsiya boshqarmasining Qo'qon bo'limiga quyidagi mazmunda ariza xatini yozgan: "Meni chet el fuqarosi sifatida evakuatsiya bo'yicha ro'yhatga kiritmasligingizni so'rayman. Qo'qonda qolmoqchiman. Bu yerda oila quraman chunki Vengriyada meni hech kimim yo'q [7]".

Ba'zi bir harbiy asirlar Turkiston o'lkasida oila qurib bo'lganliklari va farzandlari ham borliklari kabi asoslarni keltirib, bu diyorda qolishni istaganlar. Xususan, 1922-yil 1-aprelda Farg'ona viloyati evakuatsiya boshqarmasi Qo'qon bo'limi boshlig'iga yozilgan ariza xatida quyidagilar keltiriladi: "324-sonli aholini evakuatsiya qilish bo'yicha Markaziy Boshqarma buyrug'iga bo'ysungan holda shuni ma'lum qilmoqchiman, ayni vaqda o'z Vatanimga ketishga imkonim yo'q. Bungan sabab turmush o'rtog'im betob, shuningdek, atigi 7 oylik chaqalog'imiz jismoniy jihatdan zaif. Men o'zim ularni tashlab keta olmayman. Agar iloji bo'lsa,

evakuatsiya muddatini cho'zib berishingizni so'rayman. Xotinim sog'ayganidan so'ng farzandimizni olib ketish imkoniyati bo'lsa, o'z yurtimga ketishim mumkin bo'ladi [8]". Shuningdek, Farg'ona viloyati Evakuatsiya bo'limi tomonidan Qo'qon harbiy lageridagi avstriyalik harbiy asir Solomon Zalsler turmush o'rtog'i Antonina hamda qizlari 18-yoshli Patalka va 13-yoshli Tatyana bilan Qo'qonda qolishga ruxsat berilgan.

Harbiy asirlarning reevakuatsiya ishlari yuzasidan doimo viloyatlardan Turkiston o'lkasi Evakuatsiya boshqarmasiga hisobot berib turilgan. Masalan, Samarqand viloyati Evakuatsiya bo'limining tadqim qilgan ma'lumotiga ko'ra, 1921-yilning 28-avgustidan to 15-noyabriga qadar 8 nafar harbiy asirlar o'z oila a'zolari bilan birgalikda o'z Vatanlariga jo'natilgan. Ular avstriyalik, nemis va venger harbiylari edilar [16].

Xulosa va takliflar. Harbiy asirlarni evakuatsiya qilish ishlari 1922-yil 31-avgustiga qadar Rossiya hukumati hisobidan amalga oshirilgan. Ushbu muddatdan keyingi evakuatsion jarayonlar harbiy asirlarning o'z mablag'lari evaziga bo'lgan. Bora-bora harbiy mahbuslar Turkistonni o'zlarining ikkinchi Vataniga aylantirdilar va ajablanarlisi, ular ozod etilganlaridan so'ng ham asirlarning ko'pchilik qismi Turkistonda qolishni afzal ko'rdilar va keyingi hayotlarini Turkiston bilan bog'ladilar. Ularning Turkistonda oila qurib yashayotganliklari yoki urush tufayli Vatanlarida ularni mushtaq bo'lib kutib turgan hech kimning yo'qligi kabi omillar asirlarni Turkistonda umrbod yoki uzoq muddat qolishlariga sabab bo'lgan. Bu holat, albatta, Turkistonning rivoji uchun ijobiy ta'sir qildi, sababiki, harbiy asirlarning ko'pchiligi o'z sohasining haqiqiy professionallari edilar. Ularning bu boradagi tajribalari va mahoratlari Turkistonni har tomonlama taraqqiy etishida muhim ahamiyat kasb etdi. Ko'plab sobiq harbiy asirlarning Turkiston hududida qolib ketishi hozirda O'zbekistonda ham avstro-venger, nemis, polyak, chex va boshqa ko'plab xalqlar avlodlarining o'z diasporalarini davom ettirishlariga sabab bo'lgan.

ADABIYOTLAR

1. Farg'ona viloyati davlat arxivi (FVDA), 431-fond, 1-ro'yxat, 26-yig'ma jild, 48-varaq.
2. FVDA, 435-fond, 1-ro'yxat, 94-yig'ma jild, 1-varaq
3. FVDA, 435-fond, 1-ro'yxat, 94-yig'ma jild, 172-varaq.
4. FVDA, 435-fond, 1-ro'yxat, 159-yig'ma jild, 1-varaq.
5. FVDA, 435-fond, 1-ro'yxat, 159-yig'ma jild, 1-varaq orqasi.
6. FVDA, 435-fond, 1-ro'yxat, 159-yig'ma jild, 8-varaq orqasi
7. FVDA, 435-fond, 1-ro'yxat, 159-yig'ma jild, 10-varaq
8. FVDA, 435-fond, 1-ro'yxat, 159-yig'ma jild, 17-varaq
9. FVDA, 676-fond, 1-ro'yxat, 1-yig'ma jild, 46-varaq
10. Samarqand viloyati davlat arxivi (SVDA), 151-fond, 1-ro'yxat, 11-yig'ma jild, 3-varaq
11. SVDA, 151-fond, 1-ro'yxat, 11-yig'ma jild, 4-varaq
12. SVDA, 151-fond, 1-ro'yxat, 11-yig'ma jild, 6-varaq
13. SVDA, 151-fond, 1-ro'yxat, 77-yig'ma jild, 4-varaq va 6-varaq
14. SVDA, 151-fond, 1-ro'yxat, 77-yig'ma jild, 7-varaq
15. SVDA, 151-fond, 1-ro'yxat, 79-yig'ma jild, 22-varaq
16. SVDA, 151-fond, 1-ro'yxat, 81-yig'ma jild, 37-38-varaqlar
17. Бейли Ф.М. Миссия в Ташкент. М.: Языки славянской культуры, 2013. – С.42.
18. Бочарова З.С. Судьба комбатантов Первой мировой войны в контексте истории Зарубежной России // RUDN Journal of Russian History. – М.: 2019. - № 18 (1). – С.125-150.
19. Davis G. The Life of Prisoners of War in Russia, 1914–1921 // Essays on World War I: Origins and Prisoners of War. New York, 1983. – P. 189.
20. Leidinger H., Moritz V. Gefangenschaft, Revolution, Heimkehr: Die Bedeutung der Kriegsgefangenenproblematik für die Geschichte des Kommunismus in Mittel- und Osteuropa 1917–1920. Wien, 2003. S. 217–228.
21. Nachtigal: Repatriation 2008. Leidinger, Hannes/Moritz, Verena: Österreich-Ungarn und die Heimkehrer aus russischer Kriegsgefangenschaft im Jahr 1918, in: Österreich in Geschichte und Literatur 41/6 (1997), pp. 385-403.
22. Nachtigal, Reinhard: The repatriation and reception of returning prisoners of war, 1918-22, in: Immigrants & Minorities 26/1-2, 2008.– 157-184 pp.
23. Nachtigal, Reinhard, Radauer, Lena: Prisoners of War (Russian Empire), in: 1914-1918-online. International Encyclopedia of the First World War, ed. by Ute Daniel, Peter Gatrell, Oliver Janz, Heather Jones, Jennifer Keene, Alan Kramer, and Bill Nasson, issued by Freie Universität Berlin, Berlin 2014-10-08. DOI: 10.15463/ie1418.10386.
24. Rachamimov A. POWs and the Great War: Captivity on the Eastern Front. - NewYork, 2002. – P. 89.



UDK:314.148(575.1)(09)

Matlyuba XADJAMURATOVA,
Andijon davlat tibbiyot instituti dotsenti, tarix fanlari nomzodi

O'zMU dotsenti A.Xoliqulov taqrizi asosida

YOSHLARNI IJTIMOY HIMOYA QILISH - DAVLAT SIYOSATIDAGI INNOVATSION YONDOSHUVNING SAMARALI MAHSULI

Annotatsiya

Maqolada respublikada yoshlarni ijtimoiy himoya qilish, ularni kamol topishi, iqtidorlarini jamiyat ravnaqi yo'lida ro'yobga chiqarish uchun huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy jihatdan shart-sharoitlar yaratish maqsadidagi davlat siyosatining innovatsion yondoshuvi masalalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: Yoshlar, fond, grant, patronaj, kvota, SOS.

СОЦИАЛЬНАЯ ЗАЩИТА МОЛОДЕЖИ – ЭФФЕКТИВНЫЙ ПРОДУКТ ИННОВАЦИОННОГО ПОДХОДА В ГОСУДАРСТВЕННОЙ ПОЛИТИКЕ

Аннотация

В статье освещены вопросы инновационного подхода государственной политики в целях создания правовых, социально-экономических и организационных условий для социальной защиты молодежи республики, ее взросления, реализации талантов для развития общества.

Ключевые слова: Молодежь, фонд, грант, патронаж, квота, SOS.

SOCIAL PROTECTION OF YOUTH IS AN EFFECTIVE PRODUCT OF AN INNOVATIVE APPROACH IN PUBLIC POLICY

Annotation

The article highlights the issues of the innovative approach of state policy in order to create legal, socio-economic and organizational conditions for the social protection of the youth of the republic, their maturation, the realization of talents for the development of society.

Key words: Youth, fund, grant, patronage, quota, SOS.

Kirish. Mustaqil O'zbekiston tarixida dastlabki eng ustuvor vazifa yoshlarni ijtimoiy himoya qilish masalasi davlat siyosatidagi innovatsion yondoshuvning samarali mahsuli bo'ldi. "Yoshlarning ijtimoiy shakllanishi va kamol topishi, ijodiy iqtidori jamiyat manfaatlari yo'lida imkon boricha to'la-to'kis ro'yobga chiqishi uchun ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy, tashkiliy jihatdan shart-sharoit yaratish hamda ularni kafolatlash"[1] maqsadida qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to'g'risida"gi qonuni (20.11.1991) asosida:

birinchidan, O'zbekistonning yoshlarga oid vakolatlari, shuningdek Qoraqalpog'iston Respublikasining ushbu sohadagi vakolatlari belgilandi. Davlat siyosatining sub'ektlari qonuniylashtirildi. Bu sohada qonunchilikni rivojlantirishga yo'l ochildi.

ikkinchidan, yoshlarni huquqiy va ijtimoiy himoya qilish, ya'ni ta'lim olishi, iste'dodini rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlash qonuniylashtirildi.

uchinchidan, yoshlarga oid davlat siyosatini tashkiliy-huquqiy, ijtimoiy, iqtisodiy yo'nalishlarini rivojlantirish bo'yicha davlat dasturlarini qabul qilinishi, bu borada davlat yordami, nodavlat notijorat tashkilotlarining vakolatlari, yoshlar jamg'armalari vakolatlari, yoshlarning jamoat birlashmalari va yoshlar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash qonuniylashtirildi. Ushbu qonun 2016 yil 15 sentyabrda o'z kuchini yo'qotdi.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Zamoni shiddat bilan o'zgarib borishi, yuzaga kelayotgan siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy o'zgarishlar yoshlar masalasida yangicha yondoshuvni talab etmoqda. Buni inobatga olib, O'zbekistonda yoshlarni ijtimoiy himoya qilish, ularni manfaatlari himoya qilish, ta'lim-tarbiya berish, ma'lum

kasb egasi bo'lishiga ko'maklashish, iqtidorini namoyon etishlariga yo'l ochib berish, yoshlar o'rtasida tadbirkorlikni rivojlantirish, jamiyatda o'z o'rnini topishiga ko'maklashish, ularni siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, ma'naviy hayot jarayonlariga tortish masalalari mujassamlashgan yoshlarga oid davlat siyosati yuritilmoqda.

Shuningdek, 2016 yil 14 sentyabrda qabul qilingan "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonun davlatning yoshlarga oid siyosatini qonuniylatlari va uni amalga oshirish yo'nalishlarini belgilab beruvchi hujjat hisoblanadi. Mazkur hujjat katta ahamiyatga ega bo'lib, davlatni yoshlarga munosabati, yoshlarni rivojlanishi uchun keng imkoniyatlar yaratishdan iborat yoshlar bilan ishlashning yaxlit tizimi joriy etildi. Ushbu hujjat davlatning yoshlarni ijtimoiy himoya qilishdagi innovatsion siyosatining yana bir mahsuli sifatida e'tirof etiladi va yoshlar masalasini alohida qonuniy tartibi sifatida uning bajarilishida samaradorligini oshirishga, barcha vakolatli davlat organlari va nodavlat tashkilotlarining mas'uliyat bilan yondoshishga da'vat qiluvchi rasmiy hujjat sanaladi.

2016 yildagi qonun dastlabki qonundan keng qamrovligi bilan farq qiladi. Yangi qonunda yoshlarni ijtimoiy himoya qilish masalasi quyidagicha mustahkamlandi: Birinchidan, asosiy tushunchalarga ta'rif berilgan, prinsiplar, yo'nalishlar, yoshlar siyosatida qatnashuvchi davlat va nodavlat organlari vakolatlari belgilandi. Yoshlarni himoyalashni kafolatlari, iqtidorli va iste'dodli yoshlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, nizolarni hal qilish masalalari belgilandi. Ikkinchidan, respublikadagi barcha davlat va nodavlat organlarining yoshlarga oid davlat siyosatida ishtiroki masalasi hal etildi. Barcha davlat organlarining ushbu sohadagi vakolatlari, NNTlar, OAV

ishtirok etishi hamda yoshlarni nodavlat notijorat tashkilotlari masalalari qonuniylashtirildi.

Uchinchidan, "yoshlarga oid davlat siyosati - davlat tomonidan amalga oshiriladigan hamda yoshlarni ijtimoiy jihatdan shakllantirish va ularning intellektual, ijodiy va boshqa yo'nalishdagi salohiyatini kamol toptirish uchun shart-sharoitlar yaratilishini nazarda tutadigan ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy va huquqiy chora-tadbirlar tizimi"[2], deb ta'rif keltirilgan.

To'rtinchidan, "ochiqlik va shaffoflik, yoshlarga oid davlat siyosatini ro'yobga chiqarishda yoshlarning ishtirok etishi, yoshlar tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish, ma'naviy, ahloqiy va madaniy qadriyatlarining ustuvorligi, yoshlarning kamsitilishiga yo'l qo'yilmasligi"[2] kabi prinsiplar belgilangan.

Beshinchidan, qonunning "yoshlarga oid davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari"[2], belgilangan, shuningdek, "yoshlarni ijtimoiy himoya qilish kafolatlari"[2] mustahkamlangan. Yoshlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha chora-tadbirlari, unga asosan iqtidorli va iste'dodli yoshlarni hamda yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish, yoshlar ijtimoiy xizmati kabi muhim masalalar huquqiy asoslangan. Ushbu qonun yoshlar masalasida yangicha yondoshuvga yo'naltirdi.

Oltinchidan, moddalar asosida ushbu qonun majburiyatlarini bajarishda davlat va nodavlat notijorat tashkilotlari hamkorligi yanada mustahkamlandi. Vazirlar Mahkamasining "yoshlarga oid davlat siyosatini ro'yobga chiqarish masalalari bo'yicha davlat organlari va muassasalari, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyati boshqa institutlarining hamkorligini"[2], "yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishda xalqaro hamkorlikni amalga"[2] oshirish vakolatlari yuklatilgan. Yoshlar ishlari agentligiga "yoshlarga oid davlat siyosatini ro'yobga chiqarishda nodavlat notijorat tashkilotlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari hamda fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan hamkorlik"[2], "yoshlarga oid davlat siyosati sohasida xalqaro hamkorlikni rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar"[2] va boshqa vakolatlari qo'yildi. Vakolatli davlat va nodavlat organlari faoliyatini moddalarda chegaralanib qolishini oldi olinib, davlat organi va nodavlat tashkilotlari belgilangan vakolatlardan tashqari qonuniy faoliyatga ruxsat etilgan.

"O'zbekiston «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakatining 2017 yil 30 iyun kuni bo'lib o'tgan IV qurultoyi qaroriga muvofiq, O'zbekiston yoshlar ittifoqi tashkil etildi"[3]. 30 iyun sanasi mamlakatimizda «Yoshlar kuni» deb e'lon qilindi. Yoshlar Ittifoqining tashkil etilishi natijasida mamlakatimiz yoshlarini ezgu ishlarga yo'naltirishda va porloq kelajagini ta'minlashda muhim rol o'ynadi. Yoshlar ishlari bilan shug'ullanuvchi davlat va nodavlat tashkilotlarining tashkil etilishi yurtimizda yoshlarni ijtimoiy himoya qilish samaradorligini oshishiga xizmat qildi. Jumladan, "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining Yoshlar masalalari bo'yicha komissiyasi"[4] tuzildi. Mazkur komissiya yoshlar sohasida olib borilayotgan islohotlarda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi rolini yanada oshirish, shuningdek yoshlarning jamiyat va davlat ishlarini boshqarishdagi ishtiroki va ta'sirini amalda ta'minlash, ularning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy faolligini qo'llab-quvvatlash, zamonaviy dunyoqarash, bilim va ko'nikmaga ega yoshlarning bilimlarini va demokratik ko'nikmalarini rivojlantirish maqsadida tashkil etildi.

Ma'muriy hududlarda yoshlar masalalari bo'yicha "Idoralaro Kengash"lar, mahalliy davlat hokimiyatlarida yoshlar masalalari bo'yicha hokim o'rinbosari, hamda ichki ishlar organlarida ichki ishlar boshlig'i o'rinbosari lavozimi joriy etildi. "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi davlat boshqaruvi akademiyasi qoshidagi yoshlar muammolarini o'rganish va istiqbolli kadrlarni tayyorlash

instituti"[5] faoliyat yurita boshladi. "Yoshlar Ittifoqi qoshida yoshlarning nodavlat notijorat tashkilotlari, ya'ni "Imkoniyati cheklangan yoshlar va bolalar Markazi", "Yosh olimlar respublika kengashi", "Yosh fermerlar kengashi", "Yoshlar turizmi agentligi", "O'zbekiston yoshlari umumjahon assotsiatsiyasi", "Ijodkor yoshlar respublika kengashi", "Yoshlar media markazi", "Yoshlar nashriyot uyi" va boshqa 26 ta HHTlar tashkil etildi.

Yoshlarga davlat tomonidan e'tiborni yanada kuchaytirib, ularni har tomonlama kamol topishi uchun ijtimoiy himoya qilish tizimini takomillashtirishga maqsadida Yoshlar ishlari agentligining xizmati ta'minlandi. Uning Nizomiga asosan "agentlik O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini ishlab chiquvchi va amalga oshiruvchi, shuningdek, yoshlarning intellektual, ijodiy va boshqa yo'nalishdagi salohiyatini kamol toptirish uchun shart-sharoitlar yaratishga qaratilgan ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy va huquqiy chora-tadbirlarni tizimli ravishda amalga oshiruvchi davlat boshqaruvi organi hisoblanadi hamda o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga"[6] bo'ysunadi.

O'zbekiston Respublikasida yoshlarni ijtimoiy himoya qilishda davlat siyosatining innovatsion yondoshuvi ta'lim sohasiga bo'lgan e'tiborda ham yaqqol namoyon bo'lmoqda. "Ta'lim to'g'risida"gi (24.09.2020) qonunga ko'ra: - "ta'lim tashkilotlarida ta'lim oluvchilar qonunchilikka muvofiq imtiyozlar, stipendiyalar va vaqtincha yashash joylari bilan ta'minlanadi; to'lov-shartnoma asosida ta'lim oluvchilarga imtiyozli bank kreditlari berilishi mumkin; nodavlat ta'lim tashkilotlari ta'lim oluvchilarni ijtimoiy himoya qilishni qonunchilikka, o'z ustaviga va (yoki) boshqa ta'sis hujjatiga muvofiq amalga oshiradi. Davlat ijtimoiy himoya qilishni ta'minlash maqsadida kam ta'minlangan oilalardagi bolalar, jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan bolalar (shaxslar) uchun, shuningdek mazkur toifadagi ta'lim oluvchilarning kasbiy o'sishi uchun shart-sharoitlar yaratadi"[7].

Qonunga ko'ra "etim bolalarni va ota-onasining yoki boshqa qonuniy vakillarining qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni o'qitish va ularning to'liq ta'minoti"[7] davlat byudjeti mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi. Davlat jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan bolalarning (shaxslarning) davlat ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarida, umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional ta'lim muassasalarida inklyuziv shaklda bepul umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta'lim olishini ta'minlaydi"[7]. Ularga ta'lim muassasalari ixtisoslashtirilgan holda davlat ta'minoti asosida tashkil etiladi. Demak, yoshlarni ijtimoiy himoya qilish bo'yicha qonunchilik hujjatlari: xalqaro hujjatlarga, barcha jismoniy shaxslarni ijtimoiy himoya qilishga qaratilgan huquqiy hujjatlar va yoshlarni huquqlarini himoya qilishga yo'naltirilgan qonuniy hujjatlarga bo'linadi.

Natijalar va muhokama. Shuni ham aytib o'tish kerakki, "oliy ta'lim muassasalariga kirish imtihonlarida eng yuqori ball to'plagan 200 nafar yoshlar uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidenti granti joriy"[8] etildi. Oilalarda 2 va undan ko'p bolasi shartnoma asosida o'qiyotgan bo'lsa o'qish davri tugagandan keyin to'lash sharti bilan ta'lim krediti berila boshladi. Oliy ta'lim uchun davlat granti 25%ga oshirildi. "Ehtiyojmand oilalar farzandi bo'lgan xotin-qizlar uchun davlat grantlari soni 2 baravarga"[8] oshirildi.

Shuningdek, akademik ta'til olish taklifi bilan chiqqan talabalar, ushbu muddatni sirtqi yoki masofaviy ta'limga o'zgartirish imkoniyati yaratildi. Agar yuqoridagi ta'lim shakli muassasada tashkil etilmagan taqdirda talabalar uzluksiz masofaviy ta'lim orqali bilim olishlari mumkin. Oilada bemor parvarishi bilan mashg'ul bo'lgan talabalar ham o'z xohishlari bilan akademik ta'til olishlari mumkin. Bunday ta'tilni

miqdoriy cheklovlari mavjud emas. Talabalar akademik ta'tildan an'anaviy o'qishga qaytganlarida "ilgari o'zlashtirilgan fanlar bo'yicha qaytadan o'qitish amaliyoti bekor qilindi"[8].

"Bolalarni qo'llab-quvvatlash fondi tashkil etildi va Davlat byudjetidan 100 milliard so'm"[8] ajratildi. Bu mablag'lar himoyaga muhtoj bolalarga ta'lim-tarbiya berish, kasbga yo'naltirish hamda og'ir kasallikni boshidan kechirayotgan bolalarni davolash uchun sarflandi.

Yetim va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar maktabgacha ta'lim muassasalari va maktablarga navbatsiz o'qishga joylandi, "ular texnikum, kollej, akademik litsey yoki oliy ta'lim muassasasida o'qiyotgan davrida har o'quv yilida bir marotaba o'quv, ilmiy va badiiy adabiyotlar (kitoblar) xarid qilish xarajatlari uchun Davlat byudjeti mablag'lari hisobidan bazaviy hisoblash miqdorining 5 baravari miqdorida subsidiyalar"[9] ajratildi va b.

"Oliy ta'lim muassasalariga abituriyentlarni qabul qilishning umumiy sonidan «Mehribonlik» uyi va Bolalar shaharchasining bitiruvchilari bo'lgan chin yetimlar uchun qo'shimcha ravishda bir foizgacha davlat granti asosidagi qabul kvotalari 2021/2022 o'quv yilidan boshlab SOS — bolalar mahallalari va oilaviy bolalar uylari bitiruvchilari, shuningdek, vasiylikka, homiylikka yoki oilaga tarbiyaga olingan (patronat) yetim bolalar (yigirma besh yoshga to'lmagan) uchun ham"[9] belgilandi.

Yetim, ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni yangi tarbiya tizimi joriy etildi. "Vazirlar Mahkamasi, Xalq ta'limi vazirligi, Sog'liqni saqlash vazirligi va Milliy gvardiyaning «Mehribonlik» uylari, Bolalar shaharchalari, oilaviy bolalar uylari va Sog'liqni saqlash vazirligi tizimining Bolalar uylari"[10] Milliy gvardiyaga birlashtirildi. "Milliy gvardiya «SOS — O'zbekiston bolalar mahallalari» uyushmasining bolalar mahallalari bilan hamkorlik"[10] o'rnatib, bolalar uyida tarbiyalanayotgan bolalar xalqimiz orasidan vasiylikka da'vo qilayotgan namunali oilalarga birlashtirildi.

Yetim bolalarni uy-joy bilan ta'minlash tartibi o'rnatildi. 2021 yil 15 avgustdan boshlab yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni uy-joy bilan ta'minlashning quyidagi tartibi[11] o'rnatildi: o'zlariga birlashtirilgan turar joyga ega bo'lmagan va turar joyga muhtojlar sifatida hisobda turgan yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarga ular 18 yoshga

to'lgan yilda ko'p kvartirali uy-joylardan umumiy maydoni 25 kvadrat metr dan kam bo'lmagan 1 xonali, voyaga yetgan yetim bolalar o'rtasida nikoh tuzilgan hollarda, 50 kvadrat metr dan kam bo'lmagan 2 xonali kvartiralar ajratiladi[11].

Prezidentning PQ-92-son qaroriga asosan "Yoshlar bilan ishlashning yangicha boshqaruv mexanizmlarini joriy etish, ular bilan ishlashning vertikal tizimini yaratish, yoshlar muammolarini bevosita mahallalarda hal etish, ta'lim muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy ishlarning samaradorligini yanada oshirish maqsadida har bir shaharcha, qishloq, ovulda, shuningdek, shaharlar, shaharchalar, qishloqlar hamda ovullardagi har bir mahallada yoshlar yetakchisi lavozimi"[12] joriy etildi va vazifalari belgilandi. Ushbu vazifalarni sidqidildan bajarib, faoliyatida samaradorlikka erishgan, shaxsiy hayoti va ish faoliyatida namuna ko'rsatgan yetakchilar "Yangi O'zbekiston islohotchisi" ko'krak nishoni bilan mukofotlanadi. Mahalladagi yoshlar yetakchilari tavsiyasi asosida yoshlarga beriladigan yordam turlari belgilandi va "tuman va shaharlarda «Yoshlar daftari»ga kiritilgan yoshlarni qo'llab-quvvatlash jamg'armalari"[13] tashkil etildi, Nizomi ishlab chiqildi. Unga ko'ra jamg'armadan foydalanish yo'nalishlari ishlab chiqildi

"Kam ta'minlangan oilalarni aniqlash va ularga manzilli yordam ko'rsatish maqsadida «Ijtimoiy himoya yagona reestri» axborot tizimi joriy qilindi; kam ta'minlangan nafaqa oluvchi oilalar soni oxirgi uch yilda to'rt barobarga oshib, 1,9 millionga yetdi; ishsizlik nafaqalarining eng kam miqdorlari 3,2 baravarga oshirildi"[14].

2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida belgilangan maksadlardan kelib chiqib hamda ijtimoiy himoya sohasida tizimli islohotlarni izchil davom ettirish va yanada takomillashtirish, aholini ijtimoiy himoya olish huquqlarini ta'minlash, davlat ijtimoiy yordami va xizmatlarini ko'rsatishda samarali idoralararo muvofiqdoshlik tizimini yaratish maqsadida[14] 2022 yil 25 iyul kuni Prezidentning "O'zbekiston Respublikasi aholisini ijtimoiy himoya qilish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni tasdiqlandi. Strategiyaga asosan O'zbekiston Respublikasi aholisini ijtimoiy himoya qilish strategiyasining maqsadli ko'rsatkichlari ishlab chiqildi, "Yo'l xaritasi" belgilandi. Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda demokratik davlat sifatida yoshlarni har tomonlama ijtimoiy himoya qilishning huquqiy asoslari tizimli, bosqichma-bosqich yaratildi.

ADABIYOTLAR

1. "O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to'g'risida"gi qonun. 20.11.1991. 429-XII-son. /https://lex.uz/docs/140894
2. O'zbekiston Respublikasining «Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida»gi Qonuni, 14.09.2016. O'RQ-406-son. /https://lex.uz/docs/3026246
3. Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida. 05.07.2017. PF-5106-son. /https://lex.uz/docs/3255680
4. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining yoshlar masalalari bo'yicha komissiyasini tuzish to'g'risida. 11.03.2020. 167-IV-son. /https://lex.uz/docs/5175895?ONDATE=12.12.2022%2000
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi davlat boshqaruvi akademiyasi qoshidagi yoshlar muammolarini o'rganish va istiqbolli kadrlarni tayyorlash instituti faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida. 14.08.2017. PQ-3206-son. /https://lex.uz/docs/4922152
6. O'zbekiston Respublikasi yoshlar ishlari agentligi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida. 11.09.2020. VM-550-son. /https://lex.uz/docs/4993790
7. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni. 24.09.2020. 637-son. /https://lex.uz/docs/5013007
8. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini «Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili»da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida. 03.02.2021. PF-6155-son. /https://lex.uz/docs/5260791
9. Kam ta'minlangan va ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalar farzandlarini qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida. 30.07.2021. PQ-5204-son. /https://lex.uz/docs/5540980
10. Yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni tarbiyalashning tubdan yangilangan tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida. 09.08.2021. PQ-5215-son. /https://lex.uz/docs/5570968
11. Yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning yangi tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida. 09.08.2021. PQ-5216-son. /https://lex.uz/ru/docs/5569689

12. "Mahallalarda yoshlar bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida". 19.01.2022, PQ-92-son. /<https://lex.uz/uz/docs/5831865>
13. Yoshlar muammolarini o'rganish va hal etish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida. 07.06.2022. VM-312-son. /Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 07.06.2022 y., 09/22/312/0493-son.
14. O'zbekiston Respublikasi aholisini ijtimoiy himoya qilish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida. 25.07.2022. PF-175-son. /Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 26.07.2022 y., 06/22/175/0676-son.



G'ayratbek XAYDAROV,
Andijon davlat universiteti t.f.d., dots.
E-mail: haydarovgayratbek@mail.ru

FarDU t.f.d. professor O. Komilov taqrizi ostida

TRENDS IN THE DEVELOPMENT OF ECONOMIC AND INVESTMENT COOPERATION WITH THE COUNTRIES OF THE WORLD IN THE FIRST YEARS OF INDEPENDENCE (AS AN EXAMPLE OF THE REGIONS OF THE FERGANA VALLEY)

Annotation

This article is about the first years of independence, the government of the Republic of Uzbekistan, the regions of the Fergana Valley, cooperation relations with world countries, international organizations, and the attraction of foreign investments in the region were studied.

Key words: Cooperation, foreign investment, production, joint-venture, deal, contract, program, decision, resolution, project, industry.

ТЕНДЕНЦИИ РАЗВИТИЯ ЭКОНОМИЧЕСКОГО И ИНВЕСТИЦИОННОГО СОТРУДНИЧЕСТВА СО СТРАНАМИ МИРА В ПЕРВЫЕ ГОДЫ НЕЗАВИСИМОСТИ (НА ПРИМЕРЕ РЕГИОНОВ ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЫ)

Аннотация

В данной статье рассмотрены первые годы независимости, правительство Республики Узбекистан, регионы Ферганской долины, отношения сотрудничества со странами мира, международными организациями, привлечение иностранных инвестиций в регион.

Ключевые слова: Сотрудничество, иностранные инвестиции, производство, совместное предприятие, сделка, контракт, программа, решение, резолюция, проект, промышленность.

MUSTAQILLIKNI DASTLABKI YILLARIDA JAHON MAMLAKATLARI BILAN IQTISODIY-INVESTITSION HAMKORLIKNING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI (FARG'ONA VODIYSI VILOYATLARI MISOLIDA)

Аннотация

Ushbu tadqiqotda mustaqillikning dastlabki yillarida O'zbekiston Respublikasi hukumati, Farg'ona vodiysi viloyatlari jahon mamlakatlari, halqaro tashkilotlari bilan hamkorlik aloqalari horijiy investitsiyalarning mintaqa xududida jalb etilishi tadqiq etilgan.

Kalit so'zlar: Hamkorlik, xorijiy investitsiya, ishlab chiqarish, qo'shma korxonalar, bitim, shartnoma, dastur, qaror, rezolyutsiya, loyiha, sanoat.

Kirish. Hozirgi keng miqyosdagi globallashtirish, integratsiyalashuv va axborotlashuv jarayoni takomillashayotgan davrda xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik dunyo mamlakatlari uchun har jihatdan qulaydir. Buning uchun xalqaro tashkilotlar, xalqaro mintaqaviy tashkilotlar, rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar bilan ikki va ko'p tomonlama aloqalarni yanada rivojlantirish maqsadga muvofiqdir.

Respublika Prezidenti Sh. Mirziyoev ta'kidlaganidek: "Biz tashqi siyosat sohasidagi faoliyatimizni avvalo xalqimiz, Vatanimiz manfaatlarini har tomonlama hisobga olgan holda amalga oshiramiz. Bu siyosatning asosini tinchlikparvarlik, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik, yuzaga keladigan ziddiyat va qarama-qarshiliklarni faqat tinch, siyosiy yo'l bilan hal etish tashkil etadi. Biz bundan buyon ham uzoq yaqindagi barcha xorijiy mamlakatlar, jahon hamjamiyati bilan samarali hamkorligimizni davom ettiramiz. Bu borada ochiq, do'stona va pragmatik siyosat olib borish tamoyiliga sodiq qolamiz".

Jahon hamjamiyatiga a'zo davlatlar bilan respublika mintaqalarida ishlab chiqarishni sanoatlashtirishga qaratilgan siyosatni izchil amalga oshirilishi tufayli qishloq aholisining asosiy qismini sanoat korxonalarini, xizmat ko'rsatish sohasiga jalb qilish uchun yangi ish o'rinlarini tashkil etish, kichik va qo'shma korxonalarini ko'paytirish orqali mintaqalarni xomashyo ishlab chiqaruvchi sub'ektlardan tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish hududlariga aylantirish, buning uchun mintaqalar iqtisodiyotiga chet el investitsiyalari va ilg'or zamonaviy ishlab chiqarish texnologiyalarini olib kirishning qonuniy asoslarini yaratilishi bu boradagi mintaqalar imkoniyatlaridan to'la foydalanish imkonini yaratadi.

Ushbu imkoniyatlar asosida O'zbekiston Respublikasi 1991 - yil 19 - dekabrda Turkiya Respublikasi bilan iqtisodiy va savdo sohasida o'zaro hamkorlik to'g'risida, 1992 - yil 13 - martda Xitoy Xalq Respublikasi hukumati bilan "Sarmoyalarni rag'batlantirish va o'zaro hamkorlik to'g'risida"gi, 1992 - yil 17 - iyunda "O'zbekiston Respublika Hukumati va Koreya Respublikasi Hukumati o'rtasida kapital mablag'larni rag'batlantirish va o'zaro himoya qilish to'g'risida"gi, 1992 - yil 22 - iyunda "O'zbekiston Respublikasi Hukumati va Malayziya Hukumati o'rtasida iqtisodiy va texnik hamkorlik to'g'risida"gi tuzilgan bitim va shartnomalar tuzildi.

1993 - yil 20 - avgustda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Germaniya Federativ Respublikasi bilan hamkorlik qilish masalalari bo'yicha idoralararo komissiya tuzish to'g'risida"gi 424-sonli Qarorni qabul qildi.

Qarorga muvofiq, idoralararo komissiya vazifalari qilib, davlatlar o'rtasida hamkorlik dasturlarini tayyorlash, hamkorlik dasturlarini amalga oshirilishiga ko'maklashish, ularni amalda va o'z muddatlarida bajarilishi barbod bo'lishiga yo'l qo'ymaslik, respublikada iqtisodiy o'zgarishlarni amalga oshirishda Germaniya sarmoyasini jalb qilish barobarida hamkorlarning boshqaruv tajribasidan, texnologiyalardan, mutaxassislaridan foydalanish uchun qulay shart-sharoitlarga ega bo'lindi.

Farg'ona vodiysining viloyatlarida, jumladan, Farg'ona, Andijon va Namangan viloyatlarida ham xususiyashtirish, mulkni davlat tasarrufidan chiqarish borasida amalga oshirilgan chora-tadbirlarga qaramasdan, ko'pchilik korxonalarining nomi o'zgartirilsa-da, ularda ish tashkil etilishi, eng asosiysi mulk bo'lgan munosabat eskicha shaklda qolayotganligi, ushbu korxonalarda viloyat iste'mol bozorini to'ldirish, yangi mahsulot turlarini ishlab chiqarish bo'yicha yetarli ishlar amalga oshirilmaganligini kuzatish mumkin.

Shuning uchun ham mulkni davlat monopoliyasidan chiqarish va xususiyashtirish, islohotning asosiy ma'nosi va kerak bo'lsa uning asosiy maqsadi-bu mulkni haqiqiy egasiga topshirish va tadbirkorlikni keng qo'llab-quvvatlash hayotiy zaruriyat, ayni chog'ida mintaqa ijtimoiy-iqtisodiy hayotini jadal taraqqiy ettirishda jaxon mamlakatlari bilan iqtisodiy-investitsion hamkorlikning rivojlanishini asosiy omili bo'ldi.

Mintaqa iqtisodiyotiga jahon mamlakatlarining investitsion hamkorligini rivojlantirishda shubhasiz, 1994 - yil 5 - mayda O'zbekiston Respublikasida qabul qilingan "Chet el investitsiyalari va chet ellik investorlar faoliyatining kafolatlari to'g'risida"gi Qonun muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

Ushbu qabul qilingan Qonun respublikadagi ishlab chiqarish korxonalarini chet ellik hamkorlar bilan o'zaro manfaatdorlik asosida hamkorlik olib borishlari uchun me'yoriy hujjat bo'lib xizmat qilish barobarida, ushbu qo'shma korxonalarini miqdor jihatidan ortishida ijobiy rol o'ynadi.

Farg'ona viloyatida 1995 - yilga kelib, 37 ta qo'shma korxonalar tashkil etilgan bo'lib, ularning nizomiy jamg'armasiga xorijiy sarmoyadorlar tomonidan kiritilgan sarmoya miqdori 5 mln. 795 ming AQSh dollarini tashkil etgan.

Namangan viloyatida ham shunga mutanosib ravishda 25 ta qo'shma korxonalar va 20 ta tashqi iqtisodiy aloqa qatnashchisi bo'lgan yirik korxonalar faoliyat yuritgan. Viloyat dunyoning AQSh, Angliya, Kanada, Yaponiya, Turkiya, Italiya kabi 14 ta rivojlangan jahon mamlakatlari bilan ilmiy-texnikaviy, iqtisodiy, madaniy aloqalar o'rnatgan. 1995 - yilga kelib viloyatdagi ishlab chiqarish korxonalarida 45 turdagi, mahalliy sanoatda esa 30 turdagi tayyor mahsulotlar ishlab chiqarilgan.

Viloyat tadbirkor va ishblarmonlari Shveysariya va Germaniyaning "Shifer AG", "SENASKO", Yaponiyaning "Nigemen", "Marubini", "Mitsubishi", Germaniyaning "Krones" kompaniya va firmalari bilan hamkorlik aloqalarini o'rnatib, ichki va tashqi bozor uchun haridorgir tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni yo'lga qo'ydilar.

Viloyatning Yangiqo'rg'on tumanida Shveysiyaning "Alfa-Laval" firmasi bilan hamkorlikda yiliga 35 ming tonna meva-sabzavotlarni qayta ishlab chiqarish quvvatiga ega qo'shma korxonalar, Namangan shahrining Nurobod dahasida Xitoy Xalq Respublikasining "XUAVEY" kompaniyasi bilan hamkorlikda 1200 raqamga xizmat ko'rsatuvchi ATS, viloyat "Sanoat-savdo" konserni Turkiyaning "I-TAKO" firmasi bilan hamkorlikda bir yilda 3000 ming dona terini qayta ishlash

quvvatiga ega bo'lgan "Kasimir teri" qo'shma korxonasi qurilib ishga tushirildi. Bundan tashqari viloyatning "Zarkent" hissadorlik jamiyati, "Yantar" O'zbek-Rossiya qo'shma korxonasi kabi 19 dan ortiq tashkilotlar "Tashqi iqtisodiy aloqalar qatnashchisi" maqomiga ega bo'ldilar.

Lekin ushbu qo'shma korxonalarida ishni tashkil etish va uni boshqarish, tarmoqlarda ishlovchi mutaxassis kadrlarning yetishmasligi muammosini ijobiy hal etish dolzarb muammolar sirasiga kiritilgan. Ushbu muammoni hal etish uchun Farg'ona viloyati hokimligi 1995 - yil 27 - yanvarida rezolyutsiya qabul qildi.

Ushbu rezolyutsiyada ta'kidlanishicha, davr talabiga javob beradigan kadrlar bilan iqtisodiy sub'ektlarni mustahkamlash maqsadida viloyat, tuman, shahar kesimlarida kadrlar zahirasini shakllantirish, Farg'ona davlat universiteti qoshida korxonalar va tashkilotlar rahbarlarini hamda iqtisodchi-mutaxassislarini iqtisodiy va malakaviy bilimlarini oshirish maqsadida doimiy harakatdagi maxsus o'quv markazi faoliyatini yo'lga qo'yish, ularni nazariy bilim ko'nikmalarini amaliy mustahkamlash uchun shu sohaga aloqador vazirlik va idoralardan amaliy yordam so'rash, viloyatdagi iqtidorli yoshlarni va qobiliyatli mutaxassislar orasida tanlov o'tkazib tanlov g'oliblarini xorijda tahsil olishga hamda malakalarini oshirishlari uchun imkoniyatlar yaratish bo'yicha muntazam faoliyat olib boruvchi viloyat maxsus kommissiyani tuzish belgilangan.

Andijon viloyati iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni jalb etilishining dastlabki bosqichida muhim o'rin egallovchi ishlab chiqarish majmualaridan biri "UZDEUavto" qo'shma korxonasi. Ushbu qo'shma korxonaning yillik ishlab chiqarish quvvati 200 ming dona yengil avtomobilni tashkil etishi, loyihaning dastlabki bosqichida 4 ming nafar mahalliy yoshlar ish bilan ta'minlanishi, mahalliyashtirish dasturi amalga oshirilganidan so'ng esa ushbu majmuaga xizmat ko'rsatuvchi qo'shma korxonalaridagi ish o'rnlarning miqdori 50 ming o'ringa yetishini inbatga olinsa, ushbu yirik xalqaro loyihami mintaqa iqtisodiyotidagi ahamiyati naqadar muhimligini idrok etish mumkin.

Ushbu investitsion loyihami amalga oshirish barobarida 1995 - yilning o'zidayoq 1500 nafar Andijon viloyati yoshlari Janubiy Koreyaning yirik avtomobil zavodlarida o'zlari tanlagan mutaxassisliklari bo'yicha o'qib, o'z malakalarini oshirib qaytdilar.

Namangan viloyatida ishlab chiqarishning turli sohalarini qamrab olgan, mahsulotlarini qayta ishlab tayyor mahsulot ishlab chiqarishga ixtisoslashgan "Marvel Djus Ko'", "Nestle-O'zbekiston", "Bunyod", "Muslim-tekst", "Golden-Frut" qo'shma korxonalarini, "Mushtariy", "Namangantekstil", "Mexmash" aksiyadorlik jamiyatlarini tomonidan mineral suvlar, turli xil konserva, to'qimachilik mahsulotlari, sport anjomlari, elektron o'lchagichlar ishlab chiqarilishi yo'lga qo'yildi. Xorijiy sarmoyalari asosida zamonaviy jihoz va uskunalar, ilg'or texnologiyalarga ega bo'lgan "Popfen", "Silk-Road", "Selin-Tekstil", "Sin-Nam", "As-Shax", "Iskovut-Teks" va "Marmar F" kabi yirik qo'shma korxonalar barpo etildi. Ushbu loyihalalar amalga oshirilishi jarayonida xorijiy hamkorlar tomonidan viloyat iqtisodiyotiga kiritilgan 200 mln. AQSh dollari miqdoridagi sarmoyalar o'zlashtirildi. Viloyatda Germaniyaning yirik firmalari bilan hamkorlikda trikotaj matolar, frantsuz ishblarmonlari bilan selluloza ishlab chiqarishga ixtisoslashgan yangi korxonalar qurib ishga tushirildi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 - yil 6 - martdagi "Farg'ona va Andijon viloyatlari aloqa tarmog'ini kengaytirish va yangilash to'g'risida"gi 102-sonli qaroriga asosan, "Andijon-telekom" telekommunikatsiyalar tarmog'ini rivojlantirish va qayta jihozlash maqsadida Koreya iqtisodiy taraqqiyotini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi bilan hamkorlikda O'zbekiston Respublikasida elektr aloqa

tarmog'ini kengaytirish va yangilash (EDCF) loyihasi ishlab chiqildi. Loyihaga ko'ra, Farg'ona viloyat telekommunikatsiya tarmoqlarini kengaytirish va yangilash uchun 5,2 milliard Koreya vonni miqdoridagi investitsiya mablag'i ajratildi.

Bu shartnoma asosida 2001 yili 25000 raqamli "DTS-1100A" va "DTS-2000" raqamli stantsiyalarni yetkazib berish, montaj qilish, "SDN" stantsiyalararo aloqa vositalari, elektr ta'minot jihozlari, klimatexnika, shisha tolali aloqa kabellari va ularni montaj qilish ishlari yakunlandi.

Farg'ona viloyatida hududlarning resurslar va xomashyo bo'yicha imkoniyatlaridan yanada to'liqroq va samarali foydalanish bo'yicha tashkil etilgan qo'shma korxonalaraga xorijiy investitsiyalarni kengroq jalb etishni yanada rag'batlantirish borasida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001 - yil 23 - noyabrda qabul qilingan "Qo'shma korxonalar tashkil etishga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qabul qilgan №459-sonli qarorining ijrosini ta'minlash bo'yicha amaliy chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Darhaqiqat, Farg'ona viloyati tadqiq etilgan yillarda ham respublikada yirik iqtisodiy salohiyatga ega bo'lgan viloyat sifatida dunyoning ko'plab nufuzli kompaniya va firmalari bilan ishonchli hamkor sifatida mustahkam aloqalarni olib borishga erishdi. Jumladan, Yaponiyaning "Mitsui" firmasi bilan hamkorlikda Farg'ona neftni qayta ishlash zavodi jahon andozalari talablari asosida ta'mirlanib, qayta jihozlanib ishga tushirildi. Farg'ona shahrida, Toshloq, Oxunboboyev tumanlarida Janubiy Koreya respublikasining

"Kabul Tekstayl", va "DEU Tekstayl Kompani" kompaniyalari bilan hamkorlikda ip-kalava, to'quv fabrikalari, Qo'qon shahrida Germaniya va Amerika firmalari bilan hamkorlikda "Qo'qon Teks", Beshariq tumanida Germaniya va Turkiya bilan o'zaro hamkorlikda "Besh Teks" korxonalari, Frantsiyaning "Krebe-Speyshim" kompaniyasi hamda Chexiyaning MBNS firmasi bilan o'zaro hamkorlikda mineral o'g'itlar ishlab chiqarishga ixtisoslashgan Farg'ona "Azot" ishlab chiqarish birlashmasi qayta ta'mirlanib, jihozlanib ishga tushirildi. Buning natijasi o'laroq, korxonada vadiy viloyatlari qishloq xo'jaligini mineral o'g'itlarga bo'lgan talabini qondirish imkoniyatiga ega bo'lgani holda. Xatto o'z mahsulotlarini qo'shni va uzoq xorijiy davlatlarga eksport qilish imkoniyatiga ega bo'ldi.

Xulosa. Yangi ming yillikning yigirma birinchi yilida jahon hamjamiyatida muhim siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar, rivojlanishlar yuzaga kelmoqda. Ushbu jarayonda O'zbekiston Respublikasining iqtisodiy sohada olib borilayotgan tashqi siyosati, iqtisodiy taraqqiyotni o'sishi bu borada xalqimizni turmush sharoitini yaxshilashning muhim vositasi hisoblanadi.

O'zbekistonni jahon integratsiyasiga qo'shilib borishi bu sohada olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlarini takomillashtirish, xalqaro tashkilotlar va mamlakatlar o'rtasida iqtisodiy-ijtimoiy aloqalar kengayib borishi davlatni kadrlar tayyorlash salohiyatini oshishi, yuqori unumli chet el texnologiyalarini kirib kelishi, axborot texnologiyalarini o'zaro almashinuvi mamlakat rivojlanishi taraqqiyotini yangi bosqichga ko'tarilib borishiga asos bo'ladi.

ADABIYOTLAR

1. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi.- Toshkent: O'zbekiston,-2017.-B.25-26.
2. O'z R PAA Andijon viloyat bo'limi, 4141-fond, 6-ro'yxat, 23-yig'ma jild, 2-3 varaqlar.
3. Yangi O'zbekistonning 7 zafarli yili-Toshkent: Sharq,1999. 206-211-betlar.
4. Qonun hujjatlar to'plami milliy bazasi. LexUZ / On-line. 20.08.1993.
5. FVDA. Fond-1220, Ro'yxat-3, Ish-31, Varaq-12.
6. FVDA. Fond-1220. Ro'yxat-2. Yig'ma jild-58. Varaq-12. O'zbekiston Respublikasi qonunchilik asoslari (Xrestomatiya). – Toshkent: Adolat, 2000.-B.667.
7. FVDA. Fond-1120. Ro'yxat-1. Yig'ma jild-87. Varaq-125.
8. Rapigaliev B. Hamisha yelkadoshmiz // Namangan haqiqati.-1995. 21 oktyabr.
9. NVDA Fond-1083, Ro'yxat-1, Yig'ma jild-136, Varaq-37.
10. Xaydarov Z.U. Namangan viloyatining sovet davri va mustaqillik yillaridagi ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy tarixi: qiyosiy tahlil. t.f.n ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss...-Toshkent: 2007.-B.122-124.
11. FVDA. Fond-1120. Ro'yxat-1. Yig'ma jild-87. Varaq-127.
12. O'z R PAA Farg'ona viloyat bo'limi, 2048-fond, 6-ro'yxat, 16-yig'ma jild, 27-28 varaqlar.
13. Yo'ldashev Sh. Xorijiy sarmoyalar va O'zbekistonning strategik manfaatlarini himoya qilish. // O'zbekiston iqtisodiy axborotnomasi. Toshkent: 2000. № 1., 32-33 betlar.
14. Muhitdinov B. Taraqqiyotga tamal toshi qo'yuvchi soha. //O'zbekiston iqtisodiy axborotnomasi. T.: 2006. №9-10. 36-38 b
15. Karimov I. Ozod va obod vatan, erkin va farovon hayot-prirovard maqsadimiz. 8-jild,-Toshkent: O'zbekiston, 2000.-B.182-183.
16. Telekommunikatsiya tarmog'ining tub burilishi mustaqilligimizning ilk yillaridan boshlandi. Xususan, 1993 yili MDH davlatlari o'rtasida birinchi bo'lib, PBO "Uzprommashimteks" va Janubiy Koreya davlatining "Daewoo" korporatsiyasi o'rtasida Farg'ona shahriga 50000 raqamga mo'ljallangan TDX-1B tizimining kommutatsiya jihozlari va shisha tolali aloqa liniyasi yetkazib berish bo'yicha qiymati 14,5 million AQSh dollariga teng bo'lgan shartnoma tuzildi. Mazkur loyihaga ko'ra Farg'ona shahriga 30000 Qo'qon va Marg'ilon shaharlariga 10000 raqamli TDX-1B elektron stantsiyalari, IKM-480 stantsiyalararo aloqa vositasi, elektron ta'minot jihozlari, klimatexnika, shisha tolali kabellar montaj qilinib, foydalanishga topshirildi. Farg'ona: istiqloлга shukrona. O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 20 yilligiga bag'ishlanadi. "Farg'ona" 2011 y. 97-bet.



Turdiyev SHADMONOV,
O‘zMU katta o‘qituvchisi, PhD

CHDPU professori Y.G‘affarov taqrizi asosida

TRANSFORMATION OF VIEWS ON THE ANTI-RELIGIOUS POLICY OF THE SOVIET GOVERNMENT IN UZBEKISTAN IN FOREIGN HISTORIOGRAPHY

Annotation

The author in this article had attempted to analyze the scientific views of Anglo-American historiography related to the religious policy of Soviet Power in Uzbekistan. Special attention the author paid to the transformation of scientific views of Anglo-American historiography from the views of 1960s-1980s of XX century marked as Sovietology to the views of the Beginning of XXI century on issues related to the religious policy of Soviet Power in Uzbekistan.

Key words: Soviet Power, Uzbekistan, historiography, Anglo-American historiography.

ТРАНСФОРМАЦИЯ ВЗГЛЯДОВ НА АНТЕРЕЛИГИОЗНУЮ ПОЛИТИКУ СОВЕТСКОГО ПРАВИТЕЛЬСТВА В УЗБЕКИСТАНЕ В ЗАРУБЕЖНОЙ ИСТОРИОГРАФИИ

Аннотация

Автор в данной статье предпринял попытку проанализировать научные взгляды англо-американской историографии на религиозную политику Советской власти в Узбекистане. Особое внимание автор уделил трансформации научных взглядов англо-американской историографии от взглядов 1960-1980-х годов XX века, обозначенных как советология, к взглядам начала XXI века на вопросы, связанные с религиозной политикой Советской власти в Узбекистане. .

Ключевые слова: Советская власть, Узбекистан, историография, англо-американская историография.

XORIJY TARIXSHUNOSLIKDA O‘ZBEKISTONDA SOVET HOKIMIYATINING DINGA QARSHI SIYOSATIGA DOIR QARASHLAR TRANSFORMATSIYASI

Annotatsiya

Mazkur maqolada muallif bolsheviklarning dinga qarshi siyosati va “kurashchan xudosislar” jamiyati faoliyatiga xorijiy tarixshunoslikning ilmiy qarashlari bosqichlarini tahlil etishga harakat qilgan. Maqolada asosiy e’tibor O‘zbekistonda sovet hokimiyatining dinga qarshi siyosatiga oid ilmiy qarashlarning transformatsiyasiga, ya’ni sovetologiya sifatida tasniflangan XX asrning 60-80 yillardagi ilmiy qarashlardan XXI asrning boshida shakllangan qarashlardagi o‘zgarishlarga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: Sovet hokimiyati, O‘zbekiston, tarixshunoslik, Angliya-Amerika tarixshunosligi.

Введение. Вопросы, связанные с исламом, особенно его положением в Советском Союзе, были постоянным объектом внимания мировой историографии, а различные аспекты мусульманской религии и в настоящее время являются предметом исследований во многих странах мира. Советская историография данной проблемы, пожалуй, наиболее объемна, однако подходы к данной теме в советских исследованиях в значительной степени отличались от исследовательских концепций зарубежных стран. Тем не менее, западные историки и исламоведы широко пользовались советской литературой, из которой извлекались статистические данные либо другие материалы, получавшие прямо противоположную оценку. В целом они накопили богатый опыт по анализу процессов, происходивших в СССР, и представляли отличную от других трактовку проблем по ключевым направлениям советской историографии. Однако и в самой зарубежной историографии ислама, особенно в части, касающейся ислама в СССР, существовали и существуют свои проблемы, тенденции и традиции.

Анализ литературы. Известно, что советская теория исламоведения опиралась на атеизм и, базируясь на коммунистической идеологии, выражала лишь негативную оценку сути и содержания исламской религии, как впрочем всех остальных религий.

Изучение религиозной жизни мусульманских народов бывшего СССР в зарубежной историографии происходило в рамках академической традиции, называемой как “советологическое исламоведение”[1].

